

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**F.T. EGAMBERDIYEV, S.R. TOPILDIYEV,
J. X. HAMRAQULOV**

IQTISODIYOT NAZARIYASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining
muvofiglashtiruvchi kengashi tomonidan noiqtisodiy bakalavriat
yo'naliishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2014**

Mas'ul muharrir:

Taqrizchilar:

N.M. Majidov – i.f.n. dots.

A.M. Qodirov – i.f.d. prof.;

X.P. Abulqosimov – i.f.d. prof.

Egamberdiyev F.T.

Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma / F.T. Egamberdiyev, S.R. Topildiyev, J.X. Hamraqulov: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2014, -224 b.

Ushbu o'quv qo'llanma iqtisodiy munosabatlarni nazariy jihatdan o'rghanishda jahon tajribasidan kelib chiqib, iqtisodiy kategoriylar, bozor iqtisodiyotining qonuniyatları, amal qilish mexanizmi, iqtisodiy jarayonlar dinamikasini o'zlash-tirishni yengillashtirish, fanning mazmunini chuqurroq tushunishga yordam berish maqsadida tayyorlangan. Qo'llanmada iqtisodiyotdagi asosiy masalalar, muammolar, yetakchi nazariy maktablar, yo'nalishlar va ularning namoyandalari fikrlari, konsepsiyalari hisobga olingan. Unda iqtisodiyot nazariyasi fanining o'quv das-turida o'rghanish ko'zda tutilgan barcha mavzular qamrab olingan.

Qo'llanmani tayyorlashda Respublika Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, Respublika qonunlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlardan hamda mamlakat iqtisodiy hayotiga tegishli rasmiy statistik ma'lumotlardan o'z o'mida foydalani-gan.

Qo'llanma oliv o'quv yurtining barcha yo'nalishlardagi bakalavrлari va iqtisodiyot nazariyasi fanidan dars beruvchi o'qituvchilarga mo'ljalangan. Shu bilan birga undan magistratura talabalari, tadqiqotchilar va hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining muammolarini o'rghanishga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.



UO'K 338(075)
KBK 65.01ya722

KIRISH

Mamlakatimizda ro'y berayotgan islohotlar kishilar ongi va ruhiyatiga ham ta'sir etib, yangicha sikrlash, bozor iqtisodiyotini idrok etish va uning talablari ruhida ishlash va yashashga intilish qaror topmoqda. Ko'zda tutilgan ulkan maqsadlarga erishish uchun iqtisodiyotda katta o'zgarishlarni amalga oshirish talab etiladi. Bu jarayonlarni chuqur tushunishda birlamchi manbalarning o'mi katta. Iqtisodiyot nazariyasi fani dan tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanma jamiyatning iqtisodiy negizi, uning tarkibiy qismlari, iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarning mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning amal qilish qonuniyatlari, bozor iqtisodiyotining tarkib topish xususiyatlari, o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari, iqtisodiy o'sish va unga ta'sir etuvchi omillar, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tendensiyalari kabi masalalarni qamrab olgan. «Iqtisodiyot nazariyasi» fani talabalarni jamiyatda ro'y beradigan iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'linda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Hamda jamiyatning har bir a'zosini g'oya-viy jihatdan yo'naltirish, ma'naviy duny oqarashini kengaytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirishga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur o'quv qo'llanmani tuzishda davlat va hukumatning tegishli qonun va qarorlari, Prezident I.A. Karimovning asarlari, jumladan «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi» nomli ma'ruzalarida bildirgan fikr va mulohazalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi to'g'risidagi qarori hamda «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» va «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralarisi», «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish – ustuvor maqsadimizdir», «Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli asarlari, jahon iqtisodiyoti fani erishgan nazariy yutuqlar, Hamdo'stlik mamlakatlarining bozor iqtisodiyotiga o'tishda to'plagan tajribalari umumlashtirildi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining mantiqiy tuzilishidan kelib chiqib har bir mavzuga oid nazariy masalalarni yoritishda O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish tajribalari va muammolari uzviy bog'liqlikda olib qaralди. Iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda har bir mavzularda milliy g'oya va milliy mafkura, milliy iqtisodiyot va milliy manfaatlarni hisobga olish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqildi.

I bo'lim. IQTISODIY TARAQQIYOTNING UMUMIY ASOSLARI

1-mavzu. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti va uslubi

Men mudom ta'kidlardimki, iqtisod qonunlari bu hayot qonunlari.

Filip Uikstid (ingliz iqtisodchisi)

Reja:


1. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi va qaror topishi.
2. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti.
3. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar).
4. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning uslubiy prinsiplari.

Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasi


Iqtisodiyot – moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilishni aks ettiruvchi ijtimoiy xo'jalik.

Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi – ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi.

Iqtisodiyot – cheklanangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanim, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilariga yetkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlarni yaxlit qilib birlashtiruvchi iqtisodiy tizim.



Iqtisodiyot nazariyasi fanining shakillanishi va rivojlanishi



• Miloddan avvalgi davrda qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Rim va Sharq mutafakkirlari (Xammurapi, Manu, Konfutsiy, Ksenofont, Platon, Aristotel, Varran, M.Katon, Kolumella va boshqalar)ning iqtisodiy qarashlari. Ular mehnat taqsimoti, yaratilgan mahsulot taqsimlanishi, boylikning vujudga kelishi, xo'jalik yuritish qoidalari, mehnatni tashkil qilish, yerga mulkchilik masalalariga o'z yondashuvlarini bayon qildi.

• Miloddan keyingi dastlabki ming yillikdagi iqtisodiy qarashlar. Bu davrda iqtisodiy bilimlar rivojlanishida muqaddas kitoblar («Qur'on», «Hadis») hamda O'rta Osiyo va Sharqning buyuk allomalarining qarashlari alohida o'rin tutgan.

Ular inson ehtiyojlari (**Forobiy**), daromadlar va xarajatlar muvozanati (**Ibn Sino**), pulning kelib chiqish sabablari (**Abu Rayhon Beruniy**), jamiyatdagi mehnatning roli, moddiy ne'matlarning xususiyatlari, pul va uning vazifalari (**Yusuf Xos Hojib**) jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, davlat moliyasi, soliqlarni belgilash tartibi (**Alisher Navoiy**), insonlarning ishlab chiqarish faoliyati, mehnat va uning jamiyatdagi roli, tovar qiymati va iste'mol qiymati, ayrboshlash jarayoni, tarixiy-ijtimoiy taraqqiyot prinsiplari (**Ibn Xoldun**) kabi masalalarga o'z munosabatlarini bildirishgan.

• «Siyosiy iqtisod» yunoncha so'zdan olingan bo'lib, «politikos» – ijtimoiy, «oykos» – uy, uy xo'jaligi, «nomos» – qonun degan ma'noni anglatadi. Fransuz iqtisodchisi **Antuan Monkretan** (1575–1621-y.) birinchi marta «Siyosiy iqtisod traktati» (1615-y.) asarida bu fanni ilmiy jihatdan asosladi va u 300 yildan ortiq vaqt davomida shu nom bilan rivojlandi.

Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi jarayonida vujudga kelgan asosiy g'oyaviy oqimlar:

Merkantilizm – jamiyatning boyligi puldan, oltindan iborat bo'lib, u savdoda, asosan, tashqi savdoda paydo bo'ladi va ko'payadi, deb tushuntiradi. **Merkantilizm** – italyancha «mercante» so'zidan olingan bo'lib, «savdogar» degan ma'noni anglatadi. Bu oqim namoyandalari: V.Staffod, T. Man, A. Monkretan, Jon Lou, G. Skaruffi va boshqalar.

Fiziokratlar – jamiyatning boyligi qishloq xo'jaligida vujudga keladi degan g'oyani ilgari suradilar. Bu ta'limotning asoschisi f. kene (1694–1774-y.) hisoblanadi.

Klassik siyosiy iqtisod – boylikning faqat qishloq xo'jaligida emas, balki sanoat, transport, qurilish va boshqa sohalarda ham yaratilishini isbotlab berdi.

U. Pettii (1623–1686-y.) boylikning manbayi yer va mehnat ekanligini e'tirof etgan. Mehnat boylikning otasi, yer uning onasi degan ibora unga tegishlidir.

A. Smit «Xalqlar boyligining tabiatni va sabablari to'g'risida tadqiqot» (1776-y.) asarida talab va taklif asosida shakllanadigan erkin narxlar asosida bozor o'z-o'zini tartibga solishi («ko'rinnmas qo'l») g'oyasini ilgari suradi. Insonni faollashtiradigan asosiy rag'bat shaxsiy manfaatdir deb ko'rsatadi.

D. Rikardo qiymatning turli sinflar daromadlari va foydaning yagona manbayi mehnat ekanligini ko'rsatadi.

Sismondi (Jon Sharl Leonard Simonde Sismondi) kapitalistik iqtisodiy mexanizmni tanqid qilib, siyosiy iqtisod inson baxti yo'lida ijtimoiy mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan fan bo'lmosi lozim. deb ko'rsatadi.

Sotsial-utopistlar (A.Sen-Simon, Sharl Furey, Robert Ouen) kapitalizmni tanqid qilib, xususiy mulkchilikni yo'q qilish, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'molni qayta tashkil etish va adolatli tuzum (industrial jamiyat, garmonik jamiyat, kommunizm) o'matish talabi bilan chiqadilar.

Marksizm jamiyat taraqqiyotiga tabiiy-tarixiy jarayon deb qarab, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, ularning vujudga kelishi, rivojlanishi va boshqasi bilan almashinishi sabablari to'g'risidagi ta'limotni hamda qo'shimcha qiymat nazariyasini yaratadi.

Iqtisodiyot nazariyasidagi yangi oqimlar (XIX asr oxiri va XX asr boshlari)

Marjinalizm vakillari (marginal – keyingi, qo'shilgan) – keyingi tovar nafliligi, qo'shilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borishi nazariyalarini ishlab chiqqan. Keyingi tovar nafliligining kamayib borishi qonuni bu oqimning asosiy prinsipi hisoblanadi. Shunga ko'ra, narx xarajatga bog'liq bo'lmay, keyingi naflilik asosida belgilanadi. Marjinalizm asoschilar K.Menger, F.Vizer, E.Bem-Baverk, U.Jevons hisoblanadi.

Neoklassik maktab (asoschisi Alfred Marshall) bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning aralashuvini cheklash g'oyasini ilgari suradi. Bozor mexanizmining buzilishi monopoliyalar vujudga kelganda ham yuz berishini ko'rsatadi. Funksional bog'lanish g'oyasini asoslaydi, bozor narxini belgilovchi omillar talab va taklifdan iborat deb hisoblaydi. Bu maktab vakillaridan L.Valras umumiyligi iqtisodiy muvozanatlari modelini ishlab chiqishga, I.Shumpeter esa iqtisodiy tizimlar o'zgarishining kuchlarini ko'rsatib berishga harakat qilgan.

Keynschilik – rivojlangan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solib turish zarurligini asoslashga qaratiladi. J.M.Keyns «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiyligi nazariyasi» (1936-y.) nomli kitobida bunday tartibga solish yalpi talabga hamda shu orqali inflatsiya va bandlikka ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.

Neoklassik yo‘nalishda yangidan vujudga kelgan oqimlar (XX asrning 50–60-yillaridan boshlab)

Neoliberalizm vakillari (F. Xayek, I. Shumpeter, L. Erxard) – asosiy e’tiborni davlatning iqtisodiyotiga aralashuvini eng kam darajaga keltirishga, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratish lozimligini ta’kidlaydi.

Monitarizm (M. Fridman) – iqtisodiyotni boshqarishni pul muomalasini tartibga solish orqali amalga oshirish mumkinligini asoslab beradi.

Institutsionalizm (T. Veblen, J. Gelbreyt)lar fikriga ko‘ra – xo‘jalik yurituvchilar o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat iqtisodiy, balki noiqtisodiy omillar ta’sirida vujudga keladi. Natijada iqtisodiyotga muassasaviy o‘zgarishlar orqali ham ta’sir ko‘rsatish mumkin bo‘ladi.

Fanning predmeti: Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy ne’matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste’mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo‘jalikni samarali yuritish qonun qoidalarini o‘rganadi.

«Iqtisodiyot nazariyası» darsliklarida fanning predmetiga berilgan ta’riflar

Mualliflari

M.N.Chepurin,
Kiseleva E.A.

Ta’rif

Iqtisodiyot nazariyasi kishi-larning iqtisodiy xatti-harakatini, ya’ni ularning moddiy va nomoddiy ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste’mol qilish bilan bog’liq harakatlarini o‘rganadi

Manba

Курс экономической теории: учебник / Под общ. ред. проф. Чепурина М.Н., проф. Киселевой Е.А. – 6-е исправленное, дополненное и переработанное издание. – Киров: «ACA», 2007, с.28.

| | | |
|--------------------------------|--|--|
| S.S.Nosova | Ishlab chiqaruvchi kuchlarning erishilgan darajasi asosida moddiy ne'mat va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilish bo'yicha kishilar o'rtaida yujudga keluvchi ishlab chiqarish munosabatlarining yig'indisi | Носова С.С Экономическая теория. Элементарный курс: учебное пособие / С.С. Носова. – М.: КНОРУС, 2008, с. 16. |
| G.P.Juravleva, V.I.Vidyapin | Umumiyl iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy fan bo'lib, u cheklangan resurslar sharoitida ehtiyojlarni qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, ayrboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida kishilar va guruhlarning xattiharakatini o'rghanadi | Экономическая теория (политэкономия) Учебник/ Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, акад. Г.П.Журавлевой. – 4-е изд. - М.: ИНФРА-М, 2004, с. 31. |
| V.D.Kamaev | Boylit va resurslarning cheklanganligi, ulardan samarali foydalanish bilan yaxlit holdagi ishlab chiqarish munosabatlari tizimini, ishlab chiqaruvchi hamda iste'molchi sifatidagi insonning xatti-harakatini o'rghanadi. | Камаев В.Д. Экономическая теория: Краткий курс: учебник / В.Д. Камаев, М.З.Ильчиков, Т.А.Борисовская. - 2-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2007, с 21. |
| D.D.Moskovin | Ishlab chiqarish munosabatlari va ularning ishlab chiqarish kuchlari bilan o'zaro ta'sirini o'rghanadi | Основы экономической теории. Политэкономия: Учебник /Под ред. д-ра экон. наук, проф. Д.Д.Москвина. Изд. 3-е, исправл. – М.: Едиториал УРСС, 2003, с. 24. |
| E.F.Borisov | Ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilishda tarkib tespuchi kishilar o'rtaida munosabatlarni o'rghanadi | Борисов Е.Ф Экономическая теория: вопросы – ответы. Учеб. пособие. – 2-е изд., перераб. и доп. М.: ИНФРА-М, 2008, с. 16. |

Iqtisodiy munosabatlar – moddiy va maʼnaviy neʼmatlarni takror ishlab chiqarish jarayonida kishilar oʻrtasida vujudga keladigan turli xil munosabatlar hisoblanadi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining maqsadi – cheklangan iqtisodiy resurslardan foydalanishning turli muqobil variantlaridan eng samaralisini topish orqali jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini toʼlaroq qondirib borishning nazariy va amaliy muammolarini tadqiq qilishdan iborat.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari

| Bilish vazifasi | Amaliy vazifasi | Uslubiy vazifasi | Gʼoyaviy-tarbiyaviy vazifalar |
|--|--|---|--|
| har qanday fan kabi iqtisodiyot nazariyasi ham fundamental ahamiyatga ega: jamiyatda insonlarning tabiat ashyolari, boshqa moddiy ashyolar hamda oʼzaro birbirlari bilan aloqalarida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni tadqiq etib, bizni oʼrab turgan olam toʼgʼrisidagi fikrlarimizni kengaytiradi. | amaliy iqtisodiyotning asosiy maqsadi cheklangan resurslaridan unumli foydalanib, iqtisodiy oʼsishni taʼminlash va shu asosda oʼsib boruvechi ehtiyojlarni qondira borishdan iborat. | iqtisodiyot nazariyasi fanining oʼzi, tahlili va uning tamoyillari, olingan xulosalar, tadqiq etilayotgan iqtisodiy qonunlar boshqa ijtimoiy va tarmoq fanlari uchun uslubiy asos boʼlib xizmat qiladi. | iqtisodiyot ilmi oʼrganuvchilarning ilmiy dunyoqara shini shakllantiradi, milliy istiqlol gʼoyasini yoshlar ongiga singdiradi, ularni millat manfaatlari yoʼlida iqtisodiyotni rivojlanтирish, milliy mahsulotni koʼpaytirish, milliy pul qadrini oshirish, turmush darajasini koʼtarish ruhida tarbiyalash. |

Iqtisodiy qonun – iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar oʼrtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalarini, ularning oʼzaro bogʼliqligini ifodalaydi.

Iqtisodiy qonunlar

umumiy iqtisodiy qonunlar – kishilik jamiyatni rivojlanishining barcha bosqichlarida amal qiladi.

formatsion – maxsus qonunlar – alohida olingan iqtisodiy tizim sharoitida amal qiladi.

xususiy iqtisodiy qonunlar – insoniyat jamiyatni taraqqiyotining ma'lum bosqichlarida amal qiladi.


Iqtisodiy kategoriyalar – bu iqtisodni o'rganishda qo'llaniladigan nazariy tushunchalar bo'lib, ular real iqtisodiy voqelikning ilmiy ifoda etilishidir.

Umumiqtisodiy (ishlab chiqarish, mulk, mehnat jarayoni, mahsulot, ish vaqt, mehnat taqsimoti, ayrboshlash, iste'mol va h.k.)

Formatsion – maxsus (ekspluatatsiya, renta, ekspansiya, aholi ortiqchaligi, qashshoqlanish, monopoliya, oligopoliya va boshqalar)

Davriy – oraliq (bozor munosabatlariiga mos kategoriyalar: tovar, pul, talab-taklif, marketing, narx-navo, infiyatsiya va boshqalar)

Tovarlar, xizmatlar va resurslarning takror ishlab chiqarish fazalaridagi harakati



Ishlab chiqarish – insoniyat jamiyatining hayot kechirishi va rivojlanishi uchun zarur moddiy ne'matlarni yaratish jarayoni

Taqsimot – ishlab chiqarilgan mahsulotdagi har bir xo'jalik yurituvchi subyektning ishtiroki, ulushi (miqdori, proporsiyasi) ni aniqlash jarayoni.

Ayirboshlash – moddiy ne'mat va xizmatlarning bir subyekt dan boshqasiga tomon harakati jarayoni. **Tovarni sotish** – uning pulga ayirboshlanishi, **xarid qilish** esa – pullarni tovarga ayirboshlanishi. **Ayirboshlashning zarur sharti** – ixtisoslashish, mehnat taqsimoti, har xil mulkchilikning kelib chiqishi bu esa jamiyat a'zolari o'rtaida mehnat mahsulini ayirboshlashga olib keladi.

Iste'mol – insonning ehtiyojlarini qondirish uchun ne'matlar dan foydalanishi.

Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ilmiy bilishning asosiy usullari

Haqiqiy fanning vujudga kelishi faqatgina tadqiqot predmeti shakllanishi bilan emas, shu bilan birga uning bilish usulining qaror topishi bilan ham bog'liqdir.

Uslubiyat – bu ilmiy bilishning prinsiplar tizimi, yo'llari, qonun qoidalari va aniq hadislaridir. Bu obyektiv reallikni bilish dialektikasi mantiq va nazariyani o'z ichiga oluvchi bir butun ta'lomitdir. Uslubiyat umumilmiy xarakterga ega, lekin har bir fonda o'zining predmetidan kelib chiqib, ilmiy bilish usullarining o'ziga xos xarakterini taqozo qiladi. Shuning uchun uslubiyat umumilmiy va xususiy bo'ladi.

Ilmiy bilishning umumiyligi usuli bo'lib, dialektik usul prinsiplari xizmat qiladi. BUNDAN TASHQARI, «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining o'ziga xos tadqiqot usullari bo'lib, ulardan eng muhimmi ilmiy abstraksiya usulidir. Iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini o'zgarishida mikroskoplardan, kimyoviy laboratoriyalardan foydalanib bo'lmaydi, ularning o'miga abstraksiya kuchi ishga solinadi.

Ilmiy bilish usullari

Dialektik usul

Iqtisodiyotga bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro aloqada bo'lgan turli bo'g'lnlardan iborat yaxlit bir tizim sifatida qarab, unda ro'y beradigan jarayonlar doimiy o'zgarishda (oddiyan murakkablikka, quyidan yuqoriga) va rivojlanishda deb hisoblaydi.

Ilmiy abstraksiya

Mantiqiy tahlil paytida hodisa va jarayonlarning ikkinchi darajali belgilari fikridan chetlashtirib hamda eng asosiy belgilarni ajratib olish orqali ularning mohiyatini ochib berishga harakat qilish.

Tahlil va sintez usuli

Tahlil – bu o'r ganilayotgan voqeа-hodisalarni alohida qismalgarda ajratib, sintez esa ularni yaxlit bir butun qilib birlashtirish orqali mohiyatini ochib berish.

Eksperiment

Amalga oshirilishi lozim bo'lgan iqtisodiy chora-tadbirlarni sinov tariqasida iqtisodiyotning alohida bo'g'lnlarda qo'llash. Bu usul islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyot inqiroz va turg'unliklarga uchragan davrlarda alohida muhim ahamiyatga ega.

Pozitiv va normativ usul

Pozitiv usul voqeа-hodisalarni real hayotda qanday bo'lsa, shu holicha aks ettirish, normativ usul esa ularning haqiqatda qanday bo'lishi kerakligi to'g'risidagi kishilarning fikr-mulohazalarini.

Grafik usuli

O'zgaruvchi miqdorlar o'rta sidagi bog'liqlikni ko'rgazmali qilib tasvirlaydi.

Farazlash usuli

Iqtisodiy tahlilda «boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda» yoki «boshqa omillar ta'sir qilmaganda», degan farazdan foydalanib, yagona omil ta'sirida iqtisodiy hodisani mohiyatini ochishga harakat qilinadi.

O'zgaruvchi miqdorlar o'rta sidagi bog'liqlikni ko'rgazmali qilib tasvirlaydi.

Iqtisodiy modellar – bu iqtisodiy jarayon va hodisalarning bir tomonidan obyektiv xususiyatlariga, ikkinchi tomondan, tadqiqotning subyektiv maqsadi, xarakteriga ko'ra abstrakt tarzda umumlashtirib ifodalangan reallikning andozasidir.

Optimallashgan modellar – alohida olingan iqtisodiy komponentlar xatti-harakatini tadqiq qilishda foydalaniadi. Ular ko'pincha cheklanganlik xarakteriga ega bo'ladi. Masalan, daromadlar, ish haqi, xarajatlar modeli va h.k.

Iqtisodiy modellar turlari

Muvozanatlashgan modellar – iqtisodiy komponentlar o'rtaсидаги о'заро iqtisodiy munosabatlarni tadqiq qilishda foydalaniadi. Masalan, yalpi talab va yalpi taklif, iste'mol va investitsiyalar, tovarlar miqdori hamda pul massasi modeli va hokazo.

Iqtisodiyot nazariyasining tamoyillari:

- Resurs cheklangan sharoitda tanlash zarurligi;
- Qiymatning muqobilligi;
- Keyingi o'zgarishlarni inobatga olish;
- Qabul qilingan qarorlarning oqibatlarini hisobga olish;
- Samaraning kamayib borishi.


2-mavzu. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI VA TOVAR-PUL MUNOSABATLARI

Amerikalik mashhur advokat mijozini o'lim hukmidan qutqargach, u «Men bu yaxshiligungizni qanday qilib qaytara olaman deya hayronman» – dedi. – «Mening fikrimcha, finikiyaliklar pulni ixtiro ilganlaridan beri bu aslo muammo emas».

Reja:

1. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni. Ishlab chiqarishning omillari.
2. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish va uning rivojlanishi.
3. Tovar va uning xususiyatlari.
4. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari.

Ishlab chiqarishning omillari



Ijtimoiy xo'jalikni tashkil etish shakllari

Ijtimoiy xo'jalikni tashkil etishning umumiy iqtisodiy shakllari

Natural ishlab chiqarish

Tovar ishlab chiqarish

Mahsulotlarni ishlab
chiqaruvchining o'z
ehtiyojlarini qondirishi uchun,
xo'jalik ichki ehtiyojlari uchun
ishlab chiqarilishi

Tovar yoki xizmatlarning
ishlab chiqaruvchining o'z
iste'moli uchun emas, balki
bozorda sotish uchun yaratilishi

Natural va tovar ishlab chiqarishi

**Har qanday xo'jalikni tashkil qilishda quyidagi masalalar hal eti-
lishi lozim:**

- ◊ kim uchun (qanday iste'molchilar uchun) ne'matlar yaratish;
- ◊ foydali moddiylikni tayyorlovchilar mehnatini qanday tashkil etish;
- ◊ ishlab chiqarish va iste'molchi o'rtasidagi xo'jalik aloqalarini qanday
yo'lga qo'yish.

NATURAL ISHLAB CHIQARISH

Bunda msonlar bozorda
ayrboshlash uchun
emas, balki o'zlarining
ehtiyojlarini qondirish
uchun mahsulot ishlab
chiqaradilar.

Yopiq xo'jalik

Ishchilarning universal
(ixtisoslashmagan) mehnati

Ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasida
to'g'ridan to'g'ri aloqa «ishlab chiqarish –
taqsimot – iste'mol»

TOVAR ISHLAB CHIQARISH

Bunda mahsulot shaxsiy
iste'mol uchun emas, balki
ayrboshlash uchun ishlab
chiqariladi. Ishlab
chiqaruvchi va iste'molchi
o'rtasidagi aloqa esa
bozorda amalga oshadi.

Ochiq xo'jalik

Jamoaga taqsimlangan mehnat

Ishlab chiqarish va iste'mol bog'lanishi
«ishlab chiqarish – ayrboshlash – iste'mol»
formulasi asosida bozor orasida amalga oshadi



Natural va tavar xo‘jaliklarining bir-biridan farqlanishi

| Asosiy jihatlar | Natural xo‘jalik | Tovar xo‘jaligi |
|--|---|--|
| 1. Moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish maqsadi | Shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda foydalanish | Boshqa ayriboshlash, bozorda oldi-sotdi qilish |
| 2. Ishlab chiqariladigan mahsulot tarkibini aniqlash | Ehtiyojlar va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda oldindan aniqlanadi | Bozordagi muayyan talab ishlab chiqaruvchining xususiy manfaati asosida aniqlanadi |
| 3. Iste’molchini o‘ziga jalgan etish uchun kurash | Bunday kurash mavjud emas | Bunday kurash mavjud va tavar xo‘jaligining rivojlanishi bilan kuchayib boradi |
| 4. Ishlab chiqarilgan mahsulotning iste’mol qilinishi darajasi | Barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar to‘laligicha iste’mol qilinadi | Ishlab chiqarilgan mahsulotlar ayrim turlari va qismlarining sotilmay qolishi, ya’ni iste’mol qilinmasligi |
| 5. Ishlab chiqarish jarayonidaishchi kuchining ishtroq etish tamoyillari | Ishlab chiqarish jarayonida faqat o‘zining va oila a‘zolarining ishchi kuchidan foydalanadi | Ishlab chiqarish jarayonida yollanma ishchi kuchidan ham foydalanish mumkin |

Tovar xo‘jaligining rivojlanish bosqichlari:

- Oddiy tovar xo‘jaligi – bunda muayyan tovarlar jamiyatning asosiy mayda, alohidalarshgan va ma’lum darajada ixtisoslashgan qatlamlari tomonidan yaratilib, ayriboshlashga taqdim qilingan
- Ommaviy lashgan (kapitalistik) tovar xo‘jaligi – o‘zining ko‘lamligi bilan tavsiflanadi. Bunda bozor munosabatlari umumiylar xarakter kasb etadi, ya’ni nafaqat barcha mahsulotlar, balki ishlab chiqarish omillari ham tovarga aylanadi. Xususiy mulk ustuvorlik kasb etadi.
- Hozirgi zamonda madaniylashgan tovar xo‘jaligi – bozor va davlat mexanizmi hamda globallashuv jarayonining afzalliklarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Natural xo‘jalik belgilari

- Mehnat taqsimoti rivojlanmagan;
- Ishlab chiqarish biqiq xarakterga ega bo‘lib, ishlab chiqaruvchilarning o‘z ehtiyojlarini qondirishga bo‘ysundirilgan;
- Ishlab chiqarish bilan iste’molning o‘zaro mosligi bevosita xo‘jalik ichida ta’minlangan;
- Mehnat tor doirada ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan;
- Ishchi kuchining safarbarligi cheklangan.

Tovar xo'jaligining belgilari

- Ijtimoiy mehnat taqsimoti va uning chuqurlashuviga asoslanishi;
- Ishlab chiqaruvchilarning mulk egasi sifatida iqtisodiy alohidalashuvi;
- Mahsulot bozorda sotish, erkin ayirboshlash uchun ishlab chiqarilishi.

Tovar xo'jaligining vujudga kelishi va amal qilinishing ijtimoiy-iqtisodiy asoslari

Ijtimoiy mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv

Xususiy mulkning vujudga kelishi va rivojlanishi

Ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy jihatdan bir-biridan alohidalashuvi

Tovar ishlab chiqarish quyidagicha farqlanadi:

1. **Oddiy** – xususiy mulkchilikka va ishlab chiqaruvchining shaxsiy mehnatiga asoslanadi.
2. **Kengaytirilgan** – xususiy mulkchilikka va yollanma ishchi kuchiga asoslanadi.

Tovar va uning xususiyatlari


Tovar ikki xususiyatga ega bo'ladi:

1. Iste'mol qiymati.
2. Almashinuv qiymati.


Ma'lum miqdor va proporsiyada boshqa tovarga almashinish xususiyati

Qiymat – tovar ishlab chiqarishga sarf etilgan ijtimoiy-zaruriy mehnat miqdori


Tovar – bu biron-bir naflilikka (iste'mol qiymatga) va almashuv qiymatiga ega bo'lgan, bozor uchun ishlab chiqariladigan mahsulot yoki xizmatlardir



Mehnatning ikki yoqlama xarakteridan kelib chiquvchi tovarning ikki xil xususiyati



Tovar qiymati miqdoriga ta'sir etuvchi omillar



Qiymatning mehnat nazariyasi – bu nazariya tarafдорлари qarashicha, tovarlarning ayrboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi. Qiymatning miqdori esa, ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan, ya'ni ijtimoiy zaruriy ish vaqtiga bilan o'lchanadi.

Ijtimoiy zaruriy ish vaqtı – ishlab chiqarishning mavjud ijtimoiy normal sharoitda va shu jamiyatda mehnat mahorati va jadallashuvining o‘rtacha darajasida biror iste’mol qiymatini tayyorlash uchun talab qilinadigan ish vaqtidir.

Qo‘shilgan miqdor nafliligi nazariyasи

Qiymat va baho nazariyasida yangi yo‘nalishni boshlab bergan mashhur ingliz iqtisodchisi M.A.Marshall hisoblanadi. Qo‘shilgan miqdor nafliligi nazariyasining bir tomonliligini u qiymatni faqat naflilik bilan tushuntirishda ko‘rdi. A.Marshall keyingi qo‘shilgan miqdor nafliligi nazariyasini talab va taklif nazariyasi hamda ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasi bilan bog‘lashga harakat qildi. **A.Marshall fikricha:**

tovar qiymati teng darajada keyingi qo‘shilgan miqdor nafliligi va ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi. Shunday qilib, A.Marshalldan boshlab iqtisodiyot nazariyasida qiymatning tub asosini qidirib topishdan chekinish va funksional tahlilga, ya’ni bir vaqtida baholar va talab –takliflarning o‘zaro ta’sirini aniqlashga o‘tdi.

Me’yoriy (marjinal) naflilik, deb qo‘srimcha iste’mol qilingan mahsulotdan qo‘srimcha olinadigan nafga aytiladi.

Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari

Qiymat (ayirboshlash) shakllarining rivojlanishi

⇒

* Oddiy yoki tasodifiy shakli (1 bolta = 1 qop don).

* To‘la yoki kengaygan shakli (1 bolta = 1 qo‘y yoki 1 qop don yoki 1 ketmon).

* Umumiy shakli (1 bolta yoki 1 qo‘y yoki 1 ketmon = 1 qop don).

* Pul shakli (1 bolta yoki 1 qo‘y yoki 1 qop don = 1 unsiya oltin).

O‘z qiymatini boshqa tovarda ifodalagan tovar **qiymatning nisbiy shaklini**, boshqa tovarlar qiymatini ifodalashga xizmat qiluvchi tovarlar esa **qiymatning ekvivalent shaklini** tashkil qiladi

Qiymat shakllarini rivojlanishiga sabab bo‘lgan omillar:

- Mehnat taqsimotining rivojlanishi va chuqurlashuvi;
- Mehnat unumdarligining o‘sishi;
- Mahalliy va milliy bozorlarning vujudga kelishi.

Umumiy ekvivalentlik rolining oltinga yuklatilishi sabablari

- sifat jihatdan bir xil o'Ichamga keltirish mumkinligi;
- zanglamasligi va uzoq muddat saqlash mumkinligi;
- bo'linuvchanligi va yaxlit holatga keltirish mumkinligi;
- tabiatda nisbatan kamyobligi;
- oz miqdordagi nodir metall qiymatining ancha yuqoriligi;

Oltin pul – hamma tovarlar uchun umumiy ekvivalent rolini o'ynovchi maxsus tovar.

Hozirgi zamон pullari – har qanday tovari ayirboshlash yoki qarz to'lashga qabul qilinadigan davlat tomonidan qonunlashtirilgan ekvivalentlikning umumiy vositasi.

Pulning vazifalari:

Qiymat o'Ichovi vazifasi – bunda tovar (xizmat)ning almashuv qiymati pul vositasida hisoblanadi va baholanadi. Shuningdek, iqtisodiy resurs sarf-xarajatlari va daromadlarni hisoblashning yagona o'lchov birligi ham puldir.

Muomalal vositasi vazifasi – bunda pul tovarlar muomalasi jarayonida vositachi sifatida maydonga chiqadi.

To'lov vositasi vazifasi – tovarlar nasiyaga to'lov muddati kechiktirib sotilganda va turli xil to'lov majburiyatları amalga oshirilganda, pul bu vazifani bajaradi.

Jamg'arish vazifasi – pul muomaladan chiqarib olinganda bu vazifani bajaradi. Real ravishda oltin pul va oltin buyumlar boylik to'plash vazifasini bajaradi.

Jahon puli vazifasi – oltin pulga tegishli. Ba'zi nufuzli valutalar ham ideal ravishda bu vazifani bajarishi mumkin.

Hozirgi paytda pul tushunchasi ikki ma'noda ishlataladi:

- milliy xo'jalikda tovar va xizmatlar harakatini ta'minlovchi naqd pul;
- naqd bo'limgan muomala va to'lovlardan 1shlatiladigan vositalar, ya'ni kredit pullar (kvazi pul, lotincha quasi – deyarli, xuddi) tashkil etadi.

Likvidlik darajasi turilicha bo'lgan barcha pul vositalarining muayyan nisbatlarda yaxlit pul massasini tashkil etishi, pul agregati deyiladi.

Pul agregati likvidlik darajasi absolut bo'lgan (100 %) naqd puldan boshlab, borgan sari likvidligi kamayib boruvchi pul vositalaridan tashkil topadi.

Pul – tovarlarni avirkoshlashda umumiy ekvivalent vazifasini bajaruvchi maxsus tovar.

► **To'laqonli pullar** – haqiqiy pullar bo'lib, unda qiymatga ega pulli tovar ishtiroy etadi.

► **To'liqsiz pullar** – to'laqonli pullarning o'rinnbosari bo'lib, qiymati muhim bo'limgan va shunga muvofiq nominaliga to'g'ri kelmaydigan pul belgilari .

Hozirgi zamон puli – naqd pullar va naqd pulsiz hisob vositalaridan iborat

• naqd pullar

Qog'oz pullar va tangalar

• naqd pulsiz hisob vositalari

Elektron pullar, cheklar, plastik kartochkalar, viza, to'lov talabnomasi, zayomlar va boshq.

Pulning nominal qiymati

Bu qayd qilingan miqdor (100, 200, 500 yoki 1000 so'm)lar bo'lib, unga narx darajasidagi ro'y beradigan o'zgarishlar tasir ko'rsatmaydi, faqat sotib olish layoqati ortishi yoki pasayishi mumkin.

Pulning real qiymati

Bu uning xarid qilish layoqati yoki pul birligiga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdoridir.


Qog'oz pul belgilari tegishli nominal va real qiymatga ega bo'lishi zarur.

Pulning xarid quvvati (F) tovar va xizmatlarning narxiga (P) bog'liq bo'lib quyida-
gi formula bilan aniqlanadi.

$$F = \frac{1}{P}$$

Sotib olish layoqati narxlar darajasiga teskari mutanosiblikda joylashadi.

Pulning rivojlanish bosqichlari



3-mavzu. MULKCHILIK MUNOSABATLARI VA IQTISODIY TIZIMLAR

Reja:

1. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni.
2. Mulk obyektlari va subyektlari.
3. Mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni.
4. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish yo'llari, maqsadi va usullari.

Mulkchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni

Mulkchilik munosabatlari – bu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Mulkka egalik qilish mulkdorlik huquqini uning egasi qo'lida saqlanib turishini bildiradi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi. Ayrim hollarda mulkka egalik qilish uning egasi ixтиyorida saqlangan holda, undan amalda foydalanish esa boshqalar qo'lida bo'ladi. Bunga ijaraga berilgan mol-mulkni misol qilib keltirish mumkin.

Mulkdan foydalanish – bu mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatalishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishidir. Mol-mulkdan foydalanish yuz berganda, u daromad olish uchun yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatalishini bildiradi.

Mulkni tasarruf etish – bu mol-mulk taqdirining mustaqil hal qilinishidir. U mol-mulkni sotish, meros qoldirish, hadiya qilish, ijaraga berish kabi hollar orqali ro'y beradi.

Mulkchilik ham iqtisodiy ham huquqiy kategoriya hisoblanadi

Mulkchilikni iqtisodiy kategoriysi – mol-mulk ishlab chiqarish jarayonida foydalanilsa va o'z egasiga daromad keltirsa yoki uning iste'molini qondirishga xizmat qilsa, u iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Mulkchilikni huquqiy kategoriysi – mulk tadbirkorlik faoliyatining biror-bir turi orqali ro'yobga chiqarilmasa, ya'ni iqtisodiy faoliyatda foydalanilmasa, u huquqiy kategoriya hisoblanadi.

Mulkchilikning huquqiy me'yorlarini quyidagilar belgilab beradi:

- ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan moddiy ne matlarning muayyan shaxslarga tegishli ekanligi;
- mulk egalarining qonun bilan himoya alanadigan vakolatlari;
- mol-mulkni himoya qilish usullari.

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni (egalik qilish, foydalinish va tasarruf etish) bitta mulk shakli doirasida ham ro'yobga chiqarilish usullariga qarab farq qilishi mumkin:

- mulkchilik mehnatga majbur qilish yo'li bilan ro'yobga chiqarilsa, quldoi yoki feodal xususiy mulki vujudga keladi.
- mulkchilikni ro'yobga chiqarish mulkdorning o'z mehnati yordamida amalga oshirilsa, mayda tovar ishlab chiqarish uchun xarakterli xususiy mulk paydo bo'ladi.
- mulk obyekti yollanma mehnatga asoslanib harakatga keltirilsa, korporativ xususiy mulk paydo bo'ladi.

Iqtisodiy tizim – bu har bir davr va makonda amal qilinadigan iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik yuritish mexanizmi va iqtisodiy muassasalarining o'zaro uzviy bog'liqlik asosida tarkib topgan yaxlit iqtisodiy tuzilmasidir.

IQTISODIY TIZIM TURLARI

An'anaviy iqtisodiy tizim – kishilarning iqtisodiy xatti-harakati va jamiyatdagi hamma masalalarning hal etilishi, yashash uchun kurash, urf-odat va an'ana asosida amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi.

Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiy tizim – resurs va daromadlarning ishlab chiqarilishi, taqsimoti davlat tomonidan hal etiladi, hamma moddiy resurslar va ishlab chiqarish mahsulotlari davlatga tegishli ekani bilan tavsiflanadi.

Bozor iqtisodiyoti tizimi – xususiy mulkka asoslangan har bir ishlab chiqaruvchining shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy muammolarni hal etish.

Aralash iqtisodiy tizim – bozor davlat nazorati yordamida to'ldiriladi.

**Tasniflash
mezonlari –**

Uch asosiy muammoni hal etish usuli:

* Nima ishlab chiqarish?

* Qanday ishlab chiqarish?

* Kim uchun ishlab chiqarish?

Mulk obyektlari va subyektlari

Mulkka aylangan barcha boylik turlari mulkchilik obyektlaridir. Mulk obyekti bo'lib, inson yaratgan moddiy va ma'nnaviy boyliklar, tabiiy boyliklar, aqliy mehnat mahsuli, insonning mehnat qilishi qobiliyati – ishchi kuchi va boshqalar hisoblanadi.

Mulk subyekti jamiyatda ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqeiga ega bo'lgan, mulk obyektini o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari bo'lib, ular jamoa, sinf, tabqa yoki boshqa ijtimoiy guruhlarga birlashgan bo'ladi. Ayrim kishilar, oilalar va davlat ham mulkchilik subvekti bo'lib chiqadi.

Mulkchilik munosabatlarini rivojlanish bosqichlari

Musulmon huquqida xususiy mulk shakllari:

Xalifalik mulki;

Zimminlar mulki

Xususiy mulk huquqini bekor qilish asoslari va mohiyatidan kelib chiqib, uni 2 guruhga ajratish mumkin:

Mulkni ixtiyoriy asosda bekor qilish;

Mulkni majburiy asosda bekor qilish.

Musulmon huquqida mulkdor vakolatlari:

Qabz
mol-mulkga egalik qilish huquqi

Ta'mlik
mol-mulkdan daromad olish huquqi

Manfaat
mol-mulkdan foydalananish huquqi

Tasarruf
mol-mulkni tasarruf etish huquqi

Rim huquqi bo'yicha mulk:

Ashyoni egallash huquqi

Ashyodan foydalanish huquqi

Ashyoni tasarruf qilish huquqi

Ashyoni hosil, daromadlarni olish huquqi

Ashyoni qonunsiz egallab turgan shaxsdan talab qilib olish huquqi

Rim huquqida xususiy mulk shakllari:

Kviritlar mulki

Peregrinlar mulki

Egalik qilish huquqi mohiyati:

Mol-mulkni mulkdorni o'z qo'lida ushlab turish va saqlab turish faktik egalik qilish

Mol-mulkni garchi o'z qo'lida saqlamasaga ham, faktik egallamasa ham, unga nisbatan o'z huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi joyda saqlab turish

Xususiy mulk huquqining subyektlari:

Fuqarolar;

Xo'jalik shirkatlari;

Kooperativlar;

Jamoat birlashmalari;

Ijtimoiy fondlar;

Davlatga qarashli bo'lmagan boshqa yuridik shaxslar.

QUYIDAGILAR FUQAROLARGA TEGISHLI MULK BO'LA OLMAYDI:


qurol-yarog*, shu jumladan, o'q otar qurol (ov miltiqlari, sport qurollari, shuningdek, mukofotga berilib belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan qurollardan tashqari), armiya o'q-dorilar va harbiy texnikasi

portlovchi moddalar va materiallar, asboblar va qurilmalar

giyohvandlik moddalar, psixotrop, zaharli moddalar, qattiq ta'sir etuvehi zaharlovchi moddalar

maxsus ta'qiqlab qo'yilgan boshqa mol-mulklar

O'zbekistonda mulk shakllari. Mamlakatning milliy mulk tizimi



**«O'zbekiston Respublikasining mulkchilik to'g'risida»gi qonunida
mulkning turli-tuman shakllari quyidagilardan iborat:**

Mulkchilik shakllari

Shaxsiy mulk – fuqarolarning shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mulk

Davlat mulk – o'z vazifalarini bajarish maqsadida davlat tomonidan o'zlashtiriluvchi turli vosita va ne'matlar

Xususiy mulk – ayrim kishilar va guruhlarga tegishli bo'lib, yollanma mehnatdan foydalaniib daromad topishga qaratilgan mulk

Jamoa mulki – muayyan maqsad yo'lda turli ko'rinishdagi jamoalarga birlashgan kishilar tomonidan birgalikda o'zlashtiriluvchi vosita va ne'matlar

Yakka tartibdag'i xususiy mulk – alohida olingen mulkdor tomonidan o'zlashtiriluvchi vosita va ne'matlar

Korporativ xususiy mulk – ma'lum maqsad yo'lda o'zaro birlashgan mulkdorlar mablag'iiga asoslangan korxonalar tashkil etish orqali o'zlashtiriluvchi vosita va ne'matlar

Aralash mulk – turli mulk shakllari sintezidan tashkil topib, shunga muvofiq tarzda o'zlashtiriluvchi vosita va ne'matlar

**Umumiyl mulk huquqi quyidagi
asoslardan vujudga keladi:**

Oddiy shirkat shartnomasidan, masalan, bir necha fuqaroning birlashtib, uy-joy qurishidan yoki bir necha jamoa xo'jaligining birlashish elektr stansiyasi qurishidan,

Bir necha fuqaroning muayyan umumiyl mulkka ega bo'lish uchun mablag' va mehnatlarini qo'shishlaridan, masalan, umumiyl oilaviy mulk,

Bir necha shaxslarning qonun yoki vasiyat bo'yicha meros olishlaridan.

Umumiy mulk turlari o'rtasidagi asosiy farqlar:

Taqsimlanadigan umumiy mulknинг har bir ishtirokchisi ashyoda aniq belgilangan hissaga ega bo'ladi. Masalan, yarmiga, uchdan biriga va hokazo.

Taqsimlanmaydigan birligindagi umumiy mulk esa, hissalarga taqsimlanadigan mulkdan ulushlarga ajralmasligi bilan farq qiladi. Bunday umumiy mulk hamma ishtirokchilar o'rtasida, ulaming umumiy roziligi bilan va tenglik asosida egallanadi, foydalilanadi va tasarruf etiladi.

Umumiy mulk subyektlari:

Jismoniy shaxslar

Yuridik shaxslar

Umumiy ulushli mulknинг egallash, undan foydalananish va uni tasarruf etishda sherik egalarning huquqlari ikki turga bo'linadi:

Barcha umumiy mulkka nisbatan bo'lgan huquqlar;

Umumiy mulkdagi ulushga nisbatan bo'lgan huquqlar.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mulklari:

har birining mehnat faoliyatidan, tadbirkorlikdan va intellektual faoliyat natijalaridan orttirilgan daromadlari;

pensiylar;

nafaqalar;

umumiy daromadlari hisobiga olingan ko'char va ko'chmas mulklari;

qimmatli qog'ozlar;

paylar;

**Dehqon va fermer xo'jaligining mol-mulkini o'z tarkibiga
quyidagilarni oladi:**

turar joy;

xo'jalik binolari;

sug'orish inshootlari;

ekinlar;

chorva mollari;

parrandalar;

texnika va uskunalar;

transport vositalari;

qishloq xo'jalik ashyolari;

Ommaviy mulk tarkibiga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston
Respublikasi
mulki

ma'muriy-hududiy
tuzilmalar mulki
(munitsipal mulk)

Huquqshunoslarning fikricha, davlat mulki zarurligining obyektiv sabablari quyidagilardan iborat:

Davlat organlari faoliyatini tashkil etish;

Davlat xavfsizligi va mudofaa uchun;

Ilm-fan va madaniyatni ta'minlash;

Kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoya qilish;

tabiiy ofatlarga va favqulodda holatlarga qarshi kurash va oqibatlarni bartaraf etish;

Ba'zi tarmoqlarda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish (masalan, atom, yonilg'i energiyasi va sh.k.)

Obyektning muomalada erkin harakatda bo'lishi yoki uning harakati cheklanganligi yoxud harakatdan chiqarilganligidan qat'iy nazar, davlat mulki bo'ladi. Buni quyidagicha asoslash mumkin:

fugorolik huquqi obyektlarining muomalada bo'lishi, cheklanishi yoki muomaladan chiqarilishini davlat va uning organlari belgilaydi;

obyektlarning muomalada bo'lishi davlat tomonidan muayyan maqsadlarda (umumxalq manfaatlarini ko'zlab) cheklab qo'yiladi yoki muomaladan chiqariladi. Masalan, o'qotar qurollar, portlovchi moddalarning erkin fugorolik muomallasidan chiqarilishi aholining va fugorolarning xavfsizligini o'ylab amalga oshirilgan bo'lsa, ov miltig'ining harakati cheklanishi (tegishli ruxsatnomaga asosida harakatda bo'lishi) bunday ashyoga egalik qilishdan oldin maxsus xavfsizlik choralarini o'rgatish va obyektdan qanday foydalanish lozimligini mulkdorga tushuntirish uchun amalga oshiriladi;

davlat tabiat tomonidan ato etilgan yoki inson mehnati bilan yaratilgan har qanday moddiy ne'matlar (ashyolar)ning yagona va yakka mulkdori sifatida ularning jamiyatdagi kishilar o'rtaсидаги тақсимоти va harakatlanishini nazorat qiladi,

fugorolik muomallasidan qat'iy nazar, obyektning davlat mulki bo'lishi holati davlatning xalq hokimiyatini amalga oshiruvchi subyektliligi bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston Respublikasi mulki:

Davlatga mutlaq
mulk huquqi
asosida tegishli
bo'lgan mol-mulk:
yer, yerosti
boyliklari, suv,
havo bo'shilg'i,
o'simlik va
hayvonot dunyosi
hamda boshqa
tabiiy boyliklar;

Davlat hokimiyati va boshqaruvi respublika
organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega
bo'lgan madaniy va tarixiy boyliklar, respublika
budgetining mablag'lari, oltin zaxirasi, davlatning
valuta fondi va boshqa fondlari respublika
mulkidir, shuningdek, boshqa mulkiy
komplekslar, o'quv, ilmiy-tadqiqot muassasalari
va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari.
basharti bular budget yoki davlatning o'zga
mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib
olingan bo'lsa, boshqa mol-mulkni O'zbekiston
Respublikasi Oliy Majlisi, Respublika Prezidenti,
O'zbekiston Respublikasi Hukumati yoki ular
maxsus vakil qilgan organlar, agar qonunda
boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa,
tasarruf qiladilar
(«FK»ning 214-moddasi).

Ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal yoki kommunal mulk)

Mahalliy budget mablag'lari,
munitsipal uy-joy fondi va
kommunal xo'jalik korxonalar
va boshqa mulkiy komplekslar,
xalq ta'limi, madaniyat,
sog'liqni saqlash muassasalari
va boshqa mol-mulk munitsipal
mulk bo'ladi.

Davlat mulki zarurligining obyektiv sabablari quyidagilarda namoyon bo'ladi

Davlat hokimiyyati va boshqaruv organlari faoliyatini tashkil etish;

Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatini tashkil etish;


Davlat xavfsizligi va mudofaa ehtiyojlari;

Ilm-fan va madaniyatni ta'minlash;

Kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoya qilish;

Tabiiy ofatlarga va favqulodda holatlarga qarshi kurash va uning oqibatlarini bartaraf etish;

Ba'zi tarmoqlarda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish (masalan, atom, yonilg'i energiyasi kabi).



Jamoa mulki turlari:

Kooperativlar mulki

Ijara va jamoa korxonalar mulki

Aksionerlar jamiyatlari mulki

Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari mulki

Jamoa tashkilotlari va diniy tashkilotlar mulki

Shaxsiy mulk – fuqarolar mulki bo'lib, ularning shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Shaxsiy mulk manbalari:

- ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtirokidan oladigan daromadlari;
- o'z xo'jaligi (oila, dehqon)ni yuritish hisobiga oladigan daromadlari;
- aksiyalardan olinadigan dividend;
- foizli daromadlar;
- shaxsiy tadbirdorlikdan olinadigan daromad;
- transfert to'lovlar evaziga kelib tushadigan daromadlar.

Shaxsiy mulk obyektlari:

- uy-joylar;
- bog' va dala hovlilar;
- transport vositalari;
- uy-ro'zg'or va shaxsiy iste'mol buyumlari;
- xo'jalik faoliyati hisobiga olinadigan mahsulotlar;
- pul jamg'armalari.

1991-yil 19-noyabrda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to‘g‘risida maxsus qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning qabul qilinishiga quyidagilar obyektiv sabablar bo‘ldi:

Totalitar tuzumda shaxsning mulkdan begonalashuvi oqibatlarini tugatish;

Davlat mulkining tarkibiy markazlashuvining haddan ortishi, undan samarali foydalanish, boshqarish va nazorat qilishni ta‘minlay olmaganligi;

Davlat mulkiga nisbatan tashmachilik va xo‘jasizlikka barham berish;

Bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish mulkning davlat qo‘lida haddan ortiq markazlashuviga zid ekanligi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish tamoyillari:

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish shakllarini mehnat jamoasining manfaatlarini hisobga olgan holda ta‘minlash;

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish vaqtida mulkni sotish va pulsiz topshirishni qo‘shib olib borish;

Pulli va pulsiz xususiyashtiriladigan mulkni olishda fuqarolarning huquqlari tengligi;

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish sharoitida barcha fuqarolar ijtimoiy himoya qilinishini ta‘minlash;

Oshkorlik va Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish sharoitida tadbirlarini amalga oshirish ustidan davlat va jamoat nazoratini yo‘lga qo‘yish;

Monopoliyaga qarshi qonun talablariga rioxha etish.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish – bu davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarini vujudga keltirishdir.

Xususiy lashtirish – bu davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan alohida shaxslarga o'tishidir.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish yo'llari

Davlat korxonasini hissadorlik jamiyatlariga aylantirish

Mulkni ayrim tadbirkor va ish boshqaruvcilarga ma'lum shartlar bo'yicha berish

Davlat korxonasini jamoa mulkiga aylantirish

Chet ellikkarga sotish yoki qarz hisobiga berish

Davlat mulkini cheklar (vaucher) bo'yicha fuqarolarga bepul berish

Davlat mol-mulkini kimoshdi savdosi orqali sotish

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish usullari

pulli yoki haqini to'lash orqali

bepul yoki tekin

imtiyozli

O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy-lashtirishga yondashishning xususiyatlari:

- * dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi;
- * maqsadli va manzil (adress)li yo'naltirilgani;
- * to'lovga asoslanishi.

O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning o'ziga xos jihatlari:¹

- xusuylashtirishning amalga oshirilayotgan islohotlarning ichki mantiqiga bo'yundiriladi;
- xususiylashtirish davlat tomonidan boshqariladi;
- xususiylashtirishni huquqiy-mé yoriy jihatdan ta'minlashda qonun-larga rioya etiladi.

O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari natijalari

1992–1993-yillar davlat mulkidagi uy-joylar to'liq xususiylashtirilib, 1,1 mln kishi xususiy xonodon egasiga aylandi, deyarli 54 mingta kichik va o'rta korxonalar xususiy mulkka o'tkazildi

1994-yil 5127 ta obyektni xususiylashtirish bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda 4617 ta korxonaning mulkchilik shakllari o'zgartirildi

1995–1996-yillar iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalaridagi 12 mingga yaqin davlat mulki obyektlari xususiylashtirildi

1991–2000-yillar 83,5 mingdan ortiq davlat mulki obyektlari xususiylashtirildi

2000–2010-yillar 9000 dan ortiq davlat tasarrufidagi korxona va obyektlar xususiylashtirilib, ulardan tushgan pul mablag'lari hajmi 653 mlrd so'mni tashkil etgan.

Hozirgi vaqtida iqtisodiyotni erkinlashtirish bilan birgalikda: «Xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish bu borada haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, bu jarayonga tarmoqning asosini tashkil qiluvchi korxonalarни jalb etish»² islohotlami chuqurlashtirishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: «Ўзбекистон», 1999, 210-225-бетлар.

² Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Т.: «Yangi asr avlodи», 2001, 63-bet.

II BO'LIM. BOZOR IQTISODIYOTI

4-mavzu. BOZOR IQTISODIYOTINING MOHIYATI VA O'ZBEKISTONNING BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH XUSUSIYATLARI

Ko'zga ko'rinishas qo'l.
Adam Smit (ingiliz iqtisodchisi 1723–1790-yy.)

Reja:

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.
2. Bozor iqtisodiyotining ustunligi va zaif tomonlari.
3. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyaasi.
4. Bozor va uning tuzilishi. O'zbekistonda bozor infratuzilmasining shakllanishi.

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari

Bozor iqtisodiyoti – bu tovar ishlab chiqarish, ayrboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimidir. Bunday iqtisodiyot erkin tovar – pul munosabatlariiga asoslanadi, uning negizida tovar va pulning turli shakldagi harakati yotadi. Iqtisodiy monopolizmni inkor etadi.


Bozor iqtisodiyoti subyektlari

Uy xo'jaliklari – iqtisodiyotning iste'molchilik sohasini tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklari resurslarni yetkazib beruvchi va ishlab chiqaruvchi ham hisoblanadi.

Korxona, firma yoki tadbirdorlik sektori – iqtisodiy resurslarning iste'molchisi, iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini va tovar (xizmat)larning asosiy ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi.


Davlat – iqtisodiy resurslar va tovarlar iste'molchisi hamda ijtimoiy iste'mol xarakteridagi nematlar bilan ta'minlovchi hisoblanadi.

Bozor mexanizmi – bozor iqtisodiyotining tabiatini taqozo qiladigan iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va uyg'unlashtirishga qaratilgan iqtisodiy dastak hamda vositalardir.




Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari:

- ✓ Turli shakldagi mulkchilikning mavjud bo'lishi va unda xususiy mulkchilik ustuvorligi.
- ✓ Tadbirkorlik va tanlov erkinligi.
- ✓ Raqobat kurashlari.
- ✓ Davlatning iqtisodiyotiga cheklangan holda aralashuvi.
- ✓ Korxona va firmalarining ichki va tashqi shart-sharoitlari o'zgarishlariga moslashuvchanligi.



Bozor iqtisodiyotining ustunligi va zaif tomonlari



KAMCHILIKLARI

Raqobatning kuchsizlanishiga yo'l qo'yishi va uni rag'batlantirishi

Jamiyatning ehtiyoji yuqori bo'lgan tovarlar bilan ta'minlash kafolatimng mavjud emasligi

Jamiyat a'zolari daromadlaridagi tengsizlikning kuchayishi va aholining tabaqlanishi

Ijtimoiy iste'mol qilinadigan ayrim ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va taklif etishga qodir emasligi

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiysi

Bunda bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari (modellari) xilma-xil bo'lib, ularning umumiy va xususiy tomonlari farqlanadi.

Jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha yo'llari umumlashtirilib, quyidagi **uchta asosiy modelga bo'linadi:**

- I. Rivojlangan mamlakatlar yo'li;
- II. Rivojlanayotgan mamlakatlar yo'li;
- III. Sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li.

Rivojlangan mamlakatlar yo'li – bu g'arbcha model, deb ham atalib, bunda oddiy tovar xo'jaligidan erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotiga va undan hozirgi zamon madaniy jihatdan rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar yo'li – bu mustaqil rivojlanayotgan mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li bo'lib, unda qoloq, an'anaviy iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tiladi.

Sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li – bu yo'lning xususiyati, bir-biriga butunlay qarama-qarshi bo'lgan bir iqtisodiyotdan boshqasiga, ya'ni markazlashtirilgan, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan hozirgi zamon rivojlangan bozor tizimiga o'tiladi.

Bir iqtisodiy tizimdan (ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan) boshqa iqtisodiy tizimga (bozor iqtisodiyotiga) o'tish yo'llari:

Revolyutsion yo'l – katta to'ntarishlar qilishni taqozo qiladi va bunda «karaxt qilib davolash» usuli keng qo'llaniladi. Polsha, Chexoslovakiya, Rossiya va beshqa ayrim mamlakatlar bu yo'lini tanlagan.

Evolyutsion yo'l – asta-sekinlik bilan revolyutsion to'ntarishlarsiz, bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tishni ko'zda tutadi. O'zbekiston va boshqa ayrim sobiq sotsialistik mamlakatlar mazkur yo'lini tanlagan.

«Bizning bozor munosabatlariaga o'tish modelimiz respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini an'analar, urf-odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tmishtagi iqtisodiyotni bir yoqlama beso naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi»¹.

O'zbekistoning bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov tomonidan olg'a surilgan besh tam-yilda ifodalab berildi.

Birinchi tamoyil – iqtisodiyot siyosatdan ustuvor bo'lishi va buning uchun iqtisodiyot mafkuradan xoli bo'lishi kerak. Iqtisodiyot o'ziga xos bo'ilgan ichki qonunlar asosida rivojlanmog'i zarur. Iqtisodiyot, siyosatga nisbatan ustuvor mavqega ega bo'lishi lozim. Iqtisodiyotga na siyosat, na mafkura o'z tazyiqini o'tkazmasligi kerak.

Ikkinchi tamoyil – davlat bosh islohotchi bo'lishi kerak. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibsiz ravishda, o'zi bo'larchilik asosida emas, balki davlat rahbarligida amalga oshiriladigan islohotlar orqali yuz berishini bildiradi.

Uchinchi tamoyil – qonunlar va ularga amal qilinishining ustuvorligini ta'minlash. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibli ravishda, hammaning keng jamoatchi² ishtirokida ishlab chiqqan davlat qonunlariga so'zsiz royo etilishi orqali borishini bildiradi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: «Ўзбекистон», 1998, 101, 102 бетлар.

To'rtinchi tamoyil – faol ijtimoiy siyosat yuritish. Bu iqtisodiyotga kuchli ta'sir eta oladigan, xalqning ijtimoiy himoyasini, uning faolligini ta'minlaydigan, ijtimoiyadolatni yuzaga chiqaradigan siyosatni olib borishni anglatadi. Shu boisdan, iqtisodiy islohotlar jarayonida avval, odamlarni, birinchi navbatda, himoyaga muhtoj oldindan kuchli darajada ijtimoiy himoyalash choralarini ko'rish zarurligi inobatga olinadi.

Beshinchi tamoyil – bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tish. Bu tamoyil chuqur iqtisodiy islohotlarni shoshilmasdan, sobitqadamlik bilan amalgalashni talab etadi. Bu yetakchi tamoyil boilib, islohotlarning butun ichki mantiqini, rivojlanib borishi va xarakterini belgilab beradi.

Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyilini amalgalashni iqtisodiyotni islo qilishning asosiy bosqichlarini aniq farqlash. Bu bosqichlarning har biri uchun aniq maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishni talab qiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib I.A. Karimov asarida bu bosqich uchun bir qator **vazifalar** ajratib ko'rsatiladi¹.

Birinchi vazifa – davlat mulklarini xususiy lashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish. Bunda davlat mulkini xususiy lashtirish, tadbirkorlik faoliyatini keng qo'llab-quvvatlash, kichik xususiy korxonalar tashkil qilishni rag'batlantrish hisobiga ishlab chiqarishda davlatga qarashli bo'lmagan qismning ulushini oshirish ko'zda tutiladi.

Ikkinchi vazifa – ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Bu ham korxonalar va tarmoqlarning umuman davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishish imkonini beradi.

¹ Каримов И.А. Узбекистон буюк келажак сари. Т.: «Узбекистон», 1998. 332-333 бетлар.

Uchinchi vazifa – milliy valuta – so‘mni yana ham mustahkamlashdan iborat. Bu esa so‘mnin konvertatsiyasi, qat’iy valutalarga erkin sur’atda almashtirish layoqati demakdir, unga pulning qadrsizlanishiga qarshi ta’sirchan choralarini qo’llash, iste’mol mollari ishlab chiqarishni ko‘paytirish hamda ichki bozorni shunday mollar bilan to’ldirish, korxonalarning chetga mol chiqarishini kengaytirish hisobiga valuta zaxiralarni mustahkamlash yo‘li bilan erishiladi.

To‘rtinchi vazifa – iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish.

Prezidentimiz I. Karimov ta’kidlab o‘tganlaridek, hozirgi bosqichda «erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir»¹. Bu esa iqtisodiyot sohasida quyidagi aniq vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

- Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o’tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;
- Xususiy lashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish;
- Mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo‘naltilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;
- Kichik va o‘rta biznes iqtisodiy taraqqiyotda ustuvor o‘rin olishiga erishish;
- Mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko‘lamda integratsiyala-shuvini ta’minalash;
- Iqtisodiyotda mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish.

Islohotlarni amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga o‘tishning nazariy modeli yaratildi. Bu modelda yangi iqtisodiyotga o‘tishning umumiyligi tomonlari va milliy xususiyatlari nazarda tutiladi. islohotlarning asosiy yo‘nalishlari belgilanadi.

¹ Карапт. И.А. Каримов «Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард максусимиз». Т.: «Ўзбекистон», 2000. 15-бет.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- ijtimoiy islohotlar.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bu asosiy yo‘nalishlari I.A. Karimovning «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida» kitobida bayon qilib berilgan.

Respublikada iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini yaratish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning asosiy yo‘nalishlari:

- Davlat va iqtisodiy mustaqillikning huquqiy negizlarini yaratish, davlatning boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlarni qabul qilishi.
- Tizimdagи o‘zgarishlarga, yangi iqtisodiy munosabatlarga va shu jumladan, mulkchilik munosabatlariga asos bo‘ladigan qonunlar tizimini yaratish.
- Kishilarning konstitutsion va yuridik huquqlarini, ijtimoiy kaflatlarini va aholini ijtimoiy himoyalashni ta’minlaydigan qonunlar.
- Xo‘jalik yuritishning va institutsional o‘zgarishlarning bozor sharoitlariga mos keladigan yangi mexanizmini yaratishga qaratadigan qonunlar.
- O‘zbekistonni xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida ta’riflovchi huquqiy me’yorlarni yaratish.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini isloh qilishga ustuvorlik berili-shining asosiy sabablari:

- Respublika iqtisodiyotida agrar soha ustunlikka egaligi, aholining ko'pchiligi qishloq xo'jaligida bandligi, iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan shu tarmoq ahvoliga bog'liqligi.
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari (asosan paxta) valuta resurslari, respublika uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalarini chetdan sotib olishni moliyaviy ta-minlashning asosiy manbayidir.
- Respublika sanoat potentsialining yarmiga yaqinini tashkil qiladigan ko'pgina sanoat tarmoqlarini (paxta tozalash, to'qimachilik, yengil, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mashinasozligi va boshqalar) rivojlantirish istiqbollari bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liqligi.
- Mustaqillik sharoitida qishloq xo'jaligining oziq-ovqat muammo-sini hal etishdagisi ahamiyati ortib boradi.

Respublikada agrar islohotlarning asosiy yo'nalishlari:

- yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarni isloh qilish;
- barcha davlat qishloq xo'jalik korxonalarini jamoa va mulkchilikning boshqa shakllariga asoslangan xo'jaliklarga aylantirish.
- shaxsiy tomorqalarni kengaytirish, yangi sug'oriladigan yerlarni shaxsiy xo'jaliklar va bog'-dala hovli, uchastkalarga ajratib berish.
- qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini takomil-lashtirish.
- qishloq xo'jaligida band bo'lgan ortiqcha ishchi kuchini bo'shatib olish va ularni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga jalb qilish.
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish.

Moliya-kredit tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari

- ♦ Davlat budjeti taqchilligini kamaytirib borish
- ♦ Budjetdan beriladigan dotatsiyalar va subsidiyalarni bosqichma-bosqich qisqartirish
- ♦ O'ta muhim umum davlat ehtiyojlarini uchun budjetdan mablag' ajratish
- ♦ Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya kreditlaridan keng foydalananish
- ♦ Banklarning mustaqilligini va pul muomalasi uchun javobgarligini oshirish
- ♦ Markaziy bank va keng tarmoqli tijorat banklaridan iborat ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish

- ◆ Narxlarni erkinlashtirish
- ◆ Davlat xarid narxlарining amal qilish doirasini qisqartirish
- ◆ Ichki narxlarni jahon narxlарiga muvofiqlashtirib borish
- ◆ Xomashyo va mahsulot ayrim turlari narxi bilan aholi va korxonalar daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikka erishish.
- ◆ Xomashyo va qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxlari bilan ishlab beruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar tovarlari narxlari o‘rtasidagi nomutanosiblikka barham berish.

Kim bozorni tark qilsa, muruvati ketib, xulqi yomonlashadi.

Abdullo Ibn Muborak

Bozor islohotlari – xalq ishtirokida, lekin davlat tomonidan ishlab chiqilgan, bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni davlat nazorati ostida amalga oshirilishini bildiradi.

Bozor – bu iqtisodiy kategoriya sifatida xaridorlar va sotuvchilar hamda tovarlar va pul harakati bo‘yicha savdo vositachilar o‘rtasidagi muayyan iqtisodiy munosabatlar majmuyi bo‘lib, u bozor munosabatlari subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini aks ettiradi va mehnat mahsulotlari ayrboshlanishini ta’minlaydi.

Bozorning tuzilishi – bu bozor unsurlarining ichki qurilishi, joylashishi va tartibi, ularning bozor umumiy hajmidagi ulushi.

Bozor turli tuman ko‘rinishlarga ega bo‘lib, uning eng oddiy turlari tijorat do‘konlari, avtomobilarga yog‘ quyish shaxobchalari, qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozori kabilar bo‘lsa, yuqori darajada tashkil qilingan hamda ancha murakkab shakllari birjalar, aukcionlar va chet el valutalari bozori hisoblanadi.

Bozorni turkumlanish mezonlari:

I. Ayirboshlash obyektiining turiga ko'ra:

- iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori (oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari hamda xizmatlar bozori);
- ishlab chiqarish omillari bozori (ishlab chiqarish vositalari, xomashyo va materiallar hamda ishchi kuchi bozori);
- ko'chmas mulk bozori (yer va uy-joy bozori);
- moliya bozori (qarz majburiyatlari, kapital, valuta bozori);
- intellektual tovarlar va «nou-xau» bozori.

II. Raqobatning cheklanish darajasi yoki bozor subyektlarining mavqeyiga ko'ra:

- erkin raqobatli bozor;
- sof monopolistik bozor;
- monopolistik raqobatli bozor;
- oligopolistik bozor.

III. Hududiy qamrov darajasiga ko'ra:

- mahalliy bozorlar;
- milliy bozorlar;
- jahon bozori.

IV. Savdo bitimlarini amalga oshirish tartibi va hajmiga ko'ra:

- chakana savdo bozorlari;
- ulgurji savdo bozorlari.

V. Mulk shakllariga ko'ra:

- davlat savdosи;
- kooperativ savdo;
- dehqon bozori.

VI. Bozor aloqalarining qonuniylik darajasiga ko'ra:

- rasmiy (legal) bozor;
- norasmiy (xufyona) bozor.


Bozorlar tizimi – turli-tuman mezonlar asosida alohida unsurlarga ajratilgan barcha bozorlar majmuyidir.

Investitsiyalar bozori – pul bozorining bir turi bo‘lib, bunda bozor munosabatlarining obyekti kapital qo‘yilmalari hisoblanadi.

Innovatsiyalar bozori – bu yangiliklar, kashfiyotlar, ratsionalizatorlik takliflari bozori.

Moliya bozori. Bu bozor turli-tuman va ko‘p jihatli bo‘lsa ham, olish-sotish obyekti – bitta pul (pulga tenglashtirilgan qog‘ozlar) hisoblanadi va turli xil shakllarda chiqadi. Ortiqcha mablag‘larga ega bo‘lgan xo‘jalik subyektlari, bu moliyaviy resurslarni, mablag‘lar kamyobligini sezgan subyektlarga taklif qiladi.

Moliya bozorining tuzilishi (moliyaviy bitimlarning xarakteriga ko‘ra)



Qarz majburiyatları bozorida olingan pul shaxsiy iste’mol uchun ishlatalidi.

Kapital bozorida qo‘yilgan puldan daromad olishi huquqi sotiladi va sotib olinadi.

Qimmatli qog‘ozlarning **birlamchi bozorida** ularning yangidan chiqarilgan nuxsalarini sotiladi va sotib olinadi;

ikkilamchi bozorda esa oldin chiqarilganlari harakatda bo‘ladi.

Moliya bozorining yana bir turi valuta bozoridir. Bu yerda turli mamlakatlar valutasi oldi-sotdi qilinadi. Valuta bozori amaliyotda valuta bilan savdo qiluvchi banklar va valuta auksioni ko'rnishida bo'ladi.

Mehnat birjasi – ishchilar va tadbirkorlar o'rtasidagi ishchi kuchini olish-sotish bitimini tuzishda vositachilikni amalgalashuvchi va ishsizlarni ro'yxatga oluvchi muassasa.

Mehnat birjasining vazifalari:

- Ishsizlarni ro'yxatga olish va ularga muvofiq ravishda vakant ish joylari taklifini uyushtirish.
- Ish bilan ta'minlanmaganlarni qayta o'qitish va yangi kasbga tayyorlash.
- Ishsizlarni ijtimoiy himoyalash.

Bozor segmenti – bu bozordagi savdo-sotiqning shart-sharoitiga qarab ko'pgina bo'g'lnlarga ajratilishidir.

Bozorni segmentlarga ajratish mezonlari:

- aholining xarid qilish layoqati darajasi, ya'ni to'lovga layoqatliligi;
- hududiy va ijtimoiy demografik mezonlar (aholining soni, uning yosh tarkibi, jinsi, zichligi, tabiiy iqlim sharoiti, ehtiyojlar tarkibi va h.k.).

Iqtisodiy aloqalar (raqobat) xarakteri va subyektlar mavqeyiga ko'ra bozor ikkita katta turga ajratiladi: **sof raqobatli bozor va raqobat cheklangan bozor.** Raqobat cheklangan bozor, o'z navbatida, sof monopolistik bozor, monopolistik raqobatli bozor va oligopolistik bozorni o'z ichiga oladi.

Brokerlar – bu odatda, vositachilar bo'lib, ular sotuvchi va xardorlarni «kelishtiradi» va bitimni rasmiylashtiradi. Brokerlar o'zlarining vositachiligi uchun bitim summasi hajmidan foiz shaklidagi vositachi haqi oladi; vositachilik foizi hajm, odatda, bitim hajmi ko'payib borishi bilan kamayadi.

Dilerlar – qimmatli qog'ozlarni o'z mulkchiligiga sotib oladi va keyin ularni qayta sotadi. Xo'jalik subyektlari tomonidan qimmatli qog'ozlarga talab va taklifni tez sezib javob qaytarish uchun dilerlar, odatta, yetarli miqdordagi qimmatli qog'ozlar zaxirasiga ega bo'ladi va ularni o'z nomlaridan sotadi. Dilerlar daromadi qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish baholaridagi farq hisobiga shakllanadi.

Aukcionlar – alohida xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlarni sotish uchun muayyan joylarda tashkil qilingan maxsus kim oshdi savdo muassasasi.

Savdo firmalari – tijorat ishini yurituvchi ulgurji va chakana savdo korxonalaridir. **Ulgurji savdo firmalari** tovarlarni o'z mulkiga sotib olib, keyin iste'molchilarga sotadi. **Chakana savdo korxonalari** mustaqil do'konlar, maxsus savdo shoxobchalari, supermarketlardan iborat bo'ladi.

Supermarket – bu xaridorlarning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tartibiga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonalari.

Auditorlik firmalar – korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirib va ular hisobotini ekspertizadan o'tkazib beruvchi mustaqil axborot xizmati muassasalaridir.


Birja – namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo-sotiq ishlarini o'tkazuvchi tijorat muassasalaridir. Tovar birjalaridan farq qilib, fond birjasida qimmatbaho qog'ozlar va chet el valutalarining oldi-sotdisi amalga oshsa, mehnat birjasi ishchi kuchi egasi bilan uni yollovchi korxona o'rtasida turib, unga bo'lgan talab va taklifni bir-biriga bog'laydi. Birjaning barcha shakllarida kelishuvning xarakterli belgisi tovar, aksiya va valuta kurslariga, bahoning tebranib turishiga chayqov yo'li bilan ta'sir qilishdir.

Tovar birjasi – namuna yoki andozalar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo-sotiq ishlarini o'tkazuvchi tijorat muassasasi.

Universal birjalar – har xil tovarlar bilan savdo-sotiq qiladi.

Ixtisoslashgan birjalarda – ayrim turdag'i bir yoki bir guruhga kiruvchi tovarlar sotiladi.

Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari




Bozor infratuzilmasi

Bozor infratuzilmasi – bu tovar va xizmatlar harakatiga ko'makla-shuvchi tashkiliy-huquqiy shakllar yig'indisi.

Bozor iqtisodiyoti infratuzilmasi – bu alohida bozorlar doirasida harakatlanuvchi va ularning me'yoriy tartibda amal qilishini ta'minlash bo'yicha ma'lum vazifalarni bajaruvchi o'zaro bog'liq ixtisoslashtirilgan institutlar yig'indisi.

Bozor infratuzilmasi institutlari – bozor munosabatlari amal qilishi, barcha bozor faoliyat turlarining muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlovchi korxonalar yig'indisi.



Infratuzilmaviy faoliyat

| | | |
|---------------------|---|---------------------|
| Infratuzilma | Ulgurji va chakana savdo korxonalarli, kimoshdi savdolari, yarmarkalar, vositachilik firmalari, tovar birjalari | TOVAR BOZORI |
| | Banklar, sug'urta kompaniyalari, fondlar, fond bozorlari | MOLIYAVIY BOZOR |
| | Mehnat birjalari | ISHCHI KUCHI BOZORI |
| | Axborot markazlari, adliya idoralari, reklama agentliklari, auditorlik firmalari | |

| | |
|---------------------------------------|---|
| Bozor infratuzilmasi vazifalar | bozor munosabatlari ishtirokchilarining manfaatlarini amalga oshirishni yengillashtirish; |
| | ixtisoslashtirish asosida bozor subyektlari ishi samaradorligini va tezkorligini oshirish; |
| | bozor munosabatlarini tashkiliy rasmiylashtirish; |
| | ishbilarmonlik amaliyotini davlat tomonidan va ijtimoiy tartibga solish, yuridik va iqtisodiy nazorat shaklini yengillashtirish |

5-mavzu. TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI

Hatto to'tiqushni ham iqtisodchiga aylantirish mumkin, agar ikki so'zni yod aytishga o'rgatilsa (talab va taklif so'zi). (ingliz maqoli)

Reja:

1. Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab qonuni.
2. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklifga ta'sir qiluvchi omillar.
3. Talab va taklif o'rtafigi nisbat hamda uning o'zgarishi.
4. Talab va taklifning o'zgaruvchanligi.

Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar.

Talab qonuni

Talab – xaridor ma'lum narxda, u ratsional yoki muhit ta'siri ostida amal qilishidan qat'iy nazar mazkur bozordan sotib oladigan tovar va xizmatlari miqdori.

Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, **talab bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir**. Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u «xohish», «istak» bo'lib qolaveradi.


Talablar har xil bo'lib, bir xil tovar yoki xizmatlarga bo'lgan **talabning ikki turi** farq qilinadi: **yakka talab va bozor talabi**

Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxona, firmanın tovarning shu turiga bo'lgan talabi **yakka talab deyiladi**.

Bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdag'i tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi **bozor talabi deyiladi**.

Mahsulot narxi bilan sotib olinadigan tovar miqdori o'rtafiga bo'ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik **talab qonuni deyiladi**.

Real iqtisodiy hayotda ba'zan narxlar o'ssa-da, ayrim tovarlarga talabning ortishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar ham uchraydi. Bu vaziyat **Giffen samarasi, deb ataladi** (ingliz iqtisodchisi R.Giffen nomi bilan). Giffen kambag'al ishchi oilalari kartoshka qimmatlashishiga qaramasdan uni iste'mol qilish kengayishini kuzatib, bu samarani tasvirlab ko'r-satgan.




1-rasm. Talab egri chizig'i.

Narx va talabning hajmi o'rtaqidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi bu chiziq **talab egri chizig'i** deyiladi.

Agar talab egri chizig'i o'zining oldingi holatida qolsa va bunda u yoki bu tovarni sotib olishdagi har qanday miqdoriy o'zgarish **talab miqdorining o'zgaruvchanligini bildiradi**.


Talabning o'zgarishi bir vaqtda narx o'sishi va talab miqdorining ortishini keltirib chiqaradi. Iqtisodiy hayotda qarama-qarshi vaziyat ro'y berishi ham mumkin: talabning qisqrishi ta'sirida narxning tushishi va talab miqdorining kamayishi kuzatiladi. **Har ikkala hol talab hajmining o'zgarishini ko'rsatadi**.

Talab hajmi – xaridorlar ma'lum vaqt va ma'lum joyda mazkur narx bo'yicha xarid qilishga tayyor bo'lgan tovar (xizmat)lar miqdori.




Talab egri chizig'i – Q_d va P ning teskari bog'liqligini namoyon etuvchi grafik ko'rinish. U salbiy og'ish burchagiga ega va DD bilan belgilanadi. D (demand) – talab, P (price) – narx, Q – talabdagisi tovar miqdori.

Talab miqdorining o'zgarishi tovar narxi o'zgarishi natijasida hosil boladi. Bunda talabning o'zi o'zgarmaydi.




A, B, C va boshqalar talab miqdorini (hajmini) o'zgarishini ko'rsatadi.



Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab hajmining o'zgarishi faqat tovar narxiga emas, balki boshqa bir qator omillarga ham bog'liq bo'ladi. Bu omillar talabning ***narxdan tashqari omillari*** deyiladi.

Talabga narxdan tashqari quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Iste'molchining didi; 2. Bozordagi iste'molchilar soni; 3. Iste'molchining daromadlari; 4. Bir-biriga bog'liq tovarlarning narxi; 5. Kelajakda narx va daromadlarning o'zgarishining kutilishi; 6. Soliqlar darajasi.



Narx va sotib olinadigan tovar miqdori o'rtaсидаги bog'liqlik

| Bir kg un narxi (so'm) | I oy davomida unga bo'lgan yakka talab miqdori (kg) | I oy davomida unga bo'lgan bozor talabi miqdori (t) |
|------------------------|---|---|
| 350 | 10 | 1,0 |
| 300 | 20 | 2,0 |
| 250 | 30 | 3,0 |
| 200 | 50 | 5,0 |
| 150 | 60 | 6,0 |

Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklifga ta'sir qiluvchi omillar


Taklif – ishlab chiqaruvchilar ma'lum narx bo'yicha bozorda sotishni ko'zda tutgan va sota oladigan muayyan tovarning miqdori.

Narxning oshishi bilan shunga mos ravishda sotishga chiqariladigan tovar (taklif) miqdori ham ortadi, narxning tushishi bilan taklif hajmi qisqaradi. **Bu o'zaro to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik – taklif qonuni** deyiladi.

Bozorda **taklif** qilinadigan tovar hajmiga narxdan tashqari bir qator omillar ta'sir qiladi. **Bu omillarning asosiyları quyidagilar:** 1) resurslarning narxi; 2) ishlab chiqarish texnologiyasi; 3) soliq va dotatsiyalar; 4) boshqa tovarlarning narxi; 5) narx o'zgarishining kutilishi; 6) bozordagi sotuvchilar soni.

Taklifning shu omillardan bir yoki bir nechtasining o'zgarishi **taklif hajmining o'zgarishini taqozo qiladi**. Taklif hajmining o'zgarishiga tovarning saqlanish xususiyati, saqlash xarakatlari va transport tashish imkoniyatlari ham ta'sir ko'rsatadi. **Masalan**, uzoq vaqt saqlab bo'lmaydigan qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari uchun taklif kamdan kam o'zgaruvchan bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonining xususiyati, tabiiy resurslarning mavjud darajasi ham taklifga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, narxning o'zgarishiga javoban ishlab chiqarishni kengaytirish yoki boshqa xil mahsulot ishlab chiqarishga o'tish imkoniyatini mavjud bo'lsa, taklif o'zgaradi. **Qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlar cheklangan bo'lsa, uning narxi (renta) qanchalik oshmasin, yer taklifini oshirib bo'lmaydi. Ijodiy kasb soha xodimlar** (masalan, ohimlar, shoirlar, yozuvchilar, musavvirlar va boshqalar) **mehnat mahsuli va noyob san'at asarlarining taklifi ham noo'zgaruvchan bo'ladi.**



3-rasm. Muvozanatli narx.

Spiral bo'yicha har bir harakatda ularning manfaati muvozanatlari nuqtaga erishilguncha bir-biriga yaqinlashib boradi va muvozanatlari nuqtalar talab va taklifi tengligini ko'rsatadi. Agar 50 so'mda ifodalangan narx darajasiga e'tiborni qaratsak, bunda 1 va 2 nuqtalar o'rtasidagi farq tovarlar ortiqcha ishlab chiqarilishini ko'rsatadi va **to'yingan bozori xarakterlaydi**. Aksincha, 10 so'mlik narxda, 3 va 4 nuqtalar o'rtasidagi farqda ifodalangan tovar kamyobligi (defitsit) vujudga keladi hamda bu **kamyob tovar bozorini xarakterlaydi**.

Tovarning narx o'zgarishidan tashqari boshqa barcha omillari **«narxga bog'liq bo'limgan»** omillar deb ataladi. Bu SS taklif chizig'ida bir nuqtadan ikkinchisiga o'zgarishini emas, balki taklif egri chizig'ning o'zini o'zgarishini bildiradi.

– agar taklif ortsa, egri SS taklif chizig'i o'ngga (pastga), agar taklif kamaysa, chapga (yuqoriga) o'zgaradi.

S=f (P, Pr, kK, T, N, B).

Pr – resurslar narxi, **K** – mavjud texnologiya xarakteri, **T** – soliqlar va subsidiyalar

Muvozanatlari narxni tushunib olish uchun vaqt omili katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ham sotuvchi va ham xaridor uchun o'rnatilgan muvozanatlari narx qanday xarakter kasb etishini bilish muhim. Shu sababli bozordagi bir **zumlik, qisqa davrli va uzoq davrli muvozanatlik holatni farqlash zarur**.

Bir zumlik muvozanat uchun taqdirm qilinadigan tovarlarning o'zgarmas yoki doimiy miqdori xos. Bu ishlab chiqarishning

Qisqa davrli muvozanatlik, ishlab chiqarish va taklifni vaqtinchalik anal qiluvchi omillardan foydalanish asosida ko'paytirish imkoniyati bilan taqozo qilinadi. Bunday vaqtinchalik omillarga ish vaqtidan tashqari, dam olish va bayram kunlari ishlash, ish smenasini ko'paytirishlar kiradi.

Uzoq davrli muvozanatlik o'zgarishi uzoq muddatli xarakterdagi omillardan foydalanishni taqozo qiladi. Bunda ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, yangilash va qo'shimcha quvvatlarni vujudga keltirish bilan bog'liq investitsiyalar haqida gap boradi. Bu davrda yangi korxonalarini qurish hamda mazkur bozorda yangi korxonalarining paydo bo'lishi ham mumkin bo'ladi.

Talab hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolganda, narx 1% o'zgarganda talab necha foizga o'zgarishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich **talabning narxli egiluvchanligi ko'rsatkichi deyiladi**. Bu ko'rsatkich ko'pincha oddiy qilib talabning egiluvchanligi, deb ataladi. Talabning narxli egiluvchanlik (E_t) darajasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$E_t = \Delta Q$$

$$\Delta S$$

ΔQ – talab miqdorining foizli o'zgarishi;

ΔS – narxlarning foizli o'zgarishi.

Narxning muayyan darajasida, talab va taklif miqdori nisbatan bir-biriga mos kelgan holat bozor muvozanati, deyiladi.


Talab egiluvchanligini aniqlab beruvchi bir qator holatlar mavjud. Ularning asosiyları quyidagilar:

- mahsulotlarning o'rmini bosuvchanligi.
- mahsulot qiymati (narxi)ning iste'molchi daromadidagi salmog'i.
- mahsulotlarning iste'mol xususiyatlari.
- vaqt omili.

Taklifning egiluvchanligi agar ishlab chiqaruvchi bahoning o'zgarishini sezuvchan bo'lsa, taklif o'zgaruvchan bo'ladi va aksincha. Taklifning egiluvchanligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil, mahsulotga narxning mavjud o'zgarishini hisobga olish uchun zarur bo'lgan vaqt oralig'i hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi narxning mavjud o'zgarishiga moslashish uchun qanchalik uzoqroq vaqtga ega bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi shunchalik katta o'zgaradi va shunga mos ravishda taklifning egiluvchanligi ham yuqori bo'ladi. Biz yuqorida vaqt omilining juda qisqa, qisqaroq va uzoq muddatli davrlaridagi taklifning o'zgarishiga ta'sirini tahlil qilib bergan edik. Bu ta'sir taklifning egiluvchanligida ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

MUVOZANATLI BAHO

| 1 kg un narxi (so'm) | 1 oy davomida unning yakka taklifi miqdori (kg) | 1 oy davomida unning bozor taklifi miqdori (t) |
|----------------------|---|--|
| 350 | 60 | 6,0 |
| 300 | 50 | 5,0 |
| 250 | 30 | 3,0 |
| 200 | 20 | 2,0 |
| 150 | 10 | 1,0 |




Iste'molchi xatti-harakati nazariyasi

Muzqaymoq iste'mol qilishdan olingan so'nggi qo'shilgan va yalpi naflilik


| Iste'mol qilingan muzqaymoqlar soni | So'nggi qo'shilgan naflilik (MU) | Yalpi naflilik (U) |
|-------------------------------------|----------------------------------|--------------------|
| 0 | — | 0 |
| 1 | 4 | 4 |
| 2 | 3 | 7 |
| 3 | 2 | 9 |
| 4 | 1 | 10 |
| 5 | 0 | 10 |
| 6 | -3 | 7 |

| Talab | Taklif |
|--|------------------------------------|
| 1. Iste'molchi didi. | 1. Resurslar narxi. |
| 2. Iste'molchi daromadi. | 2. Ishlab chiqarish texnologiyasi. |
| 3. Bir-biriga bog'liq tovarlar narxi. | 3. Soliq va subsidiya. |
| 4. Kelajakdagi narxlarning o'zgarish ehtimoli. | 4. Boshqa tovarlar narxi. |
| | 5. Narx o'zgarishini kutish. |
| | 6. Bozordagi sotuvchilar soni |

Venna diagrammasi



Klaster tuzish bo'yicha misol



6-mavzu. TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA UNING SHAKLLARI. TADBIRKORLIK KAPITALI VA UNING AYLANISHI

Daromad ketidan quvish (tadbirkorlik) – oxir-oqibatda tanimagan-bilmagan odamlar ehtiyojini qondirishning yagona usuli.

Fridrik Xaek (1899–1992-yy.) avstriyalik iqtisodchi.

Reja:

1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifasi va rivojlanish shart-sharoitlari.
2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari.
3. Tadbirkorlik kapitalining harakati va uning uch bosqichi.
4. Ishlab chiqarish xarajatlar tushunchasi va uning tarkibi. Foyda massasi va normasi.

Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifasi va rivojlanish shart-sharoitlari


Tadbirkorlik tushunchasining sinonimi sifatida biznes tushunchasi ham qo'llanlib keladi. **Biznes** xo'jalik sub'ekti faoliyati sohasi va ularning iqtisodiy manfaatlarini tavsiflovchi iqtisodiy termin bo'lsa, **biznesmen** – ishbilarmon (ish odami), tadbirkor va tijoratchi ma'nolarini bildiradi. Umuman olganda, biznesmen va biznes tushunchalari tadbirkor tushunchasiga nisbatan kengroq ma'noni bildiradi.

«**Tadbirkorlik** – moddiy va pul mablag'larini foyda topish yo'lida sarflab, bozorga kerakli tovarlar va xizmatlar yetkazib berib, kishilarga naf keltiruvchi, ularning hojatini chiqaruvchi iqtisodiy faoliyat tushuniladi».

«**Tadbirkorlik** – yangi imkoniyatlarni qidirish, yangi texnologiyalarni qo'llash jarayoni, kapital qo'yishning yangi sohalarini topish, eskicha sarqitlar va chegaralardan voz kechish, ishlab chiqarish omillarining uch asosiy tarkibiy qismini bog'lashning eng maqbul usullarini topish»dir.

Tadbirkorlik mulk subyektlarining foyda olish maqsadida tahlika (tavakkalchilik) bilan hamda mulkiy javobgarlik asosida, amaldagi qonunlar doirasida o'z tashabbusi bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatish va uni muvofiq lashtirishdir.

Tadbirkorlikning o'ziga xos tamoyillari



Tadbirkorlik tushunchasining mazmuni uning to'rtta o'zaro bog'liq **vazifasini** aniqlash bilan to'liq ochiladi.

1. Tadbirkor o'ziga tovar (yoki xizmat) ishlab chiqarishning yagona jarayonida yer, kapital va mehnat resurslarini birlashtirish tashabbusini oladi. Shu bilan birga tadbirkor bir vaqtda ishlab chiqarishning harakatlantiruvchi kuchi va ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun boshqa resurslarni bir joyga kelтирuvchi vositachi hisoblanadi.

2. Tadbirkor biznesni yuritish jarayonida o'ziga asosiy qarorlar qabul qilishdek qiyin vazifani oladi, bu qarorlar korxona faoliyatining maqsadini aniqlab beradi.

3. Tadbirkor – bu yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyasi yoki hatto biznesni tashkil qilishning yangi shakllarini tijorat asosida kiritishga harakat qiluvchi tashabbuskor shaxs hisoblanadi.

4. Tadbirkor – bu tahliko (risk)ga boruvchi inson. Buni uning boshqa uchta vazifasini chuqur o'rGANISH ko'rsatadi. Bozor munosabatlariiga asoslangan jamiyatda asoslangan tadbirkorga foyda kafolatlanmagan. Uning sarflangan vaqt, kuchi va qobiliyati foyda yoki zarar bilan taqdirlanishi va hatto u sinishi ham mumkin. Qisqacha aytganda, tadbirkor nafaqat o'zining vaqt, mehnati va ishchanlik layoqati, balki o'zi yoki o'z aksionerlari ishlab chiqarishga qo'ygan mablag'lar bilan tahlikaga boradi.

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati to'g'risidagi asosiy nazariyalar:

Tadbirkor, bu noaniq daromadga ega kishilar. Tavakkalchilik xatari uning bosh xususiyatidir (**R. Kontilon**. **U bu atamani iqtisodiy fanga ham olib kirgan**).

A.Smit tadbirkorni tijorat bilan shug'ullanib, foyda olish uchun iqtisodiy tavakkalchilik qiluvchi mulk egasi, deb ta'riflaydi.

Tadbirkor, iqtisodiy agent sifatida foyda olish uchun o'z tajribasi va bilimini tavakkalchilik xataridan qo'rqlaymay ishga soluvchi shaxs (**J.B.Sey**).

Tadbirkor bu «zabt etuvchi», g'alaba uchun kurashuvchi (xatarga tayyor, ruhan erkin, g'oyalarga boy, irodali, tirishqoq) tashkilotchi, ya'ni u birgalikda ishslash uchun kishilarni birlashtira oladi (**V. Zombert**).

Tadbirkor, ishlab chiqarish omillari uyg'unlashuvining yangi nisbatini izlovlachi, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi va novatorlik qobiliyatiga ega shaxs (**Y. Shumpeter**).

Tadbirkorlik faoliyati shakllari

Davlat tadbirkorligi

Jamoa tadbirkorligi

Shaxsiy tadbirkorlik

Xususiy tadbirkorlik

Aralash tadbirkorlik

Tadbirkorlikning rivojlanish shart-sharoitlari

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning ijtimoiy, umum davlat maqsadlarida foy-dalanadigan va niyoyat, jamoa, guruh, xususiy va shaxsiy maqsadlarda ishlataladigan turlari mavjud. Shunga mos ravishda tadbirkorlikning turli-tuman davlat, jamoa, shaxsiy, xususiy, aralash va boshqa hosila shakllari rivojlanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lgan davlatlarda tadbirkorlik yaxshi rivojlanadi, aks holda faoliyatning bu turi xufiyona iqtisodiyot sohasiga o'tib ketadi.

Davlat tadbirkorligi bu davlat mulkchiligiga asoslangan korxonalarini va mulkida davlat ulushi yuqori salmoqni tashkil etadigan korporatsiyalarini o'z ichiga oлади.

Jamoa tadbirkorligi – fuqarolar guruhi, jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'ları hisobiga tashkil etiladi.

Shaxsiy tadbirkorlik – shaxsiy mulkka asoslanadi, ishlab chiqarish uning o'zi yoki oila a'zolari mehnati asosida amalga oshiriladi. Odatda, tadbirkorlikning bu shakli savdo, umumi ovqatlanish va xizmat ko'rsatish sohalariда yuqori samarali bo'lib, tez rivojlanadi.

Xususiy tadbirkorlik – xususiy tashabbus orqali o'z mablag'larini ishga tushirish asosida tashkil etiladigan tadbirkorlik.

Shartnomaviy tadbirkorlik – korxona rahbari tomonidan amalga oshiriladi va u mulk egasi yoki uning ishonchli vakili (organi) tomonidan ma'lum huquq va majburiyatlarni olib, javobgarlikni o'z bo'yiniga oladi. Rahbar-tadbirkor fuqaro tadbirkor qanday ro'yxatdan o'tsa, u ham shunday ro'yxatdan o'tadi va javobgarligi ham xuddi fuqaro-tadbirkorniki kabi bo'ladi.


Aralash korxonalar – turli mulk shakllariga taalluqli firmalar bo'lib, xususiy, davlat va jamoa mulkinining aralash mablag'ları asosida tashkil etiladi.

Korxona (firma) – iqtisodiy faoliyatni tashkil qilishning asosi ijtimoiy-iqtisodiy shakli, milliy iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini va tovarlar ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) bo'yicha tadbirkorlik faoliyat subyekti.

Aksionerlik jamiyatlari ancha katta hajmda mablag'lar va iqtisodiy resurslar talab qiladigan loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda moliyaviy resurslarni alohida o'ziga xos shaklda, ya'ni hissadorlik tartibida birlashtirish asosida tashkil qilinadigan korxonalaridir.

Aksionerlik jamiyatiga qo'yilgan kapital miqdoriga qarab, qimmatli qog'oz – aksiya chiqarish va uni joylashtirish hissadorlik munosabatlarining eng asosiy xususiyatdan biridir.

Aksionerlik jamiyatlari (AJ) ning ikki turi mavjud



Aksiya – hissadorlik jamiyati sarmoyasiga qo'shilgan hissasiga guvohlik qiluvchi, uning egasiga ulushiga muvofiq sof foydaning bir qismidan dividend shaklida daromad olish va shu aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda qatnashish huquqini beradigan qimmatli qog'oz hisoblanadi.

Aksiya o'z egasiga korxonani boshqarishda qatnashish, jamiyat tugatilganda, uning mulkiga sheriklik huquqini ham beradi.

Obligatsiya – kapital egasining aksionerlik jamiyatiga doimiy foiz shaklida daromad olish sharti bilan pul qo‘yaniga guvohlik beruvchi qimmatli qog‘oz.

Aksiyaning nominal qiymati – aksiyada ifodalangan pul summasidir, aksiya kursi uning qimmatli qog‘ozlar bozorida sotiladigan narxidir.

Aksiya kursi, eng avvalo, ikki omil dividend miqdori va foiz darajasiga bog‘liq. Dividend qancha ko‘p bo‘lsa, aksiya kursi shuncha yuqori bo‘ladi. **Aksiya kursi** dividendni (D) bankning foiz stavkasiga (r) bo‘lish orqali topiladi:

$$\text{Aksiya kursi} = \text{Dividend} / \text{Bank foizi} \times 100 \%$$

Aksiya kursiga ta’sir etuvchi omillar:

Aksiya kursiga bozor qonuniga muvofiq ravishda, albatta, talab va taklif nisbati ta’sir etadi. U o‘z navbatida quyidagi omillarga bog‘liq:

1. Iqtisodiy omillar:

a) ishlab chiqarish omillari (korxona balansi, korxona quvvatlaridan foydalanish darajasi, mahsulotlarni sotish imkoniyati, menejmenti);

b) bozorga xos omillar (bozor konyunkturasi, narxning o‘zgarishi: xomashyo narxi, valuta kursi, to‘lov qobiliyati, tashqi savdo va boshqalar).

2. Ruhiy omillar (investorlar kayfiyati, qo‘yan maqsadi va h.k.).

3. **Siyosiy omillar** (davlatning xo‘jalik, soliq, sotsial va boshqa siyosati, investor haqida ma’lumotga ega bo‘lish) kabilar.

Ta’sischilik foydasi – aksionerlik jamiyatlarini ta’sis etuvchilar o‘z-lashtiradigan daromad shakli bo‘lib, u sotilgan aksiyalar summasi va jamiyatga haqiqatda qo‘yilgan mablag‘ miqdori o‘rtasidagi farqdan kelib chiqadi.


Tadbirkorlik kapitali – tadbirkorlar ixtiyorida bo‘lib, o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag‘lari

Tadbirkorlik kapitali harakatining bosqichlari

Birinchi bosqich: pulga ishlab chiqarish omillarining sotib olinishi



Ikkinchi bosqich: ishlab chiqarish jarayoni



Uchinchi bosqich: ishlab chiqarilgan tovarlarning sotilishi

$$T^1 - P.$$

Bu yerda $P^1 = P + p$

Mamlakatimizda 2000-yilda qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonun xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda asosiy rol o'ynadi. Ushbu qonunda fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi uchun barcha asosiy kafolat va shartlar mustahkamlab qo'yilgan, tadbirkorlik va biznes subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlari muhofaza etilgan.

Prezidentimiz mamlakatimizda qabul qilingan qonunchilik talablariga ko'ra, davlat organlarining noqonuniy qarorlari, mansabdor shaxslarning xatti-harakati yoki harakatsizligi, shuningdek, qonunchilikka zid tarzda qabul qilingan idoraviy hujjat tufayli tadbirkorlik subyektiga yetkazilgan zarar davlat tomonidan qoplanishini alohida ta'kidlab o'tadilar.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilish yo'llarini soddalashtirish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun ko'proq erkinliklar berish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorini kreditlash

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat buyurtmalarini olish

Tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sotish uchun yangi imtiyozlar berish

Moliya va statistika hisobotlari tizimini yanada soddalashtirish

Xalqaro amaliyotga muvofiq daromadlarning yillik deklaratsiyasi shakliga bosqichma-bosqish o'tish

Hisobotlarni vakolatli davlat organlariga elektron shaklida taqdim etish

2011-yilning “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb nomlanishining asosiy sabablari

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o‘rin egallaydi.
- Bu sohani rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotimizning kelajagini ta’minlay olmaymiz.
- Ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatlari mahsulotlar bilan to‘ldirishda, aholini ish bilan ta’minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri hisoblanadi.
- Jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy fayanchi va poydevori bo‘lgan o‘rta sinfning shakllanishi va mustahkamlanishini ta’minlaydi.
- Jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo‘lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda.

Prezidentimiz tomonidan bayon etilgan O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari

- Tadbirkorlik subyektlarining davlat, huquqni muhofaza etuvchi va nazorat organlari bilan o‘zaro munosabatlarda tadbirkorlar huquqlarining ustuvorligi tamoyili joriy etilgan.
- Kichik biznes subyektlarida ular ro‘yxatdan o‘tgan paytdan boshlab uch yil davomida rejali soliq tekshiruvlarini o‘tkazishni taqiqlaydigan va keyinchalik barqaror faoliyat yuritayotgan, soliq qonunchiligi va tartib-intizomga qat’iy rioya qilayotgan soliq to‘lovchilarda tekshiruvlar o‘tkazishni cheklaydigan tartib joriy etilgan.

• O‘z biznesini ochish uchun tadbirkorga ikki kundan ortiq bo‘lma-gan muddat talab etiladi va bu qoida rivojlangan davlatlarda amal qila-yotgan mezonlarga javob beradi.

• 2005-yildan boshlab tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning ruxsat berish tizimidan xabardor qilish tizimiga o‘tildi.

• Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan institutsional va bozor infratuzilmasini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

• Bugungi kunda respublikadagi mavjud birja savdolari mexanizmi har bir tadbirkorga xomashyo resurslaridan teng va hech qanday to‘siqlarsiz foydalanish imkoniyatini bermoqda.

• Joriy yilda mamlakatimizda eksport qiluvchi korxonalar, shuning-dek, xorijiy investorlar uchun qo‘srimcha rag‘bat va imtiyozlar berildi.

• Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan hamkorlikda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada ko‘proq erkinliklar berish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

• Statistik, moliyaviy va soliq hisobotlarini taqdim etish, soliq va majburiy to‘lovlarni to‘lash, ro‘yxatga olish va ruxsat berish jarayonlarini amalga oshirish, xo‘jalik sudlariga da’vo arizalari va tavsiyanomalar kiritish bo‘yicha elektron tizimni keng joriy etish ko‘zda tutilgan.

• Tasdiqlangan choralar 2012-yilning 1-avgustidan boshlab biznesni ro‘yxatga olish paytidagi tartib-qoidalar sonini 2 barobar qisqartirish imkonini berdi.

Ro‘yxatdan o‘tishdan avval birlamchi ustav jamg‘armasini shakllantirish bo‘yicha talab bekor qilindi.

• Tadbirkorlik subyektlarining sud xarajatlari 2,5 barobar qisqartirildi.

• 2012-yilda ruxsat berishga oid 80 ta tartib-qoida, shuningdek, litsenziyalanadigan faoliyat turlarining 15 tasi bekor qilindi.

• Moliyaviy hisobotlarni topshirish shakllari va davriyligi 1,5 barobar qisqartirildi.

• 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab 65 ta statistik hisobot shakli va 6 ta soliq hisoboti shaklini bekor qilish, ularni topshirish davriyigini 2 barobardan ziyod qisqartirish haqida qaror qabul qilindi.

2012-yil 14-sentabr kuni Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan tashkil etilgan «O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati» mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya O'zbekistonda barqaror iqtisodiyotni shakllantirish va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishning muhim bo'g'ini sifatida kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni yuksaltirish borasidagi ilg'or tajribani o'rganish, xalqaro hamjamiyatni mamlakatimizda ushbu sohada erishilayotgan yutuqlar bilan keng tanishtirishga bag'ishlandi.

Firma – inglizcha (firm, firm's /trade name) so'zlaridan olingan bo'lib, *tijorat maqsadlarini ko'zlovchi korxona, kompaniya va boshqa xo'jalik tashkiloti* degan ma'noni anglatadi. Firma (korxona) – bozor munosabatlariga o'tish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli va bevosita ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiruvchi milliy iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi.

Xususiy firmalar – ayrim shaxslarga va oilalarga qarashli bo'lib, individual xususiy mulk hisoblanadi. Bunday korxonalar kichik, o'rta biznesda va qishloq xo'jaligi sohalarida faoliyat yuritadilar.

Mas'uliyati cheklangan firmalar – jamoa korxonasi bo'lib, uning mulki ta'sis etuvchilarning pay (hissa) mablag'i asosida tashkil etiladi. Bunda olingan daromad yoki ko'rilgan zarar qo'shgan hissasiga qarab taqsimlanadi yoki qoplanadi. Mazkur turdag'i firmalarga aralash firmalar, aksionerlik jamiyatlari kiradi. Mas'uliyati cheklangan firmalarning eng ko'p tarqalgan turi aksionerlik jamiyatlari hisoblanadi.

Mas'uliyati cheklanmagan firmalar – mol-mulki sherikchilik asosida egalik qilinadigan va olingan daromad qo'shgan hissasiga qarab taqsimlanadigan firmalardir. Bunday firmada ko'rilgan zarar sheriklar tomonidan teng qoplanadi.

Marketing (inglizcha: *market – bozor, degan ma'noni anglatadi*) – bozorni har tomonlama o'rganish orqali firma oldida turgan muammolarni hal etishdir. «**Marketing**» termini birinchi bo'lib AQShda paydo bo'ldi va amaliyotga tatbiq etildi. Uning paydo bo'lishi obyektiv zaruriyat bo'lishi bilan birlgilikda davr taqozosi hamdir.

Marketingning paydo bo'lishi uning quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- XX asrning 60–80-yillariga kelib tovar ishlab chiqarish, uni sotish jarayonlari murakkablashdi va jadallahshdi;
- tovarlar assortimenti (turi) ko'paydi va ular tez yangilana boshladи;
- tovarlarning ma'naviy eskirishi jarayoni jadallahshdi;
- ishlab chiqarish imkoniyatlari intensiv ravishda orta boshladи;
- bozor talablaridagi umumiy va xususiy o'zgarishlar tezlashdi;
- tadbirkorlar o'rtaсидаги raqobat kuchayib ketdi va hokazolar.

Reklama – korxona, tovar va xizmatlar haqidagi qisqacha va nafis rasmiylashtirilgan ma'lumotlarni chirolyi ifodalash orqali potensial xardorlarga yetkazishga qaratilgan tadbirlar tizimi.


Menejment (inglizcha management) – «...u yoki bu faoliyat turini (tashkil etishni va rahbarlik qilishni) iqtisodiy, moliyani va boshqa inson hayotidagi ishbilarmonlik sohasini tashkil qilish va boshqarishni bildiradi». Menejment ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi insonlar o'rtaсидаги, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar o'rtaсидаги munosabatlarni o'rGANUVCHI fandir.


Menejmentdagagi eng muhim tushunchalardan biri – menejer. Menejer – malakali boshqaruvchi bo'lib, u odamlar harakatini o'z maqsadlariga erishishga yo'naltiradi. Tadbirkor aniq bir ishga ega bo'lsa, menejer esa xizmatchi hisoblanadi. Kichik biznesda bir shaxs ham tadbirkor, mulk egasi, ham menejer vazifalarini birga bajaradi.

Boshqaruv vazifalari – bu biror obyektga rahbarlik qilish uchun zarur bo'lgan faoliyat turi deb tushuniladi. Boshqaruv vazifalari o'zining tarkibi bilan boshqaruv texnologiyasini bunyod etadi. Boshqaruv vazifa-sining ma'nosiga ikkita element kiradi: u avval tizimda nima qilinayotganligini belgilasa, so'ngra qanday qilib savoliga javob berishni bildiradi.

Korxona – mahsulot, tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqaruvchi, ishlarni bajaruvchi, foyda olish maqsadida iqtisodiy faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs huquqiga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt.

Ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy resurslarni jaib qilish va ulardan foydalanish natijasida vujudga keladigan sarf-xarajatlari
ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi.





FOYDA

Foyda (markscha izoh) – qo'shimcha qiymatning o'zgartirilgan shakli yoki sotilgan qo'shimcha qiymat.

Foyda (zamonaviy izoh) – «kapitalning chegaraviy (marjinal) mahsuloti»dan daromad.

Foyda me'yori – foydaning ishlab chiqarish xarajatlariiga nisbatining foizda ifodalanishi

Iqtisodiy
kategoriyalarning
izohi

foyda – ishlab chiqarishning hamma omillaridan daromad, ya'ni renta, foiz va ish haqi,
foyda – tadbirkorlik faoliyati va texnikani takomillashtirish usullari qo'llanganligi uchun mukofot;
foyda – qaltishlik va noaniqlik uchun to'lov.

Foydaning sifat tavsifi

Foyda – tovar va xizmatlardan olingan daromadning bu tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish xarajatlardan ortishi. Tadbirkorlik subyektini xo'jalik yuritish faoliyati moliyaviy natijalarining muhim ko'r-satkichi.

Yalpi foyda – xo'jalik yuritish faoliyati mahsulotini sotishdan tushum va ishlab chiqarish omillari xarajatlari yig'indisi o'rtasidagi farq ifoda-langan farq.

Sof foyda – soliq, yig'im va ajratmalar to'langach qoladigan mablag'.

Buxgalteriya foydasi – narx (savdodan tushgan daromadlar) va hisobga olingan buxgaleriya xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

Iqtisodiy foyda – firmaning xarajatlardan ortuvchi (me'yoriy foydani o'z ichiga oluvchi) umumiy daromadi.

Me'yoriy foyda – mazkur korxona doirasida tadbirkorlik qobiliyatini saqlab qolish uchun zarur eng kam to'lov. Ichki xarajatlarga bog'liq.


Monopol foyda firmaning bozordagi monopol o'rni (gaz, neft, temir yo'l va h.k.), shuningdek, qulay tabiiy shart-sharoitlar (noyob foydalari qazilmalar, iqlim va h.k.)da yuzaga keladi.

Ta'sischilik foydasi – ochiq obuna bo'yicha aksiyalarni sotish qiy-mati va korxonaga joylashtirilgan real kapital o'rtasidagi farq bo'lib, aksiyadorlik jamiyati ta'sischilari tomonidan o'zlashtiriladi.


Amortizatsiya – asosiy kapital eskirib borishiga qarab, uning qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulot (xizmat)ga o'tkazilishi va asosiy kapitalni qayta tiklash maqsadida jamg'arilib borish jarayonini anglatadi.

Foyda me'yori

Ta'sir etish omillari




Yalpi foydaning taqsimlanishi




MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI JADAL RIVOJLANTIRISH BORASIDA ERISHILGAN YUTUQLAR

Shuni aytishning o'zi kifoyaki, 20 yil avval O'zbekistonda tadbirkorlik deyarli yo'q edi. Bugun esa mavjud barcha xo'jalik subyektlarning 90 foizdan ortig'ini kichik biznes korxonalari tashkil etadi. Hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotlarning 54 foizi ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 22 foizi va qishloq xo'jalik mahsulotlarining 98 foizi aynan shu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdag'i ulushi, foizda



O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksportdag'i ulushi




Soliqqa tortish masalasi doimiy ravishda e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. Faqat 2005-yildan davrda mikrofirma va kichik korxonalar uchun aylanma mablag'dan olinadigan yagona soliq to'lovi stavkasi 2,5 barobar kamaytirilib, 13 foizdan 5 foizga tushirildi. xalq amaliy san'ati va oilaviy biznes obyektlari esa umuman soliqqa tortilmaydi yoki eng kam stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.



Faqat 2011-yilning o'zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilgan soliq imtiyozlarining umumiyligi miqdori 500 million dollardan oshdi. Korxonalar ushbu mablag'ning 35 foizini ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilishga, 25 foizini ishchilarni rag'batlantrishga yo'naltirdi.


YalM ga nisbatan soliq yukining o'zgarishi dinamikasi



Tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlarning yaratilishi

| KO'RSATKICHLAR | 1990-yil | 2000-yil | 2010-yil |
|--|----------|----------|----------|
| ICHIMLIK SUVI TA'MINOTI | 64,0 | 80,4 | 82,6 |
| SIHU JUMLADAN QISHLOQ JOYLARIDA | 55,0 | 72,3 | 75,8 |
| TABIY GAZ TA'MINOTI | 44,6 | 76,1 | 83,7 |
| SIHU JUMLADAN QISHLOQ JOYLARIDA | 19,3 | 65,9 | 77,7 |
| MARKAZIY ISITISH TIZIMI | 29,1 | 35,4 | 41,0 |
| OQAVALASHTIRISH XIZMATI (KANALIZATSIIYA) | 25,5 | 28,3 | 37,1 |
| BIR KISHIGA TO'G'RI KELADIGAN O'RTACHA UY-JOY MAYDONI, KV.METR | 12,1 | 13,8 | 15,2 |

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarkibiy tuzilishining takomillashib borishi



7-mavzu. RAQOBAT VA NARXLARNING SHAKLLANISHI

«Raqobat bo‘limgan joyda yaxshi uqlash mumkin, lekin yaxshi yashashning iloji yo‘q».

Reja:

1. Raqobatning mohiyati, uning shakllari va usullari.
2. O‘zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va antimonopol qonunchilik.
3. Narx va uning vazifalari.
4. Narx turlari. Narx siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari.

Raqobatning mohiyati, uning shakllari va usullari

Raqobat – iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, yuqori daromad olish imkoniga, yuqori naf, nufuzli mavqega ega bo‘lish uchun boshqalar bilan bellashuvi, kurashidir. U bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashishi tufayli yuz beradi.

**Ishlab chiqaruvchilar
o‘rtasidagi raqobat**

Tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish, yuqori narxlarda sotish va bozordagi mavqeini mustahkamlash orqali eng ko‘p foyda olishga qaratiladi.

**Resurs egalari
o‘rtasidagi raqobat**

O‘zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, yer, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish orqali ko‘proq omilli daromadga ega bo‘lishga qaratiladi.

**Iste’molchilar
o‘rtasidagi raqobat**

Daromadlarning mavjud darajasida ko‘proq miqdordagi tovarlarni sotib olishga, ya’ni sarflagan puli evaziga ko‘proq naflilikka ega bo‘lishga qaratiladi.

Raqobatning iqtisodiy asosi – bu mulkchilikning turli-tumanligi, ishlab chiqaruvchilar, resurs egalari va iste’molchilarning tadbirkor, mulk va daromad egasi sifatida erkin hamda mustaqil bo‘lishidir.

Raqobatning rivojlanish bosqichlari

- I. Oddiy tovar xo‘jaligiga xos bo‘lgan raqobatchilik bosqichi;
- II. Sof yoki erkin raqobatga asoslangan bosqich;
- III. Monopolistik raqobat bosqichi;
- IV. Hozirgi zamon madaniy jihatdan rivojlangan raqobatchilik bosqichi.

«Iqtisodiy otni erkinlashtirish haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiy otni barpo etib bo'lmaydi.

Raqobat bozorming asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir¹.

Raqobat shakllari va usullari

Raqobat shakllari

I. Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)larning bozordagi mavqeyiga ko'ra:

- sof yoki erkin raqobat;
- sof monopoliya;
- monopolistik raqobat;
- oligopoliya.

II. Miqyosiga ko'ra:

- tarmoqlar ichidagi raqobat;
- tarmoqlar o'rtaisdagi raqobat;
- milliy xo'jalik doirasidagi raqobat;
- jahon xo'jaligi doirasidagi raqobat.

III. Sodir bo'lish xarakteriga ko'ra:

- tartibsiz (stixiyali) raqobat;
- tartibga solinadigan raqobat.

IV. Amalga oshirish usuliga ko'ra:

- narx vositasida raqobat;
- narxdan boshqa vositalar orqali olib boriladigan raqobat.

V. Amalga oshirish yo'liga ko'ra:

- halol raqobat;
- g'irrom raqobat.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т.: «Ўзбекистон», 1999, 34-бет.

Ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar)ning bozordagi mavqeyini belgilab beruvchi omillar:

- Ishlab chiqaruvchi (sotuvchilar) soni;
- Bozorga kirish va chiqib ketishda to'siqlarning mavjudligi.

Tarmoq ichidagi raqobat – mahsulot ishlab chiqarish va sotishda qulay sharoitga ega bo'lish uchun bir tarmoq korxonalar o'rtasida boradi. Tarmoq ichidagi raqobat natijasida turli ishlab chiqaruvchilar tovarlarning individual (alohida) narxi, bozor narxiga aylanadi.

Tarmoqlar o'rtasidagi raqobat – turli tarmoq korxonalari o'rtasida yuqori foydaga ega bo'lish uchun boradi. Bu raqobat natijasida korxonalarda hosil bo'lgan turli foyda normalari o'rtacha foydaga aylanadi.

Milliy xo'jalik doirasidagi raqobat – natijasida o'rtacha narxlar va bozor subyektlarining yalpi milliy (ichki) mahsulotdagi ulusli aniqlanadi.

Jahon xo'jaligidagi raqobat – turli davlatlar milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozoridagi mavqeyini mustahkamlash uchun boradi va uning natijasida alohida tovarlarning jahon narxlari shakllanadi.

Tartibsiz (stixiyali) raqobat – bozor kuchlari ta'sirida tabiiy ravishda ro'yberadi.


Tartibga solinadigan raqobat – madaniylashgan tarzda va ma'lum meyorlar doirasida sodir bo'ladi.

Narxning raqobat vositasi sifatida qo'llanilish darajasiga qarab narx yordamidagi va narxsiz raqobat ajratiladi.


Raqobatlashishda g'ayrioddiy usullar (josuslik, qotillik, zo'ravonlik va h.k.)ning qo'llanilish darajasiga ko'ra halol va g'irrom raqobat farqlanadi.

| Raqobat shakllari | sof yoki erkin raqobat | sof monopoliya | monopolistik raqobat | oligopoliya |
|---|------------------------|----------------------------------|----------------------|-------------|
| Asosiy belgilari | | | | |
| Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)lar soni | Juda ko'p | Yagona | Nisbatan ko'p | Kam sonli |
| To'siqlar, (baryer)larning mavjudlik darajasi | Mavjud emas | Katta taqiqlar, to'siqlar mavjud | Uncha katta emas | Katta |

Raqobat usullari



Narx yordamida raqobatlashish



Narxdan boshqa vositalar yordamida raqobatlashish

→ Tovar sifatini tabaqlashtirish – bir xildagi ehtiyojni qondiradigan va bir turga mansub bo'lgan tovarlar turlicha iste'mol xossalariga ega bo'ladi.

→ Tovarlarni kreditga sotish – tovarlar nisbatan ortiqcha bo'lgan sharoitda ishlab chiqaruvchi o'z tovarlarini narxini kechiktirib to'lash sharti bilan sotib, raqiblaridan ustun kelishi mumkin.

→ Sotish vaqtida va kafolatlangan muddatda tekin servis xizmati ko'rsatish.

→ **Marketing** – uning vositasida mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtirishga harakat qilinadi.

→ Reklama, tovar belgilari, firma muhirlari hamda qadoqlash usullari tovarlarni o'ziga jalb etuvchanligini oshirish va sotish hajmining ko'payishini rag'batlantirishning muhim yo'llari hisoblanadi.

O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va antimonopol qonunchilik

Monopoliya – iqtisodiy faoliyatining biror sohasida (ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tijorat va h.k.) korxona yoki davlatning tanho hukmronligini ifodalaydi. «Monopoliya» – yunoncha so'z bo'lib, «mono» – bitta, «polis» – sotaman degan ma'noni anglatadi.

Monopoliyalarning vujudga kelish sabablari:

- Kapitalning to'planuvi va markazlashishi;
- Fan-texnika taraqqiyoti;
- Davlatning ayrim faoliyat sohalarini qo'llab-quvvatlashi;
- Ishlab chiqarishdagi obektiv texnologik zaruriyat;
- O'zaro kelishish.

Monopoliya turlari:

Tabiiy monopoliyalar – iqtisodiy, texnikaviy va texnologik xususiyatlari taqozo qilib, ular raqobatni qo'llash mumkin bo'lmasan yoki qiyin bo'lgan sohalarni o'z ichiga oladi:

- Suv, energiya, gaz ta'minoti korxonalar;
- Temiryo'l transporti;
- Harbiy-mudofaa majmuasi korxonalar.

Iqtisodiy (sun'iy) monopoliyalar – ishlab chiqarish va kapitalning to'planishi hamda korxonalarning turli yo'llar bilan birlashishi natijasida vujudga keladi.

Tadbirkorlik faoliyatida tashkil etiluvchi monopolistik birlashmalar

Kartel

Bir tarmoq tadbirkorlari o'rtaсидаги нархлар, махсулот сотиш бозорлари, ishlab chiqarish umumiyligi hajmidagi ularning ulushlari, mahsulot o'lchamlari va shu haqidagi kelishuv

Sindikat

Bir tarmoq tadbirkorlari tomonidan ortiqcha raqobatni bartaraf qilish, barqaror foya olish maqsadida mahsulot sotishning birlashtirilishi

Konsorsium

Tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalari birligida amalga oshirish maqsadida birlashuv

Kontsern

Qatnashish tizimi orqali korxonalarni nazorat qiluvchi ko'p tarmoqli hissadorlik jamiyat

Konsernlarning boshqa monopoliya shakllaridan afzalliklari:

* rasman mustaqil, bu ozmi-ko'pmi ularga faoliyat erkinligini beradi;

* qaysi tarmoq mahsuloti – xizmatlariga talab yuqori bo'lsa, aynan shu sohaga tezda kapital qo'yish imkonini beradi. Konsermlar universallikning afzalligi bilan ixtisoslanishning ustunliklarini o'zida mujassamlashtiradi.

Davlatning antimonopol siyosati – monopoliyalar faoliyatini cheklash, tartibga solish va raqobatchilik muhitini vujudga keltirishga qaratiladi. Bu siyosat o'z ifodasini antimonopol qonunlarda topadi.

AQShning antimonopol qonunchiligi

→ **Sherman qonuni** (1890-y.) – unda ishlab chiqarish va savdoni cheklash maqsadida tuzilgan bitimlar noqonuniy, deb hisoblanadi.

→ **Kleyton qonuni** (1914-y.) – iste'molchilarни narx orqali kamshitish, majburiy shartnomalar tuzish, raqobatchi korxonalarining zaiflashuviga olib keluvchi aktsiyalarni sotib olish direktoratlarning chirmashib ketishi, bir firmanın rahbari boshqa firmaga a'zo bo'lishini taqiqlaydi.

→ **Seller-Kefover qonuni** (1950-y.). Bu qonunda Kleyton qonuniga o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, unda nafaqat raqobatchi korporatsiyaning zaiflashuviga olib keluvchi aktsiyalargina emas, ishlab chiqarish fondlari (asbob-uskuna, boshqa moddiy narsalar)ni sotib olish ham taqiqlandi.

Antimonopol tartibga solishning asosiy yo'nalishlari:

- bozorning monopolashuvini cheklash;
- raqobatchi kompaniyalar qo'shilishini taqiqlash;
- monopol narxlar belgilashni taqiqlash;
- raqobatni madaniylashgan tarzda olib borishni qo'llab-quvvatlash.

O'zbekiston Respublikasining antimonopol qonunchiligi:


• «Monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonun (1992-y.). Unda bozorda ataylab taqchillik hosil qilish, narxlarni monopolashtirish, raqobatga to'sqinlik qilish va uning g'irrom usullarini qo'llash taqiqlanadi;

• «Obyektlarning xo'jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to'g'risida»gi Nizom (1994-y.). Unda o'z monopol mavqeini suiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydalashtirish ko'zda tutildi;

• «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonun (1996-y.). Qonunda g'irrom raqobat va bozorlarga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarish taqiqlanadi.

O'zbekistonda monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshiruvchi muassasalar:


- Moliya vazirligi huzuridagi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi (1996-y.).
- O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo'mitasiga aylantirildi (2000-y.).
- Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasi (2005-y.).
- Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo'mitasi (2010-yildan).
- O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi.




Raqobat quyidagilarga ko'maklashadi

- 1) ishlab chiqarishni kengaytirish va ixchamlashtirishga
- 2) ilg'or yangiliklarni joriy etishga
- 3) resurs harajatlarini tejashta
- 4) iqtisodiyotning umumiy samaradorligini oshirishga
- 5) talabning qulay qondirilishiga
- 6) narxlarni tenglashtirish va pasaytirishga


Tarmoqqa kirishdagি asosiy to'siq turlari



Raqobatlashuv usullari



Ракобатда томонларнинг манбаатлари тұқнашади
Бу манбаатлар уларнинг асосий **мәседдатарини** ифодалайды.



O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va antimonopol qonunchilik

Davlatning monopoliyalarga qarshi siyosati, milliy iqtisodiyotida raqobat oldidan shakllanib bo'lgan mamlakatlarda raqobatchilik muhitini takomillashirishga, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda esa bu muhitni yangi dan shakllantirishga qaratiladi. Raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda xususiy lashtirishning ishtiroti turlicha bo'ladi. Davlat mulki monopoliyasiga barham berish, bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi, mulkchilikning turli shakllariga (davlat, jamoa, aksiyadorlik, xususiy va boshqa) asoslangan ko'plab korxonalarini tashkil qilish raqobatchilik muhitini yaratishdagi birinchi vazifa hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida **raqobatning asosiy usulli baho** bo'lishi sababli, narxlarni erkin qo'yib yuborish raqobatli muhitni vujudga keltirishning asosiy talabi hisoblanadi. Shuni hisobga olib, O'zbekistonda davlat nazorati ostidagi narxlardan kelishilgan narxlarga, ulardan esa erkin bozor narxlariga o'tish yuz berdi. Narxlar erkin qo'yib yuborilishi bilan birga, mahsulotlarga davlat buyurtmalari qisqirtirilib, ularning tobora ko'proq qismi erkin sotishga chiqarilib borildi.

Raqobat erkin iqtisodiy faoliyatini talab qilishi sababli, davlat raqobatchilarga bir xil imkoniyat yaratib berishi, bozor subyektlariga bir xil sharoit hozirlashi, raqobat qoidalariga rioxaya etilishini o'z nazorati ostiga olishi lozim bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy monopolizmni cheklash va davlatdan monopolizmga qarshi yo'l tutishni talab qiladiki, busiz raqobatlashish muhiti vujudga kelmaydi.


Shu maqsadda O'zbekistonda «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonun (1992-yil, avgust) kuchga kiritildi hamda uning asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir turkum normativ hujjatlar ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (1996-yil, aprel) qonuni asosida g'irrom raqobatga, shu jumladan, Respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo'l qo'ymaydigan mexanizmni yaratishga ham alohida e'tibor beriladi.


Tabiiy monopoliyalarni davlat yo'li bilan tartibga solish ular mahsulot (xizmat)lariga narxlar va tariflar darajasini, shuningdek, taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko'rsatkichlarni belgilashni o'z ichiga oladi.

Narx – tovar nafliligi tan olinganda uning qiymatining pulda ifodalaniishi, qiymatning bozorda namoyon bo'lish shakli.

Narxning vazifalari



Tovar xususiyatlarining narxga ta'siri



Narxning turlari

Ulgurji narxlar. Ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta partiyadagi tovarlar biryo'la ko'tarasiga sotilganda ulgurji narxlardan foydalaniлади.

Shartnomaga narxlar. Bu sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanадиган, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narxlardir.

Chakana narxlar. Bu narxlarda tovarlar bevosita iste'molchilarga sotilадиган narxlardir.

Davlatning narxlarni tartibga solishlik faoliyati chegaralangan (limitlangan) va dotatsiyali narxlarni vujudga keltiradi. **Chegeralangan narxlarda davlat narxlarning yuqori va quyi chegarasini belgilaydi, ular shu doirada o'zgarishi mumkin.** Bunday narxlар yordamida davlat inflyatsiyani jilovlaydi, narxlarni nazorat qiladi.

Dotatsiyalangan narx – bu davlat byudjeti hisobidan maxsus arzon-lashtirilgan narxlar. Bunday narxlardan kam daromadli oilalar, beva-becholar, ishsiz va nogironlarni hayotiy zarur ne'matlar bilan eng kam darajada ta-minlab turishda foydalaniлади.

Demping narx. Bozorda o'z mavqeyini mustahkamlash va raqiblarini siqb-chiqarish uchun firmalar maxsus narxdan foydalanadi, ular demping narx yoki bozorga kirib olish narxi, deb ataladi. Demping narxda rasmiy narxning bir qis-midan kechib yuboriladi.

Sotish hajmini o'zgartirmasdan yuqori foya olishga erishish uchun fir-malar **nufuzli narxdan** foydalanadi. Bu narxni qo'llash uchun bozorda raqobat eheklangan va monopol vaziyat mavjud bo'lishi zarur. Mazkur vaziyatda talab narxga bog'liq bo'lmaydi, shu sababli narxning ko'tarilishi tovar sotilishini keskin kamaytirmaydi. Bunday tashqari aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nufuzli tovarlar ham mavjudki, ular nufuzli narxlarda sotiladi.

Amaliyotda **preyskurator narxlar** ham ishlataladi. Bunday narxlar firma preyskuratorlarida (narx ko'rsatkichlarida) e'lon qilinadi va tovar narxining qaysi summa atrofida bo'lishini ko'rsatadi, ammosi haqiqiy narx preyskurator narxdan yuqori yoki past bo'lishi mumkin.

Hududiy narx (mintaqaviy) faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'lib, u shu hudud doirasidagi omillar ta'siridan hosil bo'ladi.

Bozor ko'lami hisobga olinganda **hududiy (mintaqaviy), milliy va xalqaro narxlar** mavjud.

Narxlar farqining miqdoriy ifodasi **narx diapazoni** deyiladi. **Narx diapazoni narxlar oralig'ining puldag'i ifodasıdır.**

Milliy bozor narxi bir mamlakat doirasida aimal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narxlardir.


Jahon narxi muayyan tovarga ketgan baynalminal xarajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini o'zida aks ettiradi.

Iqtisodiy nazariyada narx nisbati degan tushuncha bor, **u narx pariteti deb ham yuritiladi.**

Narxlarning yuqorida qayd qilingan turlari bilan birga iqtisodiy hayotda quyidagi narxlaridan ham foydalaniladi:

- **Auksion narxi** – auksionda sotilgan tovarning «kim oshdi» narxi.
- **Bazis narxi** – bitimlar tuzilgan paytda belgilangan narx.
- **Birja narxi** – birja kotirovkasi va unga birja kontraktidan tovarning sifati, olib kelib berish joyi va boshqa o'zgarishlarga qarab chegirma qilingan yoki ustama qo'shilgan narxlar.
- **Kotirovka narxi** – ma'lum bir davr uchun qayd etilgan o'rtacha tipik narxlar. Kontrakt narxlar kelishuv asosida aniqlanadi va yangi bitimlar tuzishda (jumladan, birjalarda) mo'ljal bo'lib xizmat qiladi.
- **Transfert narxlar** – bir kompaniyaning sho'ba korxonalari yoki bo'limlari o'rtaсидаги тijoratda qo'llaniladigan narxlar.
- **Fyuchers narxlari** – birjada fyuchers bitimlarida qo'llaniladigan narxlar.

- **Ayirboshlash narxi** – ma'lum bir turdag'i tovar va xizmatlarni boshqasiga ayirboshlash uchun beriladigan tovar va xizmatlar miqdoriga belgilanadi.
- **Hisob-kitob narxi** – har bir fyuchers pozitsiyasining shu kunga yagona narxi; savdo tugashining oxirgi daqiqalarida tuzilgan narx bitimlari asosida hisob palatasi tomonidan belgilangan narx.
- Iqtisodiy tahlil, rejalashtirish va statistika hamda tadqiqot maqsadlarida **joriy narxlar** bilan birgalikda **taqqoslama narxlardan** foydalaniladi. Ulardan foydalanish bozor iqtisodiyoti taqozo qiladigan obyektiv zaruriyatdir. Masalan, inflyatsiya jarayonida narxlarning qanday o'zgarganini bish dolzarb bo'lib, u **taqqoslama narxlar** yordamida aniqlanadi.
- Irratsional narxlar yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiiy resurs va ne'matlarga belgilanadigan narxlarni bildiradi



Davlatning narx siyosati – bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida narxlar ni erkinlashtirish va milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirishga qaratiladi.

Narxlarini erkinlashtirish – iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo’nalishlaridan biri bo’lib, islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ko’p jihatdan shu muammoning hal etilishiga bog’liq bo’ladi. Narxlarni erkinlashtirish xomashyo bilan mahsulot ayrim turlarining narxlari, narx bilan aholi va korxonalar daromadlari o’rtasida mutanosiblikka erishishga qanday yondashilishi bilan farqlanadi. Shu yondashuvlarga asoslanib, narxlar quyidagi yo’llar bilan erkinlashtiriladi:

- a) narxlarni bordaniga yoki «esankiratadigan» tarzda qo’yib yuborish;
- b) narxlarni sun’iy ravishda to’xtatib qo’vish;
- d) narxni davlat tomonidan boshqarish va nazorat qilishni ma’lum darajada saqlab qolish.

Narxlarni erkinlashtirishdan ko’zlangan maqsad:

- xomashyo bilan mahsulot ayrim turlari narxlari o’rtasidagi nomutanosiblikni yumshatish;
- narx bilan aholi daromadlari va korxonalar foydasi o’rtasidagi mutanosiblikka erishish;
- investitsion tovarlar, iste’mol tovarlari va xizmatlar narxlarining oqilona nisbatini ta’minlash;
- ishlab chiqarish vositalari, xalq iste’mol tovarlari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning erkin narxlari hamda tariflariga o’tish;
- milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish.

Narxlarni erkinlashtirish yo’llari:

- narxlarni bordaniga yoki «esankiratadigan» tarzda qo’yib yuborish;
- narxlar o’sishini sun’iy ravishda to’xtatib qo’yish;
- narxlarni davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishni ma’lum darajada saqlab qolish,
- narxlarni asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich erkinlashtirish.

O’zbekistonda iqtisodiy otni isloh qilishning o’ziga xos tamoyillari, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat va aholming turmush darajasi hisobga olinib, narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo’li tanlab olindi.

O'zbekistonda narxlarni erkinlashtirish bosqichlari:

I bosqich. 1992-y – keng doiradagi ishlab chiqarish vositalari, ayrim turdag'i xalq iste'mol mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan narxlari (tariflari)ga o'tildi.

Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doirada oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlарining chegarasi belgilab qo'yildi.

II bosqich. 1993-y. – kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'lig'icha to'xtatildi.

III bosqich. 1994-y. oktabr-noyabr – xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxi erkin qo'yib yuborildi, transport va kommunal xizmati tariflari ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov farmoni bilan O'zbekiston Respublikasida Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasining Xususiy lash-tirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil qilindi (2012-yil 12-noyabr).

8-mavzu. AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES

**Boylikning yagona manbayi yer va uni ko‘paytirish omili
faqat qishloq xo‘jaligidir.**
Fransua Kene

Reja:

1. Agrar munosabatlari va ularning xususiyatlari.
2. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni rivojlanish bosqichlari
3. Yerga mulkchilik va yer rentasi.
4. Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi. Agrosanoat integratsiyasi va uning shakllari.
5. Agrobiznes va uning turlari.

Agrar munosabatlari va ularning xususiyatlari

Agrar munosabatlari iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos turi hisoblanadi. «Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish ko‘p jihatdan yer bilan bog‘liq, shuning uchun ham yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni tashkil etadi»¹.

Yerga egalik qilish – tarixan tarkib topgan an‘analar yoki qonuniy asosda belgilangan tartibda yerga egalik huquqining tan olinishini bildiradi.

Yerdan foydalanish huquqi – bu o‘matilgan urf-odatlar, udumlar yoki qonuniy tartibda ularning doimiy va muddatli foydalanish uchun berilishini bildiradi.

Boshqa bir ta’rifda esa «Yer bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni agrar munosabatlari» deb ataladi deyilgan².

Yuqoridaq ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, yer bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarni agrar munosabatlarning asosini tashkil etadi. Shu sababli, **agrar munosabatlarning asosiy xususiyatlari** ham yerga uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Uni quyidagicha asoslash mumkin.

– yerning agrar ishlab chiqarishning asosiy omili sifatidagi xususiyati, yerning narxi va uning sifati agrobiznesning boshqa resurslarini tanlash, uyg‘unlashtirish va ulardan foydalanishning turli variantlarini belgilashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabning noelastikligi bu sohadagi daromadlarning past bo‘lishimi belgilaydi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi ularning foydalilik darajasini kamaytiradi.

¹ Shodmonov Sh., Jo‘rayev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma‘ruzalar to‘plami. –T., 2000. 152-b.

² Ўлмасов А., Шарифхўжаев М., Иқтисодиёт назарияси. – Т., “Мехнат” 1995. - Б.338.

Agrar munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri atrof-muhitda bo‘layotgan tabiiy jarayonlarning unga bevosita ta’sir ko’rsatishidir. Mazkur jarayonlar yerning mahsulorligida va ushbu sohadagi ishlab chiqarishga ta’sir ko’rsatuvchi iqlim, ob-havo sharoitlarida o‘zining aksini topadi.

Bozor munosabatlari sharoitida yer tovarga, tadbirkorlik obyektiga aylanadi. Ammo yer resurslari makonda tabiiy ravishda cheklangan, uni takror ishlab chiqarib bo‘lmaydi. Yer taklifi yer narxining ortishi bilan ko‘payib, aksincha, kamayishi bilan tushib ketmaydi. Shu sababli, yer taklifi mutlaq no-elastik (o‘zgarmaydigan) bo‘ladi. Yer o‘zining **shu xususiyatlari** bilan boshqa resurslardan farqlanadi.

Agrar munosabatlari – bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotish va qishloq xo‘jaligi vositalarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan turli-tuman subyektlar o‘rtasidagi munosabatlardir.

Respublika Prezidenti I.A. Karimov: «Butun agrar sanoatning muhim masalasi negizi – yerga mulkchilik masalasıdir. Yer o‘lkamizning eng asosiy boyligi. U ediradi, ichiradi, yashasha uchun asosiy shart-sharoitlarni yaratib beradi, shu sababli, respublakaning kelajagi ko‘p jihatdan yerdan foydalanish munosabatlarning qanday tashkil etilishiga bog‘liqligidir», deb oqilona fikr yuritadi va shu sohadagi kelgusi tadbirlarni belgilab beradi¹.

O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksida ta’kidlanganidek: «Yer uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish va ulardan foydalanish uchun berilishi mumkin»². Masalan, **O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonuning 10-moddasida** «Fuqarolarga fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun yer uchastkalari ellik yilgacha bo‘lgan, lekin 10 yildan kam bo‘limgan muddatga ijara beriladi» deb yozib qo‘yilgan. Yoki **O‘zbekiston Respublikasining «Dehqon xo‘jaliklari to‘g‘risida»gi qonunning 8-moddasida** «Dehqon xo‘jaligi yuritish uchun qonun hujjatlari belgilangan tartibda meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga tomorqa yer uchastkasi imorat va hovli egallagan maydoni ham qo‘shganda sug‘oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug‘orilmaydigan yerlarda 0,5 gektargacha o‘lchamda, cho‘l va sahro mintaqasida esa sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 1 gektargacha o‘lchamda beriladi» deyilgan³.

¹ Karimov I. A. «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida // Vatan sajda-goh kabi muqaddasdir». – T., 1996. 216-b.

² O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, 20-modda. – T., «O‘zbekiston», 1999-yil.

³ O‘zbekiston Respublikasining «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi qonuni 8-modda, 1998-yil 30-aprel.

Agrar munosabatlarni tor va keng ma'nolarda talqin etish mumkin.

Tor ma'noda agrar munosabatlar yerni, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni o'zlashtirish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligida vujudga qiluvchi ichki munosabatlari bilangina cheklanadi. Keng ma'noda esa agrar munosabatlar o'z ichiga soha uchun ishlab chiqarish vositalari yetkazib beruvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va uni sotuvchi korxonalar bilan qishloq xo'jaligi korxonalari o'rtaida vujudga keladigan aloqalarni qamrab oladi.

O'zbekistonda agrar munosabatlarni rivojlanish bosqichlari


| Bosqichlar | Xususiyatlari |
|------------------------------|---|
| 1917-1924-yy. | <ul style="list-style-type: none"> - agrar sohada natsionalizatsiya jarayonlarining zo'ravonlik bilan amalga oshirilishi va dehqonning yerdan mahrum qilinishi; - agrar siyosatning Turkistonni xomashyo bazasiga aylantirishga qaratilishi; - jamoa yerlari va jamoa mulkining barpo etilishi. |
| 1925-1958-yy. | <ul style="list-style-type: none"> - agrar islohotlar o'tkazilishining ijtimoiy ahamiyatga egaligi; - islohotlar natijasida asrlar mobaynida o'zbek qishloqlarida shakllangan ijtimoiy-psixologik tartib, milliy qadriyatlar buzilishining boshlanishi; - dehqon xo'jaliklarini jamoalashtirish jarayonining tugallanishi va kooperatsiya munosabatlarining rivojlanishi. |
| 1959-1990-yy. | <ul style="list-style-type: none"> - shahar bilan qishloq o'rtaсидаги noekvivalent ayrboshlash va iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi; - qishloq xo'jaligiga resurslarning qoldiq tamoyillari asosida moliyalashtilishi; - tenglashtirish tamoyili asosida ijtimoiy passivlikning kelib chiqishi; - O'zbekistonning resurs imkoniyatlari darajasiga mos kelmaydigan asossiz paxta yetishtirish hajmlarining oshirilishi; - O'zbekistondagi keskin ekologik muammolar paxta yakkahokimligini tugatish kerakligmi taqozo etishi. |
| 1991-2004-yy. | <ul style="list-style-type: none"> - mustaqilлик yillarda agrar sohada yer munosabatlarini takomillashtirish davri boshlandi; - agrar siyosatda bozor munosabatlarning rivojlanishi qishloq xo'jaligidagi inqirozni to'xtatish imkonini berdi; - agrar sohadagi tarkibiy o'zgarishlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratildi; - samarasiz jamoa xo'jaliklari o'miga shirkat xo'jaliklarini tashkil etish boshlandi; |
| 2005-yildan hozirgi kungacha | <ul style="list-style-type: none"> - shirkat xo'jaliklarini isloh qilish asosida fermier xo'jaliklarini tashkil etish boshlandi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetakchi ishlab chiqaruvchilariga aylandi. - fermier xo'jaliklari yer maydonlarini maqbullashtirish jarayoni boshlandi; - fermier va dehqon xo'jaliklari agrar sektorda xususiy mulkchilikni rivojlanirishning asosiy shakhga aylanib bormoqda. |

Birinchi bosqich – 1917–1924-yillarni o‘z ichiga olib bu bosqichni yer islohotlarining amalga oshirilishi zo‘ravonlik bosqichi, deb atash mumkin.

Ikkinchi bosqichi 1925–1958-yillarni o‘z ichiga qamrab olib biz bu bosqichni jamoalashtirish doirasidagi rivojlanish bosqichi, deb atadik.

Uchinchi bosqichi 1959–1990-yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lib bu bosqichni biz boshqaruvning ma’muriy-buyruqbozlik usullari kuchayish bosqichi.


Ayni vaqtida, paxta yetishtirish reja topshiriqlari ham ko‘paydi, bu O‘zbekistonning imkoniyatlariga mutlaqo mos kelmas edi. Mazkur mu-ammoni qo‘sib yozishlar, ko‘zbo‘yamachiliklar, paxta terimi davrida shaharliklar, talabalar, maktab o‘quvchilarining mehnatidan surunkali foydalanish evaziga hal qilishga intildilar. Paxta, poliz va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari hosilini sun‘iy ravishda oshirishga intilish natijasida aksariyat xo‘jaliklarda agrotexnologiya buzildi, ekinlarga me’yoridan ortiq miqdorda kimyoviy o‘g‘itlar solindi. Natijada, atrof-muhit zaharlandi, yerning tarkibi buzildi va insonlar sog‘ligiga zarar yetkazildi. Mehnatni tashkil etish va mehnatga haq to‘lashda yo‘l qo‘yilgan jiddiy nuqsonlar qishloq mehnatkashlarini loqayd qilib, ularni besfarqlikka mahkum etdi.



1.3.2-rasm. O‘zbekistonda paxta etishtirishning asosiy ko‘rsatkichlari

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda paxta yetishtirishning asosiy ko'rsatkichlari 1920-yilda 93,6 ming ga ekin maydonlarini yalpi terim esa 31 ming t. hosildorlik 3,3 s/g ni tashkil etgan. 1930-yilda esa bu ko'rsatgich 883,8 ming ga ekin maydonlarini, yalpi terim 44,3 ming t, hosildorlik esa 8,4 s/ga yetgan bo'lsa, 1940-yilda ekin maydonlarini 923,5 ming g, yalpi terim esa 1385,9 ming t, hosildorlik 15 s/ga ni tashkil etgan. 1950-yilda esa bu ko'rsatkichlar ekin maydonlarini 1098,1 ming ga, yalpi terim 2225, ming t, hosildorlik esa 20,3 s/ga yetgan bo'lsa, 1960-yilda ekin maydonlarini 1386,6 ming ga, yalpi terim esa 2823,5 ming t, hosildorlik 20,4 s/ga ni, 1970-yilda esa ekin maydonlarini 1709,2 ming ga, yalpi terim esa 4495,2 ming t. hosildorlik 26,3 s/ga ni, 1980-yilda esa ekin maydonlarini 1878,5 ming ga, yalpi terim esa 5579 ming t, hosildorlik 29,7 s/ga ni, 1990-yilda esa ekin maydonlarini 1832,6 ming ga, yalpi terim esa 5058 ming t, hosildorlik 27,6 s/ga ni tashkil etgan. O'zbekiston mustaqil bo'lgandan so'ng oziq-ovqat mustaqilligiga erishildi, buning natijasida paxta ekinlari qisqartirildi. 2000-yilda ekin maydonlarini 1444,5 ming ga, yalpi terim esa 3149 ming t, hosildorlik 21,8 s/ga ni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda ekin maydonlarini 1342,1 ming ga, yalpi terim esa 3443 ming t, hosildorlik 25,6 s/ga ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

To'rtinchi bosqichi 1991–2004-yillarini qamrab olgan bo'lib, bu bosqichni agrar munosabatlarning o'zgartirilish bosqichi.



O'zbekistonda ekin maydonlarining tarkibi (% hisobida)

1980-yilda paxta 46,9 %ni, donli va dukkanakli o'simliklar 29,8 %ni, ozo'qa ekinlari 18,1 %ni, kartoshka, poliz-sabzavot 4,7 %ni, boshqa ekin maydonlari esa 0,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilga kelib bu ko'rsatkichlar 36,2 %ni paxta, donli va dukkanakli o'simliklar 45,3 %ni,

ozuqa ekinlari 8.6 %ni, kartoshka, poliz-sabzavot 7.9 %ni, boshqa ekin maydonlari esa 2,0 %ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.

Beshinchi bosqich – 2005-yildan hozirgi kungacha bo'lgan davru o'z ichiga olib bu bosqichni biz qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish bosqichi.

Yer-xo'jalik
yuritish obyekti

Yerning xususiyatlari

Yerning miqdori o'zgarmas.

Yer-ko'chmas mulk.

Yer o'mini boshqa hech bir resurs bosa olmaydi.

Yer foydalanish jarayonida eyilmaydi, eskirmaydi. Aksincha, agar undan to'g'ri foydalanilsa, uning unumдорligi oshib boradi.

Yerning hosil berish qobiliyatiga tuproq unumдорligi deyiladi. U tabiiy yoki iqtisodiy bo'lishi mumkin.

Renta munosabatlari. Yer rentasi va uning turlari

**Yerdan foydalanganlik
uchun uning egasiga
to'lanadigan haq renta
deb ataladi**

**Differensial
renta** - yer
uchastkalarining
unumдорligidagi
va joy lashigan
joyidagi farqlar
natijasida vujud-
ga keladigan
qo'shimcha sofdaromad

Absolyut renta -
qishloq xo'jaligida
yerga bo'lgan
xususiy mulkchi-
lik monopoliyasi
natijasida vujudga
kelib, hamma tur-
dagi: yaxshi, o'rta-
cha va yomen yer-
lardan olnadigan
renta.

Monopol renta -
alovida tabiy
sharoitga ega
bo'lgan, noyob
qishloq xo'jalik
mahsulotlari
yetishtiriladigan
yerdan olnadigan
renta.

**Undirma sa-
noatida renta** -
foydali kazilma
konlarining joy-
lashishi va ular-
ning boyligidagi
farklar natijasida
vujudga keladi.


Yer rentasining tarixiy shakllari:

- Barshina – yer egalariga ishlab berilgan.
- Obrok – yer egalariga mahsulot ko'rinishida to'langan.
- Pul rentasi – mahsulot sotilgandan keyin pul shaklida berilgan


Yerga bo'lgan talab va renta miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar:

- Yerlarning unumdorligi. Bir turdag'i ekinlar ekilganda unumdorligi yuqori bo'lgan yerkarda talab katta bo'ladi va bu rentaning ham yuqori bo'lishiha olib keladi.
- Foydalanishda bo'lgan yerkarda etishtiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining bozor narxi. Qaysi mahsulotning bozor narxlari yuqori bo'sa, shu ekin ekiladigan yerkarda renta ham yuqori bo'ladi.
- Birgalikda foydalaniladigan boshqa resurslarning narxlari va unumdorligi. Masalan, qishloq xo'jalik mashina va uskunalarining narxi hamda unumdorligi renta miqdoriga ta'sir ko'rsatadi.
- Yer maydonlarining shahar markazlari, bozorlar, yo'llar va suv manbalari joylashishming uzoq-yaqinligi;
- Yerlardan sanoat usulida, qurilish va boshqa maqsadlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- Yerkarda ekin turlarini joylashtirish imkoniyatlari darajasi.

Agrar ishlab chiqarishning asosiy



Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi. Agrosanoat integratsiyasi va uning shakllari



Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarishga xizmat qildigan tarmoqlarni, **ijtimoiy infratuzilma** odamlar turmush foltiyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalarni (uy-joy, madaniy-maishiy xizmat, savdo, umumiy ovqatlanish va hokazo) o'z ichiga oladi.

Agrosanoat integratsiyasi. ASM tashkil topishining negizi agrosanoat integratsiyasi qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste'molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rjasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir. Agrosanoat integratsiyasi barcha tarkibiy darajalarda, barcha bo'g'lnlarda mamlakat va mintaqalar ko'lamida, korxonalar, tumanlar darajasida mavjud.

Agrosanoat integratsiyasi ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, ijtimoiy mehnat taqsimotini, ixtisoslashuvni chuqurlashtirish natijasidir.

Tadbirkorlik faoliyatini qishloq xo'jalik sohalaridagi shakli agrobiznes ko'rinishida namoyon bo'ladi. Agrobiznes tushunchasiga qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi biznes turlari ham kiritiladi. Bu qishloq xo'jaligiga texnikaviy ta'mirlash xizmat ko'rsatish, uning mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Qisqacha qilib aytganda, agrobiznes agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlarmi qamrab oladi.

Agrobiznes faoliyatining maqsadi iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatlari qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xomashyo bilan uzlusiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Agrobiznesning asosiy shakli va birlamchi bo'g'ini fermer va dehqon xo'jaliklaridir. Chunki ular bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Bu xo'jahiklar o'z yerida yoki ijara olingen yerda ish yuritib, unda mulk egasi va ishlab chiqaruvchi fermerning o'zi va oila a'zolari hisoblanib, ayrim hollarda yollanma mehnatdan foydalanish ham mumkin. Fermer xo'jaligining afzalligi shundan iboratki, undan mulk va mehnat bevosita qo'shiladi, bu esa yuqora samarani ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy shartlaridan biri fermer xo'jaliklarini tashkil qilish va rivojlantirish hisoblanadi.

Agrobiznes turlaridan biri agrofirmalardir. Ular ma'lum turdag'i qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va uni pirovard mahsulot darajasigacha qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonalaridir. Agrofirmalar ham qishloq xo'jaligi, ham sanoatga xos resurslarni ishlatib, iste'molga tayyor bo'lgan mahsulot yaratadi. Mazkur turdag'i korxonalar turli mulkchilikka asoslanishi, chunonchi oilaviy xo'jalik asosida ham tashkil topib, kichik zavodlar bilan birikishi mumkin. **Agrosanoat birlashmalari va kombinatlari agrobiznesning yangi turlaridir.**

Agrosanoat birlashmalari bir turdag'i mahsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog'liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir necha xo'jalik hamda korxonalarini birlashtiradi.

Agrosanoat kombinatlari qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va iste’molchilarga yetkazib berishgacha barcha texnologik jaryonga xizmat qiluvchi xo‘jalik va korxonalarining ma’lum bir hududida birlashuvdir. Agrobiznes turiga **ko‘ngilli va psychilik mablag‘lari asosida tashkil qilingan turli xil uyushma va ittifoqlarni ham kiritish mumkin**. Qishloq xo‘jaligidagi davlat korxonalari, jamoa xo‘jaliklari va shirkatlari, turli xil mulkchilik asosida tashkil qilingan qo’shma korxonalar ham agrobiznes turlari sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Qishloqda turmush darajasini yuksaltirish va qishloqlarimiz qiyofasini o‘zgartirish chora-tadbirlari

O‘zbekiston aholisining 50 foizi qishloq joylarida yashaydi. Shuning uchun mamlakatimizni kelajakda gullab-yashnashi, aholining turmush darajasini yuksaltirish ko‘p jihatdan qishloqlarimiz taraqqiyoti bilan bog‘liqidir. Qishloqlarimizda hayot sifatini yaxshilash va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari samaradorligini oshirishga yangi ruh bag‘ishlash maqsadida 2009-yilni hurmatli Prezidentuniz «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e’lon qildilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi PQ-1046-qaroriga ko‘ra 2009-yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» munosabati bilan qishloqlarni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan Davlat dasturi ishlab chiqildi.

Davlat dasturi tarkibi

Me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish

Qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmani rivojlantirish

Elektr energiyasi bilan ta’minlovchi mavjud korxonalarini rekonstruksiya qilish

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish

Qishloqlarda sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash

O‘zbekistonda xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha ekin maydonlari tuzilmasining o‘zgarishi (2000–2010-yillarda, foizda)

| | 2000 | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 | 2009 | 2010 | 2011 | 2012 |
|------------------------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| Jami | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Qishloq xo‘jaligi korxonalar | 72,7 | 68,6 | 60,6 | 51,9 | 40,6 | 29,2 | 13,0 | 2,9 | 2,7 | 2,3 | 2,5 | 2,1 | 2 |
| Dehqon xo‘jaliklari | 10,6 | 11,2 | 11,4 | 11,1 | 11,7 | 12,1 | 12,5 | 12,9 | 12,9 | 13,1 | 12,7 | 12,9 | 13 |
| Fermer xo‘jaliklari | 16,7 | 20,2 | 28,0 | 37,0 | 47,7 | 58,7 | 74,7 | 84,3 | 84,4 | 84,6 | 84,8 | 85 | 85,1 |

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2000–2010-yillar davomida qishloq xo‘jaligi korxonalarining umumiylar ekin maydonlaridagi ulushi sezilarli darajada o‘zgargan. Masalan, ushbu ko‘rsatkich 2000-yilda 72,7 %ni tashkil etgani holda, 2010-yilda 2,5 %ga teng bo‘ldi. Tahlil etilayotgan davrda dehqon va fermer xo‘jaliklarining ekin maydonlaridagi ulushi sezilarli darajada o‘sdi. Agar, 2000-yilda umumiylar ekin maydonlarida fermer xo‘jaliklarining ulushi atiga 16,7 %ga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2010-yilga kelib, ushbu ko‘rsatkich qariyb besh baravarga ko‘payib, 84,8 % tashkil qildi.

Qishloq xo‘jaligi rivojlanishida asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, foizda

| Ko‘rsatkichlar | 2000-y. | 2010-y. | 2011-y. | 2012-y. |
|---|---------|---------|---------|---------|
| Qishloq xo‘jaligining YalMdagi ulushi | 30,1 | 17,5 | 17,6 | 17,5 |
| Qishloq xo‘jaligida dehqonchilik mahsulotlarning ulushi | 50,2 | 59,4 | 57,7 | 58,1 |
| Qishloq xo‘jaligidagi chorvachilik mahsulotlarning ulushi | 49,8 | 40,6 | 42,2 | 41,9 |
| Iqtisodiyotdagi jami investitsiyalarning umumiylar hajmida qishloq xo‘jaligining ulushi | 5,7 | 3,5 | 3,7 | 4,1 |

2012-yilda mamlakat jami yalpi ichki mahsulotining 17,5 %i qishloq xo‘jaligida yaratilgan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligida dehqonchilik mahsulotlarning ulushi 58,1 %ga yetdi, qishloq xo‘jaligidagi chorvachilik mahsulotlarning ulushi 41,9 % ko‘rsatgichga ega bo‘lib, iqtisodiyotdagi jami investitsiyalarning umumiylar hajmida qishloq xo‘jaligining ulushi 4,1 %ini tashkil etdi.

Respublikada yerlarni meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha 2008–2012-yillarda tizimni tubdan takomillashtirish uchun dasturlar ishlab chiqildi:

- magistral va xo'jaliklararo zovurlar, meliorativ tik quduqlarni, meliorativ nasos stantsiyalarini qurish va qayta tiklash, yopiq-yotiq drenajlarni tiklash;


- xo'jaliklararo zovurlar tizimlaridagi obyektlarni tizimli ravishda ta'mirlash va tiklash loyihalari asosida nasos stantsiyalarini, gidrotexnik va suv o'tkazuvchi inshootlarni va boshqa meliorativ obyektlarni ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish;

- sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash bilan shug'ullanuvchi suv xo'jaligi qurilish va foydalanish tashkilotlari, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari va fermer xo'jaliklarni moddiy-tehnika bazasini oshirish maqsadida melioratsiya texnikasi va asbob-uskunalari xarid qilish belgilangan.

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha ishlarning daslabki qiymati 2008–2012-yillar uchun **604,2 mlrd so'm mablag'** yo'naltirish belgilangan. 2009-yilda Respublika bo'yicha sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi hisobidan **105 ta melioratsiya obyekti**da jami **821,8 km uzunlikdagi kollektorlar, drenaj tarmoqlarini** rekonstruksiya qilish va qurish ishlari bajarilib, **54,6 mlrd so'm o'zlashtirildi**.

Maxsus ishlab chiqilgan keng ko'lamli dasturni izchil amalga oshirish hisobidan yerlarning meliorativ holati mutassil yaxshilanmoqda. **Faqatgina 2010-yilning o'zida yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun 150 milliard so'mdan ortiq mablag'** yo'naltirildi va bu 724 kilometrlik kollektor-drenaj tarmoqlari. 208 ta meliorativ quduqlarni barpo etish va rekonstruksiya qilish, qariyb 14 ming kilometrik kollektor-drenaj tizimini ta'mirlash, qayta tiklash va 335 ta zamonaviy melioratsiya texnikasini xarid qilish imkonini beradi. Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari, shuningdek, Markaziy Farg'ona hududi va Qoraqalpog'ston Respublikasida irrigatsiya hamda melioratsiya inshootlarini qayta tiklash uchun **2010-yilda xalqaro moliya institutlarining 62 milion dollardan ziyod mablag'lari** jalb qilinda va o'zlashtirildi. Amalga oshirilgan ana shunday keng miqyosdagi ishlar natijasida 260 ming hektar sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilandi va bu qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini, fermer va dehqon xo'jaliklarining daromadini oshirish uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda. Agrar sohada iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va qishloqda fermer xo'jaliklarni barqaror rivojlantirish uchun Respublikamizda 2009-yilda jami 103,1 mingta fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, **2010-yilda bu ko'rsatkich 60 ming 134 ta ni tashkil etgan**.


Qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari



Aholi jon boshiga asosiy turdag'i qishloq ho'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, kg


| Mahsulotlar turi | 1991-yil | 2012-yil | 2012-yil 1991-yilga nisb., % |
|------------------|----------|----------|------------------------------|
| Meva | 24,0 | 69,4 | 289,2 |
| Uzum | 24,0 | 40,8 | 170,0 |
| Sabzavot | 138,6 | 262,8 | 189,6 |
| Kartoshka | 15,1 | 69,6 | 460,9 |
| Poliz | 39,0 | 48 | 123,1 |

Davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla etishtiruvchi qishloq xo'jalik korxonalariga ajratilgan imtiyozli kreditlar, mln so'm



Paxta va g`alla etishtirish uchun 2012-yilda ajratilgan kredit jami: 1702 mlrd so`mni tashkil etib shundan paxtaga – 1333 mlrd so`m. g`allaga – 369 mlrd so`m yo`naltirildi.

Davlat ehtiyojlari uchun paxta va g`alla etishtiruvchi qishloq xo`jalik korxonalariga ajratilgan imtiyozli kreditlar, mln so`m



9-mavzu. MILLIY IQTISODIYOT, UNING MAKROIQTISODIY O'LCHAMLARI VA IQTISODIY O'SISH

Reja:

1. Milliy iqtisodiyotning mazmuni va makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.
2. Milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi.
3. Iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va omillari.
4. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi.

Milliy iqtisodiyotning mazmuni va makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

Milliy iqtisodiyot yangi sifat va o'sishga moyil bo'lgan barcha ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalarni, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga qamrab olgan yaxlit iqtisodiyotdir.

Makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarini bir butun qilib olingan milliy iqtisodiyotdir.

Milliy xo'jalikning tarkib topgan tuzilishi ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojining natijasi hisoblanadi.

Makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarini bir butun qilib olingan milliy iqtisodiyotdir.

Milliy xo'jalikning tarkib topgan tuzilishi ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojining natijasi hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmi bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali, **mikro va makroiqtisodiy darajada aniqlanib, tahlil qilinadi**. Bu ko'rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyatiga baho beriladi va milliy iqtisodiyotning rivojanish tamoyillari aniqlanadi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi

- yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad va ularning o'zgarishi;
- aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad va ularning o'zgarishi;
- ishsizlik, inflyatsiya va bandlik darajasi;
- iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar darajasi;
- nominal va real ish haqi hamda daromadlar darajasi;
- davlat budjeti va uning holati (taqchilligi);
- narxlar darajasi va uning o'zgarishi (indeksi);
- savdo aylanmasi va to'lov balansi holati;
- mamlakat milliy boyligi, uning tarkibi va o'zgarishi.

Makroiqtisodiy modellar – iqtisodiyot va unda ro'y beradigan real voqe-larning mantiqiy (nazariy), miqdoriy (matematik) va grafik o'lehamlarda abstrakt tasvirlanishidir.

Makroiqtisodiy modellar:

- ◆ doiraviy oqimlar (aylanishlar) modeli;
- ◆ yalpi talab va yalpi taklif (AD-AS) modeli;
- ◆ tovarlar miqdori va pul massasi ($MV=PQ$);
- ◆ Fillips, Laffer egrisi chiziqlari.

Bozor xo'jalik subyektlarini quyidagicha tasniflash qabul qilingan:

1. Nomoliyaviy korxonalar yoki ishlab chiqarish shakllari.
2. Uy xo'jaliklari.
3. Davlat ma'muriy tashkilotlari.
4. Mazkur mamlakat chegarasidan tashqaridagi xo'jalik subyektlari.

Milliy hisoblar tizimi (MHT) ikki tomonlama yozuv qoidasiga asoslangan balanslashgan jadvallar to'plami bo'lib, unda makrodarajadagi bir iqtisodiy bitim natijalari ham xarajatlar va ham daromadlar sifatida aks etadi.

MHT BMTning statistika komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlarni o'z ichiga olib, ular standart hisoblar va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan iboratdir.

MHTning bosh ko'rsatkichi **1993-yilgacha – YaMM** bo'lib, uning barcha bosqichlaridagi harakati bo'yicha ma'lumotlar MHT orqali hisobga olingan.

1993-yildan boshlab, Milliy hisoblar tizimining markaziy ko'rsatkichi – yalpi ichki mahsulot (**YaIM**) bo'lib, yalpi milliy mahsulot uning ikkinchi makroiqtisodiy ko'rsatkichidir. Boshqa tomondan, yalpi ichki mahsulot yalpi milliy mahsulotning ma'lum modifikatsiyasıdır.

MHT g'oyasining vujudga kelishi, ishlab chiqilishi va amalga oshirilish bosqichlari.

- Milliy hisoblarning dastlabki uslubiy asoslari F.Kene tomonidan ijtimoiy takror ishlab chiqarishning natural va qiymat ko'rsatkichlari o'rtaсидagi nisbatlar nuqtayı nazaridan ilgari surilgan

- MHTning nazariy asoslarini yaratish va uni ishlab chiqishga J.Keyns, A.Bouli, J.Klark, S.Kuznets, R.Stoun, R.Frish kabi iqtisodchilar katta hissa qo'shgan.

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining statistika byurosi «Milliy daromadni aniqlash va Milliy hisobni tashkil qilish» to'g'risidagi ma'rurasini e'lon qilgan (1947-y.) hamda shu asosda R.Stoun rahbarligida rivojlangan mamlakatlar ta'jribasi hisobga olinib MHT ishlab chiqilgan.

- Milliy hisoblar standart tizimi BMT statistika komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, 1953-yildan boshlab qo'llamila boshlagan.

• 1968-yilda MHTning ancha takomillashgan andozasi kiritilgan. Unda xarajatlar va ishlab chiqarish jadvali, moliyaviy hisobot, bozor va nobozor sektorlar ajratib ko'rsatilgan.

• 1993-yilda BMT MHTning takomillashgan yangi standartini tasdiqlagan. Unda iqtisodiyot sektorlari, standart hisoblar va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning nomlanishi birmuncha o'zgartirilgan.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) – milliy xo'jalikda bir yil davomida vujudga keltirilgan pirovard mahsulot va xizmatlar bozor qiymatidan iborat bo'ladi.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – bir yil davomida mamlakatda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard mahsulotlar va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymati.

Butun xalq xo'jaligi ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan tarmoqlardan iborat bo'lganligi sababli **jami ijtimoiy mahsulot (JIM)**ning ashyoviy (natural buyum) tarkibi ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlaridan iborat bo'ladi. JIMning **ishlab chiqarish vositalaridan iborat qismi** (mashina, uskuna va shu kabilar) ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalilanildi va demak, bilvosita iste'moini qondiradi, **iste'mol buyumlari** (oziq-ovqat, kiyim-kechak va shu kabilar) esa ulardan farq qilib, bevosita ehtiyojlarni qondirish uchun ishlatiladi.

Qiymat shaklida JIM – iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati (S) va yangidan yaratilgan qiymatidan (V+m) iborat bo'ladi.

JIMni W bilan belgilasak, bunda **W=c+V+m** bo'ladi.

Yangidan yaratilgan qiymat zaruriy mahsulot yoki ishchi kuchi qiymatidan (V) va qo'shimcha mahsulotdan (m) iborat bo'ladi.

Boshqacha aytganda: **JIM=oraliq mahsulot+pirovard mahsulot**

Oraliq mahsulotga ishlov berish, qayta ishlash va sotish maqsadlari uchun xarid qilingan tovarlar kiradi.

Pirovard mahsulot iste'molchilar tomonidan foydalaniш uchun sotib olinadigan tayyor tovarlar va xizmatlardan iborat bo'ladi.

Sof milliy mahsulot – bu yalpi ijtimoiy mahsulotning bir qismi bo'lib, o'zida moddiy ishlab chiqarish sohalarida yil davomida yangidan vujudga keltirilgan qiymatini ifodalaydi.

Milliy daromad = pirovard mahsulot – amortizatsiya

yoki **W-C=V+m**

Butun milliy iqtisodiyotining holatini xarakterlovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich – **yalpi milliy mahsulot YaMM hisoblanadi.**

Qo'shilgan qiymat – bu korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan yetkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan xomashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.

Boshqacha aytganda qo'shilgan qiymat – bu korxona yalpi mahsulotidan yoki ishlab chiqargan mahsulotining bozor narxidan jony moddiy xaratlar chiqarib tashlangan miqdoriga teng.

YaMMdan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan kapital qiymati yoki yillik amortizatsiya summasi ayirib tashlansa **sof milliy mahsulot (SMM) ko'rsatkichi hosil bo'ladi.**

YaMM – amortizatsiya yillik summasi = SMM

SMM qiyatiga davlat tomonidan o'rnatiladigan egri soliqlar summasi kiradi. Egri soliqlar korxona tomonidan o'rnatiladigan bahoga qo'shimcha hisoblanadi. Bunday soliqlar iste'molchi zimmasiga tushadi va uning hisobiga o'zlarining daromadini bir qismini yo'qotadi. SMMdan egri soliqlar chiqarib tashlansa, **milliy daromad (MD) ko'rsatkichi hosil bo'ladi.**

SMM – biznesga egri = milliy daromad.

Milliy daromad milliy xo'jalikda bir yil davomida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymat bo'lib, natural shaklda iste'mol buyumlari, ishlab chiqarishni kengaytirishga mo'ljallangan ishlab chiqarish vositalarining bir qismidan iboratdir.

YaMM (YalM) uch xil usul bilan hisoblanishi mumkin:

| Birinchi usul: YaMMni hisob lashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv | Ikkinci usul: YaMMni hisoblashga surf-xarajatlар bo'yicha yondashuv | Uchinchi usul: YaMMni daromadlar bo'yicha hisoblash |
|--|---|---|
| <p>Qo'shilgan qiymat – bu ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymati bilan sotib olingan xomashyo, materiallar, ya'ni oraliq mahsulot qiymati o'rtaqidagi farq. Bu holda YaMM qiymati barcha ishlab chiqaruvchilar qo'shilgan qiymatlari yig'indisi sifatida ifodalanadi.</p> <p>YaMM = S + I + G + Xn S – uy xo'jaligi iste'mol xarajatlari = kundalik ehtiyoj xarajatlari + uzoq muddat foydalanadigan tovarlar uchun xarajatlari + turli xizmatlar uchun xarajatlari.</p> <p>I – yalpi xususiy ichki investitsiyalar = tadbirkor tomonidan sotib olingan mashina, asbob-uskuna va shunga o'xshashlar + hamma qurilish + zaxiralar ko'payishi.</p> <p>G – davlatning tovar va xizmatlar uchun xarajatlari = davlatning hamma xarajatlari – transfert to'lovlari (pensiya, nafaqa kabi sotsial to'lovlari).</p> <p>Xn – sof eksport = eksport – import.</p> | <p>YaMM = S + I + G + Xn S – uy xo'jaligi iste'mol xarajatlari = kundalik ehtiyoj xarajatlari + uzoq muddat foydalanadigan tovarlar uchun xarajatlari + turli xizmatlar uchun xarajatlari.</p> <p>I – yalpi xususiy ichki investitsiyalar = tadbirkor tomonidan sotib olingan mashina, asbob-uskuna va shunga o'xshashlar + hamma qurilish + zaxiralar ko'payishi.</p> <p>G – davlatning tovar va xizmatlar uchun xarajatlari = davlatning hamma xarajatlari – transfert to'lovlari (pensiya, nafaqa kabi sotsial to'lovlari).</p> <p>Xn – sof eksport = eksport – import.</p> | <p>YaMM = A+T+I+r+R+G A – iste'mol qilingan kapital hajmi yoki amortizatsiya. T – biznesga solinadigan egrisoliqlar: sotishdan olingan soliq, aksizlar, mulkka soliqlar, litsenziya to'lovlari va bojxona bojlari. I – ishchilarining ish haqi: ish haqi va unga qo'shimchalar, ijtimoiy sug'urta, pensiya, bandlik va boshqa ijtimoiy fondlarga ajratmalar. r – ijara haqi – iqtisodiy mulk resurslari bilan ta'minlovchi uy xo'jaliklarining daromadlari. R – foiz stavkalari yoki foiz daromadlari – pul kapitalini etkazib beruvchilarga xususiy biznes daromadidan olinadigan pul to'lovlari. G – mulkdan keladigan daromad yoki foya – mulk egalarining daromadlari va korporatsiyalarning olgan foydalari (TR) dan iborat.</p> |

Milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi

Yaxlit olingan milliy iqtisodiyot miqyosida yangidan vujudga keltirilgan qiymat, ya'ni **milliy daromad iste'mol va iqtisodiy jamg'arish maqsadlarida ishlataladi**.

Iste'mol – bu keng ma'noda jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarishning pirovard natijalari, iqtisodiy resurslar va ishchi kuchidan foydalanish jarayonini bildiradi.

Iste'mol turlari (iqtisodiy mazmuni va xarakteriga ko'ra)

Shaxsiy iste'mol: iste'mol ne'matlari (tovarlar va xizmatlar) dan foydalanan yoki ularning bevosita iste'mol qilinish jarayonidir.

Unumli iste'mol: iqtisodiy resurslar ya'ni ishlab chiqarish vositalari va inson ishchi kuchidan iqtisodiy faoliyatda foydalanishni anglatadi.

Ijtimoiy iste'mol: jamiyat a'zolarining guruhlari ijtimoiy iste'mol xususiyatiga ega bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlarni jamoa bo'lib iste'mol qilishni bildiradi.

O'zbekistonda aholi real pul daromadlari, iste'moli va jamg'armalarining o'zgarishi (% hisobida)

| Ko'rsat-kichlar | Yillar | | | | | | | | | | |
|----------------------|--------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 | 2009 | 2010 | 2011 | 2012 |
| Real pul daromadlari | 113,0 | 113,3 | 115,8 | 118,8 | 122,5 | 122,8 | 125,1 | 126,5 | 123,5 | 123,1 | 117,5 |
| Iste'mol sarflari | 141,6 | 116,9 | 114,9 | 122,4 | 134,2 | 130,0 | 136,1 | 135,2 | 134,8 | 131,6 | 130,5 |
| Jamg'armalari | 55,0 | 118,2 | 183,3 | 128,8 | 133,8 | 135,7 | 127,2 | 126,3 | 128,6 | 129,6 | 133,0 |

Jamg'armani amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadlar

- foiz shaklida daromad olish;
- uzoq muddat foydalilaniladigan qimmatbaho iste'mol tovarlari (uy-joylar, avtomashina va boshqa zebu ziynat buyumlari) sotib olish;
- kasallik, ishsizlik va baxtsiz hodisalar kabi oldindan bilib bo'lmaydigan holatlardan iqtisodiy himoyalanish;
- qarilik davrini moddiy ta'minlash;
- farzandlarining kelajagini ta'minlash;
- keljakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarni qondirish

Iste'mol va jamg'arma darajasini belgilab beruvchi omillar

- shaxsiy daromad;
- uy xo'jaliklari jamg'argan boylik;
- narxlar darajasi;
- narxlar, daromadlar va tovarlar taklifi o'zgarishi kutilishi;
- iste'molchi qarzlarini miqdori;
- soliqlar darajasi.

Iqtisodiy jamg'arish milliy daromad (foyda) bir qismining ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida sarflanish jarayonini anglatadi.

Iqtisodiy jamg'arishning amalga oshiriladigan shakli – bu kapital qo'yilmalar yoki investitsion sarflardir.

Iqtisodiy jamg'arish va investitsion sarflar bir xil mazmunga ega bolsa-da, ular miqdor jihatidan, manbalari bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Iqtisodiy jamg'arish darajasini belgilovchi omillar:

- milliy daromad (foyda) miqdori;
- milliy daromadning iste'mol va jamg'arishga ajralish nisbati;
- qo'llaniladigan resurslar miqdori va unumдорligi;
- mavjud texnologiya (resurs sarfli yoki resurs tejamlı)

Iste'mol va jamg'arma bo'yicha aniqlanadigan ko'rsatkichlar:

Investitsiya – bu kelajakdagi natija uchun ishlab chiqarishni kengaytirish yoki rekonstruksiya qilish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga mo'ljalangan moliyaviy resurslardir.

Investitsion faoliyat – investitsiyalarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan amaliy harakatlardir.

Investor – investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs (jismoniy yoki huquqiy)

Investitsiyalarning manbalari:

- ◆ investorlarning o'z moliyaviy resurslari (foyda, amortizatsiya ajratmasi mablag'lari, pul jamg'armalari va h.k.);
- ◆ qarz olingan mablag'lar (bank kreditlari, obligatsiya, zayomlar);
- ◆ jalb qilingan mablag'lar (aksiyalarni sotishdan olingan mablag'lar, payto'lovlari),
- ◆ budjet mablag'lari;
- ◆ investitsiyalarning tashqi manbalari (chet el investitsiyalari va kreditlari),

Investitsiyalar darajasini belgilovchi omillar:

- kutilayotgan foyda normasi;
- real foiz stavkasi;
- asosiy kapitallarni xarid qilish, ishlatilish va ularga xizmat ko'rsatish xaratlari;
- asosiy kapitallarning mavjud hajmi;
- soliqlar miqdori;
- ishlab chiqarish texnologiyasi;
- bozor konyunkturasidagi ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar.

Investitsiyalarning o'zgaruvchanligini belgilab beruvchi omillar:

- investitsion tovarlar (asosiy kapital)ning noaniq xizmat muddatiga ega bo'lishi;
- innovatsiyalar, texnika va texnologiyalar sohasidagi ancha katta kashfiyotlar doimiy paydo bo'lib turmasligi;
- iqtisodiyot tsiklli rivojlanish tamoyiliga ega bo'lishi;
- tadbirkorlar oladigan foyda doimiy barqaror emasligi;
- ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlar (siyosiy vaziyat, davlat iqtisodiy siyosatidagi o'zgarishlar va h.k.).

Iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va omillari

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli, uning mezonlaridan, biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, u yopiq doira bo'yicha emas, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha harakatdir. U o'z ifodasmi real YaMM (YaIM)ning ham mutlaq hajmida va aholi jon boshiga ko'payishida topadi.

Mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillarining o'zgarishi o'rtafiga nisbatan iqtisodiy taraqqiyotning **ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi**.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqiyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillari sifat jihatidan takomillashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnika-texnologiya-ni qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirishi, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sharhl ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar iqtisodiyotning jismoniy o'sish layoqatini belgilab beradi, ular **taklif omillari, deb ham ataladi. Bu omillar quyidagilar:**

- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- 2) mehnat resurslari miqdori va sifati;
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi;
- 4) texnologiya va fan texnika taraqqiyoti.

Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillari

1. Band bo'lganlar soni.
2. Ishlagan kishi soatlarning o'rtacha miqdori.
Mehnat sarflari ishlagan soatlar.


1. Texnika taraqqiyoti, mehnat unumдорligi.
2. Kapital qo'yilmalar hajmi (o'rtacha soatlik bajarilgan ish).
3. Ta'lim va malaka tayyorgarlik.
4. Resurslarning joylashtirish samaradorligi.
5. Boshqa omillar.

Ishlab chiqarishning real hajmi

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi, taklif va taqsimlash omillari o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili

Yalpi ichki mahsulotning o'sish dinamikasi, foizda



Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalaridagi o'sish sur'atlari, foizda

| Ko'rsatkich | 2007-y. | 2008-y. | 2009-y. | 2010-y. | 2011-y | 2012-y. | 2013-y. |
|--|---------|---------|---------|---------|--------|---------|---------|
| Sanoat ishlab chiqarishi | 12,1 | 12,7 | 9,0 | 8,3 | 6,3 | 7,7 | 8,8 |
| Qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish | 6,1 | 4,5 | 5,7 | 6,8 | 6,6 | 7 | 6,8 |
| Chakana savdo aylanmasi | 21,0 | 7,2 | 16,6 | 14,7 | 16,4 | 13,9 | 14,8 |
| Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish | 20,6 | 21,3 | 12,9 | 13,4 | 16,1 | 14,3 | 13,5 |

Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi

Milliy boylik insoniyati jamiyati taraqqiyoti davomida avlodlar tomonidan yaratilgan va jamg'arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual boyliklar hamda tabiat inomlaridan iboratdir.

Milliy boylikning bir qismini inson mehnatining natijasi hisoblasak, boshqa qismi tabiat boyliklaridan iborat bo'ladi. **Milliy boylikni shartli ravishda quyidagi uchta yirik tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:**

1. Moddiy buyumlashgan boylik.
2. Nomoddiy boylik.
3. Tabiiy boylik.

Moddiy-buyumlashgan boylik:

- ◆ ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) sohalaridagi asosiy kapitallar;
- ◆ ijtimoiy iste'mol sohalaridagi asosiy kapitallar;
- ◆ aylanma kapitallar;
- ◆ tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy buyumlashgan qismi;
- ◆ moddiy zaxiralalar va ehtiyyotlar;
- ◆ aholining uy, tomorqa va yordamchi xo'jaligidagi mol-mulk;
- ◆ davlatning oltin zaxiralari, sug'urta va boshqa;
- ◆ ijtimoiy ehtiyojlar uchun zaxiralari.

Nomoddiy boylik:

- * tarixiy obidalar;
- * arxitektura yodgorliklari;
- * noyob adabiyot va san'at asarları.

Tabiiy boylik:

- * iqtisodiy faoliyatga jalb qilingan yer, yerosti va ustı boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar.

Moddiy buyumlashgan boylik o'sishining asosiy omillari sifatida quydagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mehnat unumdarligining o'sishi;
- ishlab chiqarish samaradorligining ortishi;
- milliy daromadda jamg'arish normasining ortishi.

Moddiy buyumlashgan boylik ishlab chiqarishning natijasi va shart-sharoiti hisoblanadi. Bunimg ma'nosi shuki. **bir tomonidan** mahsulotdan milliy boylik tomon harakatda boylikning iste'mol qilingan qismining qoplanishi va uning ko'payishi ro'y beradi. **Boshqa tomonidan** milliy boylik ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoiti, uning moddiy texnikaviy asosi hisoblanadi.

Moddiy buyumlashgan boylikni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish farqlansada, har ikkalasi ham yalpi milliy mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy boylikning boshqa qismi **tabiiy boyliklar** ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladi. Tabiiy boylikning vujudga kelishi insoniyat jamiyatiga bog'liq emas, u tabiat qonunlari asosida ro'y beradi. Foydali qazilma boyliklar o'rmonlar, suv va yer resurslari xuddi shunday vujudga kelib ishlab chiqarishdan tashqarida turadi.


10-mavzu. YALPI ISHCHI KUCHI, UNING BANDLIGI VA ISHSIZLIK

Reja:

1. Ishchi kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari.
2. Ishchi kuchi bozorida talab va taklifi ishsizlik va uning turlari.
3. Ishsizlikning iqtisodiy va sotsial oqibatlari.
4. O'zbekistonda bandlilik muomalasi va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash.

Ishchi kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari

Jamiyatning yalpi milliy mahsuloti hisobiga ishlab chiqarishning moddiy ashyoviy omilligiga emas, balki **shaxsiy omili – ishchi kuchi, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi ham takror hosil etiladi va sifat jihatdan ancha yuqori darajada takror yuzaga chiqariladi**. Ishchi kuchini takror hosil qilish insonning jismoniy kuchi va aqliy qobiliyatlarini uzlusiz qayta tiklab va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borib, umumiy bilim va kasbiy darajasi o'sishini ta'minlash demakdir.



Eng ustuvor vazifalardan biri – bu mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishdan iborat.

Aholining tabiiy harakatlanishi uni takror ishlab chiqarish xarakteri ko'pinga holatlar bilan mamlakatning industrial taraqqiyoti va urbanizatsiya darajasi ijtimoiy shart-sharoitlar, madaniyat va maishiy turmush an'analarini. aniq tarixiy omillar bilan belgilanadi.

Xalq xo'jaligining ehtiyojlari, odamlar bilimi va madaniyatining umumiy oshishi, ularning turmush sharoiti yaxshilanishi **ishchi kuchi sifatining o'sishiga olib keladi**.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish bilan to'la va samarali band bo'lish mexanizmining asosiy elementlari, odamlarni iqtisodiy rag'batlar yordamida ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish shakllarining xilma-xilligi va sharoitiga moslanuvchanligidan iboratdir.

Ishchi kuchi – bu insonning jismoniy va aqliy qobiliyatini bo'lib, mazkur qobiliyatni amalda ishlatalishi mehnat yoki ish deb ataladi.

Ishchi kuchining miqdoriy o'lchami bu – ishlay oladigan, ya'ni mehnatga layoqatli kishilardir – mehnat resurslari:

- 16 yoshdan 55 yoshgacha ayollar;
- 16 yoshdan 60 yoshgacha erkaklar;
- Mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagagi ishlovchilar (pensiyadagi ishlovchilar);
- Ishlovchi o'smirlar (16 yoshgacha bo'lgan yoshlar).

Ish kuchining sifat o'lchami – uning bilimi, malakasi, mahorati, ko'nikmasi va ish tajribasi kabi ko'rsatkichlarda mujassamlashgan.

Mehnat resurslari miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar:

- aholining tabiiy o'sishi;
- ishchi kuchi migratsiyasi.

Ishchi kuchi migratsiyasini keltirib chiqaruvchi sabablar:

- ish haqi darajasidagi farqlar;
- ishsizlikning mavjud bo'lishi;
- ijtimoiy, tarixiy shart-sharoitlar, milliy an'analar va udumlar



Ishchi kuchi bozorida talab va taklifi ishsizlik va uning turlari

Ishchi kuchi bozori iqtisodiy resurslar bozorining tarkibiy qismi hisoblanib, unda bozor subyektlarining yollanma mehnatga bo'lgan talabi uy xo'jaliklari tomonidan bildirilgan mehnat taklifi bilan muvofiqlashadi. Uy xo'jaliklari alohida fuqaro sifatida tadbirkorlarga o'zining unumli mehnatga layoqatini ma'lum haq to'lash sharti bilan tavsiya qiladi. Tadbirkorlar mehnatga talab bildiradi va ishlovchilarni yollab, o'zlarining foydasini maksimallashtiradi. Yollanma ishchilar ma'lum haq to'lash evaziga ishlashiga kelishadi, chunki ular uchun pul bilan taqdirlashnmg qimmati, qizlarining mehnat sarflari qimmatidan yuqori bo'ladi va shu orqali o'zi uchun naflilikni maksimallashtiradi. Ishchi kuchi bozorida o'zlarining nafini maksimallashtirishga intiluvchi iqtisodiy subyektlarning ikki turi tadbirkorlar va yollanma ishchilar harakat qiladi.

Qisqa muddati davrda ishchi kuchiga talab va taklif o'zgarib turganda ma'muriyatga alohida stavkalarni qarab chiqish foydali emas. Shu sababli qisqa muddatda ish haqi stavkasi amalda o'zgarmaydi va faqat uzoq muddatda ishchi kuchi bozoridagi umumiy tamoyillar ta'siri ostida qarab chiqiladi. Bunda kasaba uyushmalari katta rol o'yndi. Ular asosan ikki yo'l bilan ish haqini oshirishga harakat qiladi: – **tarmoq-mahsulotlariga talabni oshirish va mehnat taklifini kamaytirish importga cheklashlar o'rnatish uchun, mamlakatga chet el ish-chilarning emigratsiyasiga qarshi chiqishlar, ishchilarga malaka litsenziyalari berish maqsadida davlatga ta'sir ko'rsatish.** Shunday qilib, kasaba uyushmalarning tadbirdorlariga ta'sir ko'rsatish natijasida, ishchi kuchi bozorida mehnat stavkasi, odatda, muvozanatli darajadan yuqori o'matiladi, natijada **bozor iqtisodiyoti har doim ishsizlikni keltirib chiqaradi**

Ish bilan to'la bandlik mehnatga layoqatli bo'lgan va ishslashni xohlagan barcha kishilarning ish bilan ta'minlanishi ga aytildi. Shuningdek, ish bilan to'la bandlik bir tomondan iqtisodiyotda ishsizlikning tabiiy darajasi mavjud bo'lishini inkor etmaydi, boshqa tomondan, bu mehnatga layoqatli barcha kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilishi zarurligini bildirmaydi.

Ish bilan samarali bandlik, xo-dimlarning o'z mehnati natijalaridan to'liq iqtisodiy manfaatdorligining ta'minlanishi zarurligini anglatadi. Bu o'z navbatida, mehnat resurslarining oqilona band qilinishini va ulardan foydalanishning intensiv turiga tayanishni taqozo qiladi.

Ko'p mamlakatlarda qabul qilingan qonunlarga ko'ra **ishsizlik**, deb mehnatga layoqatli bo'lib, ish topa olmay, mehnat birjalaridan ro'yxatdan o'tgan kishilarga aytildi.

Ishchi kuchi taklifining ishchi kuchiga bo'lgan talabdan ortib ketishi, ya'ni faol aholining ma'lum bir qismi ish bilan ta'minlanmaslik – **ishsizlizlik** deyiladi. Ish topa olmaslikning sabablari turlituman bo'ladi.

foizlardagi nisbati sifatida hisoblab chiqiladigan me'yor bilan tavsiflanadi.

$$ID = I / IK * 100 \%$$

Ishsizlikning turlari:

Friksion ishsizlik ish joyini uzgartirgan, yangi yashash joyga ko'chib o'tish va ishdan bo'shashni munosabati bilan ish izlayotgan, vaqtinchalik mavsumiy ishni yo'qotgan kishilar kiradi.

Siklik ishsizlik ishsizlikning ancha og'ir turi hisoblanadi. Siklik ishsizlik, deganda tanazzul, ya'ni iqtisodiy siklning umumiy yoki yalpi sarflar yetishmasligi bilan xarakterlanuvchi fazasi keltirib chiqaradigan ishsizlik tushuniladi.

Ixtiyoriy ishsizlik tabiiy ishsizlik turi bo'lib, bunda mehnatga layoqatli kishilarning mehnat faoliyatidan o'z xohishi bo'yicha chetlashgan, yalpi ishlashni xohlarnaydigan qismi tushuniladi.

Instituttsional ishsizlik ham tabiiy ishsizlikning navbatdag'i turi hisoblanadi. Ishsizlik bu turini mehnat bozori infrastukturasi amal qilishi hamda shu bozorda talab va taklifni o'zgartiruvchi omillar keltirib chiqaradi.

Tarkibiy ishsizlik bilan birga texnologik va regional ishsizlik majburiy ishsizlik turlari hisoblanadi.

Texnologik ishsizlik ishlab chiqarishning amal qilishida texnologik usullar bir-birining o'rniغا kirib kelishi bilan birga boradi. Ularning ichida asosiy-lari mexanizatsiya, avtomatik bo'yicha nafaqa olish huquqidан mahrum bo'lgan va faol mehnat faoliyatiga hech qanday qiziqishi bo'lмаган qismini qamrab oladi.

Hududiy ishsizlik: hududiy, tarixiy, demografik, madaniy, milliy va ijtimoiy-ruhiy omillar bilan bog'liq holda mavjud bo'ladi.

Yashirin ishsizlik: faol aholining ish kuni yoki ish haftasi davomida to'liq band bo'lмаган qismi

Turg'un ishsizlik: mehnatga layoqatli aholining ish joyini yo'qotgan ishsizlik nafaqasini olishdan mahrum bo'lgan va mehnat faoliyatiga hech qanday qiziqishi bo'lмаган qismi.

Iqtisodiy siklning mazmuni va kelib chiqish sabablari

Iqtisodiy sikk – ishlab chiqarish hajmi, bandlilik va inflyatsiya darajasidagi davriy tebranishlardir.

Sikk davomiyligi bo'yicha bir inqirozdan ikkinchi inqiroz boshlanguncha o'tgan davrdan iborat bo'ladi.

Siklni keltirib chiqaruvchi sabablar

- takror ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklar;
- talab va taklif o'rtasidagi nomutanosibliklar;
- yalpi sarflar darajasining o'zgarishi (o'z navbatida bu sarflar hajmini ishlab chiqarish va bandlik darajasi belgilab beradi);
 - investitsiyalar hajmining davriy kamayishi;
 - pul massasi hajmining tebranishi;
 - asosiy kapitalning yangilanishi;
 - multiplikator samarasining kuchsizlanishi va boshqalar.

Iqtisodiy siklning kelib chiqishini faqat tashqi yoki faqat ichki omillarga bog'lovchi qarashlar mavjud bo'lib, ular fonda **eksternal** va **internal** nazariyalari, deb nomланади.

Eksternal nazariyada tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvchi va iqtisodiy hodisalarning davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi.

Ularning asosiylari quyidagilar:

- urushlar, inqilobiy o'zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar;
- oltin, uran, neft va boshqa qimmatli resurslar yirik konlarning ochilishi;
- yangi hududlarning ochilishi va u bilan bog'liq ravishda aholi migratsiyasi hamda Yer shari aholisi sonining o'zgarib turishi;
- ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalardagi qudratli o'zgarishlar.

Internal nazariya tsiklli rivojlanishga iqtisodiy tizimning o'ziga xos ichki omillari sabab, deb hisoblaydi.

Bu omillar quyidagilar:

- ◆ asosiy kapitalning jismoniy xizmat muddati;
- ◆ shaxsiy iste'molning o'zgarishi;
- ◆ ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish o'rinalrini vujudga keltirishga yo'naltiriladigan investitsion mablag'lar hajmi;
- ◆ ishlab chiqarish va talab hajmiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davaltning iqtisodiy siyosati.

Uchinchi guruh iqtisodchilar iqtisodiyotning siklli rivojlanishiga sof ichki yoki tashqi omillarni emas, balki ularning har ikkisining turlicha kombinatsiyalashgan variantlari ta'sir qilishini ko'rsatishadi.

Sikl to'g'risidagi nazariyalar. Iqtisodiy inqirozning iqtisodiy faollikka ta'siri

Sikl to'g'risidagi nazariyalar

Kitchin sikli (2–4 yil) zaxiralar sikli, deb nomlanadi. Bu sikl iste'mol tovarlariga bo'lgan bozor talabi va taklifi muvozanatining buzilishi va tiklanishi tarzida yuz beradi. J. Kitchin bu siklni zaxiralar, bank kliringi (ing. Clearing – naqd pulsiz hisob-kitob tizimi) va ulgurji narxlar o'zgarishining yalpi milliy mahsulot o'zgarishiga olib kelishi bilan bog'laydi. Kitchin iqtisodiyotdagi 2–4 yildagi sikl o'zgarishini moliyaviy hisobotlar va sotish narxining o'zgarishi asosida aniqlagan.

Juglyar sikli (biznes sikl, sanoat sikli, o'rtacha sikl va katta sikl deb ham nomlanadi (7–11 yil). Bu sikl Fransiya, Angliya va AQShda foiz stavkalarini va narxdagi tebranishlarning asosiy sabablarini tahlil qilish asosida sanoat siklining tabiatini o'rganishga katta hissa qo'shgan K. Juglyar (1819–1905-y.) nomi bilan ataladi.

Bu sikl qisqa muddatli tsikldan faqat muddati bilan emas, namoyon bo'lishi, xarakteri bilan ham farq qiladi. U faqat milliy iqtisodiyotning emas, jahon iqtisodiyoti dinamikasini ham ifodalaydi. Uning alohida qismlari siklning fazalari tarzida ajratiladi.

Kuznets sikli – («qurilish sikli» deb ham nomlanadi). S.Kuznets milliy daromad, iste'mol sarflari va ishlab chiqarish maqsadidagi yalpi investitsiya larda 20 yillik davrda o'zaro bog'liq tebranishlar mavjud bo'lishini aniqlagan

Kondratyev sikli («uzoq to'lqinlar» sikli deb ham nomlanadi). Rus olimi N.D Kondratyev Angliya, Fransiya va AQShning 100–150 yildagi rivojlanishidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'rtacha darajasini umumlashtirib, bir qator katta sikllarni ajratib ko'rsatadi.

U o'z tadqiqtini tovar narxlar, protsent stavkasi, renta, ish haqi, eng zarur mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi o'zgarishi asosida olib bordi. U bir uzun to'lqinning boshqasi bilan almashuvimi ishlab chiqarishni bir texnologik usuldan ikkinchisiga o'tishi, ish kuchining sifat jihatdan o'zgarishi, ta'limning o'zgarishi, tashkiliy iqtisodiy munosabatlarda tub o'zgarishlar, boshqarishda tarkibiy revolyutsiya yuz berishi bilan izohlaydi.

Katta sikl iqtisodiyotda tub burilish yuz berishi, fan-texnikadagi buyuk kashfiyotlarning ishlab chiqarishga joriy etilishi natijasida mutlaqo yangi texnologiyalarning kiritilishi bilan ajralib turadi.

Kondratyev siklining davomiyligi o'rtacha 40–60 yilni tashkil qiladi. Katta sikllarning tebranish davri

1-to'lqin 1772–1783-yillardagi depressiyadan 1812–1825-yildagi beqarorlikkacha;

2-to'lqin 1825–1838-yillardagi depressiyadan 1866–1873-yillardagi beqarorlikkacha;

3-to'lqin 1873–1885 yillardagi depressiyadan 1913–1929-yillardagi beqarorlikkacha;

4-to'lqin 1929–1938-yillardagi depressiyadan 1966–1974-yillardagi beqarorlikkacha;

5-to'lqin 1974–1982-yillardagi depressiyadan boshlangan. Iqtisodchilarning fikricha, 2010-yillargacha davom etishi va 2010–2015-yillardan yangi 6-to'lqin boshlanishi mumkin, deb taxmin qilingan edi. U bir-muncha oldinroq 2008-yilda boshlandi.

Siklning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti hamda tarkibiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirishidir. Jumladan, u birinchi – katta siklning yuksalish fazasini Angliyadagi sanoat revolyutsiyasi, ikkinchisini – temir yo'l transportining rivojlanishi, uchinchisini – elektroenergiya, telefon va radioning kashf etilishi, to'rtinchisini avtomobil sanoatining rivojlanishi bilan bog'laydi.

Hozirgi zamon olimlari beshinchi – siklni elektronika, geninjenerligi, mikroprotsessorlar va boshqalarni rivojlanishi bilan bog'lashadi.

Iqtisodiy sikl fazalari

Inqiroz

Iqtisodiy faoliyning keskin pasayib ketishini anglatadi.

Turg'unlik

Iqtisodiy faoliy o'zining eng pastki darajasida turg'un bo'lib qoladi.

Jonlanish


Iqtisodiy faoliy turg'unlik holatidan chiqib, asta-sekin o'sish boshlanadi.

Yuksalish

Iqtisodiy faoliy inqirozdan oldingi darajadan ham yuqoriga ko'tariladi.

Iqtisodiy sikl va uning fazalari

Iqtisodiy faollik, YaIM



Iqtisodiy siklni farqlantiruvchi belgilar

- davomiyligi (qancha vaqt davom etishi)
- intensivligi (iqtisodiy faollikkagi o'zgarishlar jadalligi)

Iqtisodiy faollikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar

- ishlab chiqarish hajmi;
- bandlilik darajasi;
- ishsizlik darajasi;
- foiz stavkasi;
- valuta kurslari;
- pul massasi hajmi.

Ishlab chiqarish hajmi haqiqiy va potensial YaMM (YaIM) o'rtaida o'zgaradi. Potensial YaMM (YaIM) – resurslar to'liq band bo'lgandagi ishlab chiqarish hajmini ko'rsatadi. To'liq bandlilik ishlatalayotgan quvvatlar va ishsizlikning tabiiy darajada mavjud bo'lishini ko'zda tutadi.

Iqtisodiy inqirozlar oqibatida ancha yuqori darajada yo‘qotishga uch-raydigan tarmoqlar va aholi qatlamlari.

- ◆ ishlab chiqarish vositalari (investitsion tovarlar) ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari;
- ◆ qurilish (uy-joy va ishlab chiqarish obyektlari qurilishi);
- ◆ uzoq muddat foydalilaniladigan iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar;
- ◆ doimiy, bir xil miqdorda daromad oluvchi iste’molchilar.

Barcha ko’rsatkichlar mutlaq va nisbiy miqdorlarining o’zgarishi orqali aniqlanadi.

Iqtisodiy inqiroz oqibatlaridan kamroq yo‘qotishga uchraydigan tarmoqlar va aholi qatlamlari.

- kundalik iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar va sohalari;
- iqtisodiyotning nisbatan monopol mavqega ega bo’lgan ishlab chiqaruvchi tarmoqlari;
- miqdori qayd qilinmagan yuqori daromad oluvchilar.

Tarkibiy inqirozlar. Agrar inqirozlar va uning xususiyatlari

Tarkibiy inqirozlarni iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sohalari rivojlanishidagi chuqur tarkibiy o’zgarishlar hamda nomutanosibliklar keltirib chiqradi.

Tarkibiy o’zgarishlarning kelib chiqishini taqozo qiluvchi omillar

- fan-texnika taraqqiyoti
- talab va uning tarkibidagi o’zgarishlar

Iqtisodiy faoliykdagi tebranishlar

Mavsumiy yoki vaqtinchalik tebranishlar

Bayramlar arafasida ommaviy xarid qilish chakana savdoda sezilarli tebranishlarni keltirib chiqaradi.

Uzoq muddatli tebranishlar

Iqtisodiy faollikning nisbatan uzoq davr davomida (25, 50 yoki 100 yil) o'zgarish tamoyillarini ko'rsatadi

Agrar inqirozlar qishloq xo'jaligidagi ro'y beradigan iqtisodiy inqirozlardir

Namoyon bo'lish shakllari

- qishloq xo'jalik mahsulotlarining nisbatan ortiqcha ishlab chiqarilishi, uning sotilmay qolgan ancha ko'p zaxirlarining to'planishi
- narxlarning pasayishi, daromadlar va foydaning kamayishi
- fermerlar qarzlarining ortishi, ularning ommaviy ravishda sinishi
- qishloqda ishsizlarning ko'payishi

Agrar inqirozlarning xususiyatlari

- siklli xarakterga ega bo'lmaydi;
- sanoat siklidan farq qilib ancha uzoq davrga cho'zilib ketadi.

Masalan: Birinchi agrar inqiroz XIX asrning 70-yillarida boshlanib, 90-yillarning o'rtalarigacha, ikkinchisi 1920-yildan II jahon urushi boshlangan davrgacha va uchinchi agrar inqiroz 1948-yildan 80-yillargacha davom etgan.

JAHON MOLIYAVIY INQIROZINING YUZAGA KELISHI SABABLARI

Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengavib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi.

Dunyoning yetakchi fond bozorlarda eng yirik kompaniyalar in-

dekslari va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o‘z navbatida, ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog‘liq boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi¹.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning tahlili asosida chiqarilgan xulosalar

◊ Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko‘lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmimng kamayishi, shuningdek, jahoning ko‘plab mamlakatlariga ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo‘lishi mumkinligi o‘z tasdig‘ini topmoqda.

◊ Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida **jiddiy nuqsonlar mavjudligi** va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko‘rsatdi.

◊ Ayni vaqtida bu inqiroz asosan o‘z **korporativ manfaatlarini ko‘zlab ish yuritib kelgan**, kredit va qimmatbaho qog‘ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan **banklar faoliyati ustidan etarli darajada nazorat yo‘qligini** ham tasdiqladi.

◊ Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko‘lami va oqibatlari qanday bo‘lishi ko‘p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi.

Ya’ni, bu avvalo, ana shu **davlatning moliya-valyuta tizimi nechog‘liq mustahkam ekaniga**, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to‘lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, **oltin-valuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati** va pirovard natijada – **mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikasiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog‘liq**.

◊ To‘rtinchidan, jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini engillashtirish ko‘p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg‘unligiga bog‘liq.

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar. –T.: «O‘zbekiston», 2009. 4-bet.

Jahon moliyaviy inqirozi kelib chiqishining qo'shimcha sabablari:

- yirik rivojlangan mamlakatlarning ko'p yillar davomida **davlat budjeti taqchilligi va salbiy tashqi savdo balansiga egaligi;**
- davlat **tashqi qarzi** miqdorining YalMga nisbatan o'sish sur'atlarining jadallahishi;
- **noratsional pul-kredit siyosati** hamda qayta moliyalash stavkasing surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida **qarzga yashash odatga va kundalik holatga aylanishi;**
- ipoteka kreditlari berish talablarining asossiz bo'shashtirib yuborilganligi va **uy-joy bozorida narxlarning qisqa muddat ichida keskin o'sishi;**
- moliyaviy instittlarning **majburiyatlariga nisbatan ustav mablag'lari mutanosibligini keskin buzilishi;**
- qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan **sxta xulosalar** berilishi.
- moliyaviy **audit** va professional etika tamoyillarining buzilishi va **sxta audit xulosalari taqdim etilishi;**
- moliyaviy rag'batlantirish uslubi sifat real ko'rsatkichlariga emas, balki **miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi;**
- yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatbaho qog'ozlarning vujudga kelishi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning holati va oqibatlari

1. Moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko'laming cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajming kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda.

2. Avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligmi ko'rsatdi.

Ayni vaqtida bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyatı ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi.

Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan **Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturi** O'zbekistonni 2009-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'ladi.

Respublikamizda 2009-2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan asosiy yo'nalishlar:

- I. Eksport qiluvchi korxonalarни qo'llab-quvvatlash va ularning barqaror faoliyatini ta'minlash chora-tadbirlari.
- II. Mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari va xizmat ko'rsatuvchilari mahsulotlariga ichki talabni noinflyatsiyaviy rag'batlantirish bo'yicha choralar.
- III. Iqtisodiyotning real sektori sohasida resurs bazasini kengaytirish va investitsion faoliyk o'sishini ta'minlash choralar.
- IV. Elektroenergetika sohasini modernizatsiya qilish, energiya sig'imini qisqartirish va energiyani tejash tizimini joriy etish.
- V. Kichik biznesning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, aholi bandligiga va yangi ish o'rinalarini tashkil etishga ko'maklashish.

Ishsizlikning iqtisodiy va sotsial oqibatlari

Ishsizlik tabiiy darajasidan oshgan sharoitda ishlamayotgan ishchi kuchi yositasida ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar potensial hajmining yo'qotilishi



Oukan qonuni

Ishsizlik darajasi o'zgarishi va ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi o'rta-sidagi bog'liqlikni ifoda etadi: Agar ishsizlik tabiiy darajasidan 1 %ga oshsa, YAM hajmida 2,5 % yo'qotish mavjud bo'ladi

Ishsizlikning oqibatlari

kishilarning
tur mush darajasi
pasayishi

xodimlarning
malakasini
yo'qolishi

ijtimoiy va siyosiy
keskinliklarning
o'sishi

Xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohasi - aholi bandligini ta'sir qilashining eng yaxshi orasli

Kichik biznesning ikchali va bankatchaligi, orzez konyunkturasi o'zgarishi va iste'molchilar chiyoylarga nisbatan tez moslashtoqdir. uni jahon qurashida, impreza davrida yangi shart o'shalarni yaratish va qidirligini qorishni obaysiz boranida eng qulay va mazbul xastaga aslantiradi.

I.Karimov (asardan)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Yangi ish o'rmlarini yaratish orqali aholi bandlik darajasini oshiradi

Yukkorkxonalar uchun ishlab chiqarish samasuz bo'lgan mahsulotlari ishlab chiqarish imkonini beradi

Mahsulot va xizmatlari ko'paytish orqali aholi bandligining oshishiga hussa qo'shadi

XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA KENG CHORA-TADBIR-LAR NATIJASIDA UNING MAMLAKAT BO'YICHA ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTDAGI ULUSHI 2002-YILDAGI 37,9 FOIZDAN 2008-YILDA 45,3 FOIZGA ETDI.

Xizmat ko'rsatish sohasi

Aholining turmush darajasini yuksalishiga ta'sir ko'rsatadi

Yangi ish o'rmlarini yaratish orqali aholi bandligini oshiradi

Mamlakatda yaratilayotgan milliy mahsulot hajmining oshishiga olib keladi


Xizmatlarni eksport qilish orqali mamlakat oltin-valuta zaxirasini ko'paytiradi

O'zbekistonda bandlilik muomalasi va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash

O'zbekistonda yangi ish o'rirlarini yaratishda kichik biznesning ulushi, ming kishi

| Ko'rsatkich | 2008-yil | 2009-yil | 2010-yil | 2011-yil |
|---|----------|----------|----------|----------|
| Yangidan tashkil etilgan ish o'rirlari | 661 | 940,5 | 950 | 956,2 |
| shundan: | | | | |
| Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda | 374,3 | 391,8 | 480 | 600,1 |
| foizda | 57,0 | 41,7 | 50,5 | 62,8 |
| Jami iqtisodiyotdagi band bo'lganlar soniga nisbatan ulushi, foiz | 73,1 | 74,2 | 74,4 | 74,8 |

Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida ishsizlik darajasining osishi



Yangi ish o'rinalarini tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari

2011-yilda aholi bandligini ta'minlash borasida erishilgan natijalar

Hududiy bandlik dasturlarning analiga oshurilishi natijasida yaratilgan ish o'rinalari

- 1 millionga yaqin

Shundan qishloq joylarida tashkil etilgan ish o'rinalari

- 68 %dan ko'proq'i

Kichik biznes, xususiy tadbirdorlik va fermerlik rivojini rag'batlanirishni yanada kuchaytirish evaziga yaratilgan ish o'rinalari

- yangi ish o'rinalarning 64 %dan ortig'i

Yangi korxonalar tashkil etish, kasamachilikning turli shakilari kengaytirish hisobidan yaratilgan ish o'rinalari

- 28 %dan ziyod

O'zbekistonda bandlikka oid ko'rsatkichlar dinamikasi

| Hududlar | 2007 | 2008 | 2009 | 2010 | 2011 | 2011-yilda 2007-yilga nisbatan o'zgarish +,- | 2011-yilda 2007-yilga nisbatan o'zgarish foizi |
|--|---------|---------|---------|---------|---------|--|--|
| Mehnat resurslari soni, ming kishi | 15219,6 | 15644,9 | 16123,6 | 16504,2 | 17309,8 | 2090,2 | 113,7 |
| Ish bilan band aholi soni, ming kishi | 10735,4 | 11035,4 | 11328,1 | 1628,4 | 11919,1 | 1183,7 | 111,0 |
| Ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni, ming kishi | 563,8 | 567,7 | 631,5 | 628,2 | 622,4 | 58,6 | 110,4 |
| Yaratilgan ish o'rmlari soni, birlik | - | 660906 | 940532 | 950001 | 956247 | 295341* | 144,6* |

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning ijtimoiy siyosati faqat odamlarning manfaatlарини ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo'lmasdan, balki mehnatga yaroqli aholining ish bilan bandligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o'sishi yuqori sur'atlar bilan borayotgan va o'ziga xos aholi tarkibiga ega bo'lgan bizning respublikada ish bilan bandlik masalasi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlar davrida ushbu masalani hal etish uchun respublikada bir qator tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Birinchidan, keng faoliyat turlari, shuningdek, yakka tartibdagи tadbirkorlikni kengaytirish uchun sharoit yaratish. Birinchi navbatda qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishslash, xalq iste'mol mollarini mahalliy xomashyodan qurilish materiallari tayyorlovchi xususiy kichik korxonalarini faol rivojlantirishni rag'batlantirish.

Ikkinchidan, xizmat sohasini rivojlantirish, aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy-maishiy xizmat va qurilish bo'yicha xizmat turlarini ancha kengaytirish. Bunda ham qishloq joylarda xizmat sohasini rivojlantirishga ustunlik beriladi.


Uchinchidan, qishloq keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasi yaratib shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish.

To'rtinchidan, ishdan bo'shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitishmi tashkil etishni tubdan o'zgartirish. Bunda ishdan bo'shayotgan va ix-tisosи bo'lмаган shaxslarga qisqa davrda, bozor iqtisodiyotiga hamda iqtisodiyotning o'zgarib borayotgan tuzilishiga muvofiq keluvchi kasbkorni o'rgatishga e'tibor qaratish. Shu maqsadda maxsus maslahat va o'quv markazlari, biznes maktablarning keng tarmog'ini ochish ko'zda tutiladi.


Beshinchidan, vaqtincha ishga joylashtirish imkonи bo'lмаган mehnatga yaroqli aholini davlat tomonidan ishonchli ravishda ijtimoiy himoyalash. Bu siyosat ularning o'ta zarur ehtiyojlarini qondirish kafolatli tirikchilik manbalari ega bo'lishga qaratiladi.

Aholining ish bilan bandligi muammosi ko'p qirrali bo'lib, u barcha odamlarga o'z qobiliyatlарини ishga solish, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun dastlabki teng imkoniyatlarni ta'minlovchi davlat va bozor mechanizmini vujudga keltirish; ishchi kuchini unumli va samarali ish bilan band qilish; zarur hollarda ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasida qayta taqsimlash kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi.

Ayrim rivojlangan mamlakatlar hamda O'zbekistonda ishsizlik darajasi



O'zbekiston Respublikasida abolining ishsizlik darajasi, foiz



11-mavzu. MOLIYA TIZIMI VA MOLIYAVIY SIYOSAT

Reja:

1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi va uning bo‘g‘inlari.
2. Davlat budjeti va uning tuzilishi.
3. Davlatning soliq tizimi va uning vazifalari.
4. O‘zbekistonda moliya siyosatining amalga oshirilishi.

Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi va uning bo‘g‘inlari

Moliya – bu pul mablag‘lari fondlarini tashkil etish, taqsimlash va ishlatalish yuzasidan ro‘y beradigan munosabatlarning nazariy ifodasıdir.

Takror ishlab chiqarish jarayonida pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlarni **moliyaviy munosabatlar deyiladi**. Bu munosabatlarni pul fondlarining harakatiga bog‘liq ravishda davlat bilan korxona va tashkilotlar, tarmoqlar, regionlar va alohida fuqarolar o‘rtasida vujudga keladigan barcha munosabatlarni qamrab oladi.

Moliya iqtisodiy kategoriyasi sifatida pul munosabatlari tizimi bo‘lib, uning vositasida turli darajada pul mablag‘lari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.

Moliya makroiqtisodiyot doirasida o‘zaro bog‘liq to‘rtta vazifani bajaradi: takror ishlab chiqaruvchi, taqsimlovchi, rag‘barlantiruvchi va nazorat qiluvchi.

Moliyaning asosiy belgilari:

- * pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar shaklida ifodalanadi;
- * ekvivalent almashinuvchi ishtirokisiz yuz beradi aniq maqsadga yo‘naltiladi va sarflangan mablag‘ qaytarilmaydi;
- * yalpi milliy mahsulot (YaMM) va milliy daromad (MD)ni maxsus fondlarga taqsimlaydi.

Moliyaning funksiyalari

Taqsimlash funksiyasi. Moliya vositasida yaratilgan YaIMning va bozorga chiqarilib sotilgan milliy boylikning pul shaklidagi qiymati taqsimlanadi.

Rag'batlantirish funksiyasi. Bu moliya mexanizmi vositasida iqtisodiy faoliyini soliq imtiyozlari, subsidiya, dotatsiya va subvensiyalar yordamida qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Nazorat funksiyasi. Soliqlar, to'lovlilar, yig'imlarni amaldagi qonunlar bo'yicha to'g'ri to'lanishini, tashkil etilgan fondlarning mablag'larini belgilangan maqsad bo'yicha ishlatalishini ta'minlash.

Moliya obyekti – bu moliya resursi bo'lib, turli pul fondlaridan iborat bo'ladi. Bu fondlarni barcha iqtisodiyot subyektlari o'z daromadi hisobidan shakllantiradi, ular hisobidan xarajatlarni moliyalashtiradi.

Moliya subyektlari – bu moliya munosabatlarning ishtiroychilari bo'lib, firmalar, xonardonlar, davlat va nodavlat idoralaridan iborat, bular yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

MOLIYA TIZIMI

Moliya munosabatlari – bu iqtisodiyot subyektlarining moliya resurslari xususidagi o'zaro aloqalar. Bu aloqalar YaIM va milliy boylikni taqsimlab ishlatalish jarayonda yuzaga keladi

Moliya mexanizmi – bu turli moliya vositalari bo'lib, soliq, subsidiya, subvensiya, transfert, jarima, dotatsiya, sanaatsiya, moliyaviy me'yorlar va boshqalardan iborat.

Moliya siyosati – bu iqtisodiyot subyekting moliyaviy resurslarni topish, ularni taqsimlash va sarflashga oid yo'l-yo'rqliari, sa'y-harakatlari ning majmuasidir

Moliya institutlari – bular moliya aloqalarini amalga oshiruvchi va moliya infratuzilmasini tashkil etuvchi kompaniyalar, firmalar, banklar hamda davlat idora va tashkilotlaridan iborat.

Korxona va tarmoqlar moliyasi ulardagi takror ishlab chiqarish jara-yonida hamda alohida fondlar yaratish yo'li bilan xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlariga xizmat qiladi. Bunday fondlarga ishlab chiqarishni, fan va texnikani rivojlantirish fondi kirib ular birgalikda korxonalar moliyasini tashkil qiladi. Ayni paytda ular tarmoqlarning va umum davlat moliyalarining mablag'lari manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Mikromoliya – bu firmalar va xo-nadonlar, nodavlat va jamoat tashkilotlaridagi moliya, moliya tizimining boshlang'ich va asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Mikromoliya munosabatlari ikki yo'nalishda amalga oshadi:

- Ichki moliya aloqalari. Bunda hosil bo'lgan moliya resurslari jamoa (korxona, firma va h.k.) doirasida taqsimlanib ishlataladi.
- Tashqi moliyaviy aloqalar. Bunda pul mablag'i xususidagi munosabatlar boshqa korxonalar, bank, birja, mahalliy hukumat, davlat moliyaviy idoralari bilan yuz beradi.

Makromoliya – bu mamlakat doirasidagi va milliy iqtisodiyotga xizmat qiluvchi moliya bo'lib, bu davlat moliyasidan iborat.

Makromoliya munosabatlari uch usul bilan amalga oshiriladi:

- Har bir davlat o'z xarajatlarini daromadlari bilan o'zi qoplashga harakat qiladi.
- Xarajatlarini qoplay olmasa, aholidan va chet mamlakatlardan, xalqaro tashkilotlardan qarz oladi.
- Ayrim paytlarda xalqaro tashkilotlar, chet davlatlar iqtisodiy-ijtimoiy yordam tariqasida qaytarib olmaslik sharti bilan mablag' ajratadi.

Mikromoliyalar – Korxonalar

Bunda, tashkilot muassasa ya
bestiga xo'jalik subjektlarining
o'z mablag'ini yoki olari qo'sh
olgan mablag'laridan iborat.

Makromoliyalar – mamlakat ishlagan

umum davlat mijoyida
tashqid qopgan resurslar.

Umum davlat moliyasi davlat budgetini, ijtimoiy sug'urta fondini hamda davlat mol-mulkiy va shaxsiy sug'urtasi fondini o'z ichiga oladi. Davlat pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi bo'lmish davlat budgeti moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Davlat budgeti – bu davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasи. Davlat daromadlari va xarajatlarining asosiy qismi davlat budgeti orqali o'tadi.

Jamiyat moliya tizimida maxsus va xayriya fondlari ham alohida o'rn tutadi. Bu fondlar turli xo'jalik subyektlari va aholning pul mablag'larini aniq bir maqsad yo'lida birlashtiradi va ishlatadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tib borish bilan jamiyat moliya tizimida turli xil sug'urta (ijtimoiy sug'urta, tibbiy sug'urta) fondlari va budgetdan tashqari moliya fondlari (pensiya fondi, aholini ish bilan ta'minlash fondi, tabiatni muhofaza qilish fondi, tarixiy yodgorliklarni saqlash fondi, tadbirkorlarga ko'mak berish fondi va boshqalar)ning **ahamiyati ortib boradi**.

O'zbekiston Respublikasida moliya tizimi Moliya Vazirligi tomonidan boshqariladi. Moliya Vazirligi Markaziy moliya tashkiloti shaklida davlatning yagona moliyaviy siyosatini yuritib, moliyanı tashkil etishga umumiylahidagi rahbarlik qiladi.

Davlat budgeti va uniñg tuzilishi. Fiskal siyosati: Davlat budgeti


Fiskal siyosat – davlat xarajatlari va soliqlarni o'zgartirish orqali iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan budget va soliq siyosatini o'z ichiga oluvchi moliyaviy siyosatning bir qismi.

Davlat budgeti – davlatning daromadlari manbai va mablag'larini sarflash yo'nalishlari ko'rsatilgan holda tuzilgan davlatning ma'lum davr, odatda bir yilga mo'ljallangan daromadlari va xarajatlari smetasi.

Davlat budgeti defitsiti – davlat budgeti xarajatlarining daromadlardan ortib ketishi.

Davlat budgeti profitsiti – ma'lum davrda daromadlar miqdorining xarajatlardan ortib ketishi.

| Davlat budjeti daromadlari | Davlat budjeti xarajatlari |
|--|--|
| <p>Soliq:</p> <ul style="list-style-type: none"> bevosita, bilvosita soliqlar resurs to'lovlari. <p>Soliqdan tashqari:</p> <ul style="list-style-type: none"> soliqdan tashqari yig'imlar, boj va boshqa majburiy to'lovlardan davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarini foydalanish va sotishga yetkazib berish va joylashtirishdan daromadlar qonunchilikka muvofiq meros, hadya qilish huquqiga ko'ra davlat mulkiga o'tadigan pul mablag'lari yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xorijiy davlatlardan beminnat pul tushumlari budget ssudalarini qoplash uchun yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xorijiy davatlarga berilgan to'lovlardan | <ul style="list-style-type: none"> budget mablag'laridan foydalanuvchilarning joriy xarajatlari joriy budget transfertlari kapital xarajatlari kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga bujdet transfertlari yuridik shaxslar – rezidentlar va xorijiy davatlarga budget ssudalari davlatning maqsadli fondlariga budget dotatsiyalari va budget ssudalari davlat qarzlarini qoplash va xizmat ko'satish bo'yicha to'lovlardan qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa xarajatlar |



Davlatning soliq tizimi va uning vazifalari

Soliq – davlat tomonidan daromadlarning bir qismiga (to'g'ri dan to'g'ri) egalik qilish huquqi bo'yicha korxonalar, muassasalar va aholi to'laydigan majburiy yig'imlar.

Fiskal

Soliqlar davlatni zarur moliyaviy resurlar bilan ta'minlaydi

Tartibga soluvchi

Soliqlarni oshirish va kamaytirish ma'lum iqtisodiy sohalarning rivojlanishini rag'batlantiradi yoki to'xtatadi

Tartibga soluvchi

Budjetga yig'ilgan soliqlar jamiyatga kerakli dasturlarni moliyalashtirishga sarflanadi

Milliy iqtisodiyotda soliqlar quyidagi uchta muhim vazifani bajaradi:

- davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);
- ijtimoiy tanglikni ushlab turish (ijtimoiy vazifasi);
- iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi).

Hozirgi davrda umumiyy tendensiya bo'lgan davlat sarflarining va shunga mos ravishda **soliq hajmining o'sib borishini quyidagi omillar taqozo qiladi.**

1. Aholi sonining o'sishi.
2. Ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi va urbanizatsiya.
3. Atrof-muhitning ifloslamishi.
4. Qashshoqlik va daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish.
5. Milliy mudofaa, davlat xavfsizligining ta'minlash xarajatlari hajmining o'sishi.

Hozirgi davrda soliq tizimida **davlatning soliq siyosatini** O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi va uning joylardagi (viloyat, shahar, tuman) muassasalarini amalga oshiradi.


Soliq solish va uning stavkasini belgilash bir qator prinsiplarga asoslanadi.

1. Naflilik prinsipi.
2. To'lov layoqatlichkeit prinsipi.
3. Adolatlilik prinsipi.

Soliq bo'yicha imtiyozlar qonunchilik bitimlarida belgilangan tartib va sharoitlar asosida o'rnatiladi. **Soliq imtiyozlarining amaliyotda quyidagi turlari keng tarqalgan:**

- obyektlarning soliq olinmaydigan eng kam darajasini belgilash;
- soliq to'lashdan alohida shaxs yoki ma'lum guruhlarni (masalan, urush faxriylarini) ozod qilish;
- soliq darajasi (stavkasi)ni pasaytirish;
- soliq olinadigan summadan chegirish;
- soliqli kredit (soliq olishni kechiktirish yoki soliq summasini ma'lum miqdorga kamaytirish).

Soliqlar, odatda, **progressiv** (o'sib boruvchi), **proporsional** (mutanosib) va **regressiv** (kamayib boruvchi) soliqlarga bo'linadi. Bu bo'linish soliq stavkasi va daromadlar o'rtasidagi nisbatga asoslanadi.



Progressiv, proporsional va regressiv soliqlarning grafik ko'rinishi

Soliqlar amal qilish doirasiga ko'ra ikki darajadagi soliqlarni o'z ichiga oladi: umum davlat soliqlari va mahalliy soliqlar.

Mahsulot bahosiga qo'shilish xarakteriga ko'ra soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga bo'linadi. Egri soliqlar tovar bahosi ustiga qo'yiladigan ustama hisoblansa, to'g'ri soliqlar tannarxning tarkibiy elementi sifatida bevosita narxning ichiga kiradi.

Korxona, aholi va mulk egalaridan olinadigan barcha soliqlar o'zlarining iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi asosiy turlarga bo'linadi: oborot solig'i, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq, resurs to'lovları, amortizatsiya ajratmalari va ijtimoiy sug'urtada to'lovlar, shaxsiy daromad solig'i, ish haqi fondidan va korxona (korporatsiya) foydasidan olinadigan soliq, mulk solig'i, aksiz yig'inalar va bojxona to'lovları, meros qilingan va taqdim qilingan mulk solig'i, litsenziyalar va vizalardan olingen soliq va hokazo. **Bu soliqlarning asosiy qismi jamiyat miqyosida tartibga solinadi va umum davlat asosiy bo'g'ini bo'lgan davlat budgetiga kelib tushadi.**

Hokimiyat boshqaruving quyi bo'g'inlari budgeti asosan sotishdan olinadigan soliqlar va mulk soliqlari hisobiga shakllanadi.

Oborot soliq. Oborot solig'ming hosil bo'lishi va ishlatalishining o'ziga xos mexanizmi (to'lashning shartligi, to'lovlar muddatlari va miqdorlarning qayd qilinishi) unga mablasg'larni jamlashlarning soliq usuliga oid tashqi belgilarni kasb etadi. Oborot soliq egri soliqlardan farq qilib, mahsulot bahosi tarkibiga kiradi.

Qo'shilgan qiymatga soliq. Qo'shilgan qiymat solig'i chakana sotishdan olinadigan soliqqa juda o'xhash, farqi faqat shundaki, QQS narx bilan boshqa firmadan sotib olish qiymati o'rtaсидagi farqqa qo'llamladi. Mohiyati bilan QQS iste'molchilik tovarlari sotishdan olinadigan umumidavlat solig'iga tenglashadi.

Aksiz solig'i. Bu soliqning obyekti natural yoki qiymat shaklida sotilgan tovarlar hajmi hisoblanadi. Aksiz solig'i egri soliq hisoblanib, tovar birligiga o'matiladi va uning chakana narxiga kiradi hamda ancha yuqori narxlar orqali sotuvchidan iste'molchiga o'tadi.

Mulk solig'i. Mulk solig'inining asosiy qismining og'irligi shu mulk egasining yelkasiga tushadi, chunki bu soliqni boshqaga yuklash mumkin emas. Bu yer, shaxsiy mulk, xususiy uy yoki kvartira soliqlariga tegishli. Masalan, hatto yer sotilganda ham mulk solig'inining qandaydir yukini unga ortish mumkin emas. Xaridor shu yer uchun kelajakda to'lashga to'g'ri keladigan soliq hajmini e'tiborga olib yerning narxini pasaytirishga harakat qiladi.

Soliqlarning iqtisodiy faoliyatga ta'siri. Soliqlar takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy faollikni tartibga solishning vositalaridan biri rolida chiqib, yangi sifat kasb etadi. Bu ta'sir ko'rsatish g'oyat ko'p qirralidir. Uning ayrim tomonlariga e'tibor qaratish lozim:

Birinchidan, davlat foydaga soliq solish yo'li bilan, kapitalning jamg'arilish jarayoniga juda sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, soliqni tartibga solish tadbirleridan u yoki bu tarmoqning raqobatga layoqatliligini hamda korxonalar ijtimoiy foydali faoliyatini rag'batlantirish va ularning kapital jamg'arishga eng qulay sharoit yaratish uchun keng foydalaniлади.

Uchinchidan, davlat imtiyozli soliqlar yordami bilan ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy joylashtirishga, infrastruktura obyektlarini yaratish va shu kabilarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

To'rtinchidan, davlat butun xo'jalik kon'yunkturasiga umumiyligi ta'sir ko'rsatish maqsadida, soliq mexanizmidan keng foydalaniлади. Davlat iqtisodiy tur-g'unlikni bartaraf qilish uchun imtiyozli soliqlar yordamida kapital qo'yilmalarni rag'barlantiradi, ham iste'molchilik va ham investitsion tovarlar yalpi talabni kengaytirish uchun ancha kulay sharoit yaratadi.

Umumiy iqtisodiy konyunkturani rag'barlantirish bo'yicha yirik miqiyosidagi tadbirlarga, 80-yillarda AQShdagi soliqlarni keskin qisqartirish misol bo'ladi. Bu dasturni nazariy jihatdan asoslashsga **amerika iqtisodchisi A.Loffer** hisob kitoblari asos bo'ldi. U soliqlarni pasaytirish iqtisodiy yuksalish va davlat daromadlarining o'sishiga olib kelishini isbotladi. A.Lofferning mulohazalariga ko'ra, korporatsiyalar daromadiga soliqlar stavkasini haddan tashqari oshirish, ularning kapital qo'yilmalariga bo'lgan rag'batini susaytiradi, fan texnika taraqqiyotini to'xtatadi, iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi va bular oxir-oqibatda, Davlat budjeti tushumlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

| Soliqqa tortish obyektlari bo'yicha | | | Soliqlarni undirish usullari bo'yicha | | | Soliq miqdorini belgilash usullari bo'yicha | Budjet darajasi bo'yicha | Foydalanish tartibiga ko'ra |
|-------------------------------------|---------------|--------------------|---------------------------------------|----------|-----------|---|--------------------------|-----------------------------|
| daromad solig'i | mulk solig'i | xarajatga soliqlar | bevosita | | bilvosita | proportional | progressiv | regressiv |
| | | | mulk bo'yicha | aksizlar | alohida | universal | bojxonha bojlari | |
| daromad bo'yicha | mulk bo'yicha | xarajatga soliqlar | | | | | | |

Soliqlarning asosiy turlari

▶ **Davlat qarzi** – hukumatning avvalgi budjet defitsitlariga teng bo'lgan umumiy qarzlar miqdori (minus budjet ortiqchaligi).

DAVLAT QARZLARI

Ichki qarzlar – Davlatning o'z fuqarolaridan qarzi

Tashqi qarzlar – Davlatning boshqa mamlakat fuqarolarini va tashkilotlaridan qarzi

Fiskal siyosat: maqsad va yo'nalishlar

▶ **Fiskal siyosatning maqsadi** – davlat daromadlari va xarajatlari mutanosib o'zgartirish, soliqlar tortish tizimi, balanslangan davlat budjetini tartibga solish tizimi asosida to'liq bandlikni va no-inflyatsion iqtisodiy o'sishni ta'minlash.

▶ **Davlat xarajatlari multiplikatori** – YalMning o'sishiga muvofiq ravishda davlat xarajatlarining o'sish koeffitsiyenti.

Budjet-soliq siyosati

Rag'batlantiruvchi (ekspansion)

Chegaralovchi (restriksion)


Davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish hisobiga iqtisodiyotning davriy tushishini bartaraf etishga yo'naltirilgan

Davlat xarajatlarini qisqartish yoki soliqlarni oshirish hisobiga inflyatsiya darajasini pasaytrish va iqtisodiyotning davriy ko'tarilishi chegaralashga yo'naltirilgan

Oqibatlar

| ijobiy | salbiy | ijobiy | salbiy |
|---|---|--|--|
| Qisqa muddatda davriy tushishni bartaraf etish; uzoq muddatda iqtisodiy o'sish. | Budjet kamomadi, korxonaga soliq yuki ortishi, inflyatsiya o'sishi. | Budjet kamomadi, korxonaga soliq yuki va talab inflyatsiya-sining pasayishi. | Yaqin istiqbolda ishsizlikning o'sishi, ishlab chiqarishning susayishi, uzoq istiqbolda stag-flyatsiya xavfi |

Faqat 2005-yildan 2012-yilgacha bo'lgan davrda mikrofirma va kichik korxonalar uchun aylanma mablag'dan olinadigan yagona soliq to'lovi stavkasi 2,5 barobar kamaytirilib, 13 foizdan 5 foizga tushirildi, xalq amaliy san'ati va oilaviy biznes obyektlari esa umuman soliqqa tortilmaydi yoki eng kam stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.



O'zbekistonda moliya siyosatining amalga oshirilishi

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida umumiqtisodiy barqarorlikka erishish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, shu jumladan, davlat budgeti barqarorligini mumkin bo'lgan darajada ushlab turish vazifasini ham o'z ichiga oladi.

Soliq tizimini isloq qilishga asos qilib olingan asosiy tamoyil – korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishdir. Bu ularning o'z mablag'larini ishlab chiqarishini rivojlantirish, texnika bilan qayta qurollantirish va aylanma mablag'larni to'ldirishga sarflash imkoniyatini beradi. Bu esa oqibat natijada ishlab chiqarishning yuksalishiga olib keladi.

Korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishda daromad solig'i-dan foydadan undiriladigan soliqqa o'tish ko'zda tutiladiki bu ishlab chiqarish va aylanma mablag'larni to'ldirishga sarflash imkoniyatini beradi. Foydaning ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan umumiyl miqdorni ko'payishi bilan birga, ayni vaqtda mehnatkashlar ish haqini ko'paytirish imkoniyati ham yaratiladi. Natijada faol mehnatni rag'batlantiruvchi ixtisodiy muhit yaratiladi.

Respublikada soliq tizimini isloq qilishda uning tarkibini tubdan o'zgartirish, resurslar, mol-mulk solig'ining rolini oshirish, jismoniy shaxslardan soliq undirishning **progressiv tizimini joriy etish vazifasi qo'yiladi**.


Tabiiy resurslarni qayta tiklash imkoniyatini yaratish va ulardan ehtivot-korona foydalanish maqsadini amalga oshirish uchun yer, yer osti boyliklari, suv va qayta tiklanmaydigan boshqa resurslarga to'lov o'rnatish **soliq siyosatining navbatdagi yo'nalishidir**.

Respublika ahamiyatiga ega bo'lgan soliqlar bilan mahalliy soliq o'rtaSIDA aniq chegarani belgilash soliq tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishidir.


Bunda davlat budgeti daromadining katta qismini joylarga berish, mahalliy budgetlarni mustahkamlashga asosiy e'tibor qaratiladi.

Davlat budgeti mutanosibligini kuchaytirish maqsadida, soliq tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, korxonalarning moliya intizomini mustahkamlash, to'lov majburiyatlarini bir me'yorga keltirish, qarzlarning salbiy oqibatini tughish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ayrim mamlakatlarda tashqi qarz darajasi
(2012-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, foizda)



Ayrim mamlakatlarda davlat budjeti taqchilligi darajasi (2013-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, foizda)



Sug'urta va uning moliya tizimida tutgan o'rni

Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida mol-mulk, kapital, mehnat va hayotni kutilmagan hodisalardan kafolatlash maqsadida sug'urtalovchi (sug'urta kompaniyasi) va sug'urta qildiruvchi o'ttasida ma'lum to'lovlar – ya'ni sug'urta badalari evaziga maxsus pul fondlarini tashkil etish jarayonini ifodalaydi.

Sug'urta munosabatlari kutilmagan tarzda ro'y beradigan turli yo'qotishlarning o'rmini qoplash maqsadida pul fondlarini tashkil etish, taqsimlash va ishlatalish yuzasidan kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlardir.

Sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlari

- sug'urta faqat moddiy hamda boshqa zararlarni qoplash uchun zarur bo'lgan daromadlarni taqsimlash va jamg'arish bilan bog'liq munosabatlardan iborat bo'ladi;
- sug'ortalash moliyaviy (pul) resurslarning qayta taqsimlanishi shini taqozo qilib qo'yadi;
- sug'ortalash sug'urta fondlarini faqat uning ishtirokchilari o'rutasida taqsimlash va ishlatalishini anglatadi;
- sug'urta keltirilgan zararni qoplash uchun zarur mablag'larni hududiy birliklar, sug'ortalashning alohida toifalari va ma'lum davr oralig'ida qayta taqsimlanishini ko'zda tutadi;
- sug'urta fondiga jalb qilingan to'lovlar belgilangan vaqt davomida qaytarilishi zarur.

Sug'urtaning vazifalari

- kutilmagan hodisalardan keltirilgan moddiy zararlarni moliyaviy qoplash vazifasi;
- kutilmagan hodisalarining oqibatlarini oldindan ogohlantirish vazifasi;
- sug'ortalash maqsadidagi pul mablag'larni jamg'arish vazifasi;
- sug'urta fondlarini tashkil qilish va ularning ishlatalishi ustidan nazorat qilish vazifasi;
- sug'urta fondi mablag'lari hisobiga aholini ijtimoiy himoyalash vazifasi.

Sug'urta turlari

I. Sug'ortalash tarziga ko'ra:

- **majbuliy sug'urta** – yo'lovchilarни baxtsiz hodisalardan, transport vositalari egalarining uchinchi shaxs oldidagi fuqarolik javobgarligini, qurilish-montaj ishlarini olib borishda uchinchi shaxslarga zarar yetkazish javobgarligini majbuliy sug'urta qilish;

- **ixtiyoriy sug'urta** – bunda kishilarning sog'lig'i, hayoti va turli xil molmulklar sug'urtalanadi.

II. Sug'urtalanadigan xavf-xatar toifasiga ko'ra:

- yong'in va boshqa tabiiy ofatlardan sug'ortalash (mol-mulklarini);
- qurg'oqchilik va boshqa tabiiy xavf-xatarlardan sug'ortalash (qishloq xo'jalik ekinlarini);
- o'g'rilik, avariya va boshqa favqulodda holatlardan sug'ortalash (asosan transport vositalarini);
- turli xil epidemiyalar (o'lat va boshq.) dan sug'ortalash (chorva mollarini);

III. Sug'urtalanadigan obyekt turiga ko'ra

- mol-mulk sug'urtasi;
- ijtimoiy sug'urta;
- hayot sug'urtasi va h.k.

IV. Sug'urtalanadigan faoliyat yoki xatti-harakat turiga ko'ra.

- tijorat xatari sug'urtasi;
- tadbirkorlik sug'urtasi;
- kredit xatari sug'urtasi;
- mas'uliyat sug'urtasi;
- birja va valuta xatari sug'urtasi.

O'zbekistonda sug'urta munosabatlarini tartibga soladigan me'yoriy (qonuniy) hujjatlar

- «Sug'urta to'g'risida»gi qonun (1993-y);
- * «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonun (2002-y);
- * «O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi» (941-modda – Birgalikda sug'urta qilish).
- * «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2007-yil 10-aprel. PQ-618сон);
- * «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2008-yil 12-may. PQ-872-son);
- * «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (2008-yil 26-iyun. 141-sonli).
- * «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması qarori (2009-yil, 24-iyun, 177-sonli).

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda **davlatning moliya siyosati** tarkibiy va mulkiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida budjet taqchilligini cheklash hamda shu orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishga erishishga qaratiladi

Davlatning moliya siyosatini amalga oshirish dastaklari:

- soliqlar, uning turlari, soliq stavkaları;
- budjet xarajatlari va uning sarflanish yo'nalishlari;
- davlat kreditlari va investitsiyalari;
- davlat subsidiyalari va dotatsiyalari;
- tashqi tarifli va ta'rifsiz tartiblash usullari;
- jadallashgan amortizatsiya ajratmalari;
- davlatning maqsadli iqtisodiy dasturlari.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi moliyaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari

Budjet defitsitining yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan 3–4 % iniqdorida ushlashga qaratilgan qattiq moliyaviy siyosat o'tkazish;

Budjet defitsitini cheklash asosidagi iqtisodiy barqarorlik masalasini hal etish va iqtisodiy faoliyatni jonlantrishni rag'batlantiruvchi zarur ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish o'rtasida optimal munosabatni ta'minlash;

Milliy xo'jalik tarmoqlarini budjetdan qaytarmaslik shartida moliyalash siyosatidan amaliyotidan voz kechish va bu maqsadlarga investitsion kreditlardan foydalanishni keng yo'lga qo'yish;

Bozor munosabatlarini rivojlanishini rag'batlantiruvchi va davlat budjeti daromadlari shakllanishini barqarorligini ta'minlovchi soliq siyosatini o'tkazish, soliq tizimini takomillashtirish;

Aholmi ijtimoiy ta'minlashda me'yorlar saqlanishini ta'minlash.

12-mavzu. PUL MUOMALASI, KREDIT TIZIMI VA BANKLAR

**Jamiyat ildiziga bolta urishning pul muomalasini izdan
chiqarishdan ham ko‘ra ishonechliroq omili yo‘q.**

Jon Keyns.

Reja:

1. Pul tizimi uning tarkibi va turlari
2. Pul haqidagi nazariyalar. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari.
3. Inflyatsiya, uning mohiyati, aniqlanishi va turlari.
4. Kredit mohiyati, shakllari va vazifalari.
5. Bank tizimi va ularning asosiy vazifalari.

Pul tizimi uning tarkibi va turlari

Pul tizimi deganda mazkur mamlakatning pul muomalasini qonuniy asosda tashkil etish va unda qo‘llaniladigan uslublar tushuniladi.

→ **Pul birligi.** Pul birligining nomi shu davlat aholisi milliy an‘analari, odat-rusumlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

→ **Pul turlari.** Bugungi kunda muomalada tanga pul, qog‘oz pul, kredit shaklidagi pul, chek shaklidagi pul va elektron pullardan iborat.

→ **Pul emissiya tartibi.** Muomalaga chiqariladigan pullarni shakl-shamoyili, ularni qalbaki pul yasovchilardan himoya qilish belgilari, pul muomalaga chiqarilish va muomaladan olish kabilar belgilanadi.

→ Muomaladagi pul massasini tartibga soluvchi davlat muassasasi belgilanadi. O‘zbekistonda bu vazifani Markaziy Bank bajaradi.

→ Naqd pulsiz hisob-kitobni amalga oshirish tartibi.

→ Milliy valutani chet el valutasiga almashtirish tartibi belgilanadi.

Pul tizimining ikki turi

Metall pullarga asoslangan pul tizimi

Kredit va qog'oz pul muomalasi tizimi

Bimetall – pul tizimida ikki metall oltin va kumushning qonuniy tartibda umumiy ekvivalent rolini bajarishidir

Monometall pul tizimida bir metall oltin tovarlar almashuvida umumiy ekvivalent rolini bajaradi (kumush narxi tushib ketishi tufayli). Monometall pul tizimi o'zi 3 urga bo'linadi:
A) Oltin moneta standarti; B) Quyma oltin standarti; C) Oltin deviz standarti

Pul haqidagi nazariyalar. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatları

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lib, milliy xo'jalikda tovar va xizmatlar harakatini ta'minlovchi naqd pul va naqd bo'limgan muomala va to'lovlardan uchun ishlataladigan vositalar **pul massasi** deyiladi.

Naqd pulga aylantirish imkoniyati **likvidlik** darajasi deyiladi.

Pulning likvidligi jihatidan turli guruhlarga ajralishi **pul agregatidir**

Pul agregati birinchi navbatda Mo – absolyut likvidlikka ega bo'lgan muomaladigi naqd pul massasini o'z ichiga oladi.

Pul agregati $M_1 = M_0 +$ banklardagi muddati ko'rsatilmagan depozitlar va cheklardan iborat.

$M_2 = M_1 +$ muddati ko'rsatilgan depozitlar, nochek jamg'armalar.

$M_3 = M_2 +$ yirik jamg'armalar, xususiy firma, tashkilotlarning hisob raqamlaridagi omonatlar, muddati ko'rsatilgan yirik jamg'armalaridan iborat. Eng umumiy pul agregati $L = M_3 +$ turli qimmatbaho qog'ozlarni o'z ichiga oladi.

Pul muomalasi qonuni

muomaladagi pul miqdori tovarlar miqdori va narxi hamda pulning aylanish tezligi bilan bog'liqligini ifodalaydi. Pul muomalasi qonuniga ko'ra muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori barcha sotiladigan tovarlar va xizmatlar narxining jami summasiga to'g'ri proporsional, pul harakati tezligiga teskari proporsionaldir.

$$M = \frac{\sum P \cdot Q}{V}$$

q – muomala uchun zarur pul miqdori;

P – tovarlar narxi;

Q – ayirboshlanadigan tovarlar miqdori;

V – pulning aylanish tezligi.

Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini belgilovchi omillar:

- Muayyan davrda (bir yilda) sotilishi kutilayotgan tovarlar miqdori;
- Tovarlar va xizmatlar narxlari;
- Pul birligining aylanish tezligi;
- Kredit munosabatlarinmg rivojlanganlik darajasi.

Pul muomalasi to'g'risidagi nazariyalar:

Klassik nazariya: muomala uchun zarur pul miqdori sotishga chiqariladigan tovarlarning qiymat miqdori va ularning oltin asosiga teng kelishi g'oyasini ilgari suradi.

Miqdoriylik nazariyasi: bu nazariyaga ko'ra muomaladagi pul miqdorining o'zgarishi tovarlar narxining o'zgarishiga olib keladi va bu o'z navbatida, pulning narid quvvatini o'zgartiradi.

I.Fisher yondashuvi: bunda Fisher tenglamasi ($M \cdot V = P \cdot Q$) narxlari pul massasiga to'g'ri mutanosiblikda, pulning qadr-qiyomi esa uning miqdoriga teskari mutanosiblikda bog'liq bo'lishini ko'rsatadi.

Kembridj maktabi (A.Marshall, A.Pigu, D.Robinson) yondashuvi: pulga talab va uning taklifi o'rtasidagi muvozanatlik shartlarini xarakterlaydi, ya'ni $M = k \cdot R \cdot Y$, bu yerda:

- M – pul massasi;
- K – Marshall koeffitsiyenti; (nominal daromadlarning naqd pul shaklida saqlanayotgan qismi);
- R – narxlarning umumiy darajasi.

Pulga talab haqidagi nazariyalar


Monetaristik nazariya: Unga ko'ra, pulga talab faqat transaksion maqsad (bitimlar uchun), ya'ni ayrboshlash oldi-sotdi jarayonida bitim tuzish uchungina zarur.

- Muomalaga ana shu maqsad uchun zarur bo'lgan minimal miqdordagina pul kerak. Boshqa har xil maqsadlarda pul saqlash noto'g'ri.

Keynscha nazariya: bitim uchun, ya'ni ayrboshlash vositasi sifatidagi pulga talab.

- Ehtiyojkorlik maqsadi, har ehtimolga qarshi naqd pul saqlash zaruriyat.
- Chayqovchilik maqsadi, ya'ni turli qimmahaho qog'ozlarni arzon bo'lishini kutib pulni saqlash.

Kredit pullar (naqd pulsiz hisoblar)



Pul bozori – moliyaviy bozoring tarkibiy qismi bo'lib, unda pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar harakati ularga bo'lgan talab va taklif ta'sirida uyg'unlashtiriladi.

Inflyatsiya, uning mohiyati, aniqlanishi va turlari

Inflyatsiya – bu pul aylanish kanallarining ortiqcha pul massasi bilan to'lib ketishi oqibatida narxlar o'rtacha (umumiy) darajasining ko'tarilib borishini va natijada milliy pul birligining qadrsizlanishini anglatadi.

Deflyatsiya – inflyatsiya ga qarama-qarshi jarayonni, ya'ni narxlarning umumiy darajasining pasayib borishini bildiradi.

Inflyatsiya namoyon bo'ladı:

- Tovar (xizmat)larning mavjud taklifiga nisbatan muomaladagi naqd pullar yoki moliyaviy aktivlar hajmining haddan tashqari ortib ketishida;
- Pulning sotib olish layoqatining pasayib borishi;
- Narxlarning uzoq muddatli umumiy o'sishida.

Inflyatsiya davrida milliy pul birligi quyidagilarga nisbatan qadrsizlanadi

- Tovar (xizmat)larga
- Oltin va boshqa qimmatbaho metallarga
- Barqaror chet el valutalariga

Inflyatsiya sur'ati narx indeksi (**R_i**) yordamida aniqlanadi. Narx indeksi – bu joriy davrdagi narxlarning (**R_j**) bazis davrdagi narxlarga (**R_b**) nisbatidir

$$R_i = \frac{R_j - R_b}{R_b} \times 100$$


Narx indeksi turlari

- | | |
|---------------------------------|---|
| Iste'mol tovarlari narx indeksi | Iste'mol savatiga kirgan tovarlarning joriy va bazis davrdagi narxlarini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. |
| Ulgurji narxlar indeksi | Korxonalar tomonidan an'anaviy ravishda sotib olinadigan investitsion tovarlar to'plami narxlari bo'yicha aniqlanadi. |
| YaMM (YalM) | Nominal va real YaMM (YalM) hajmining ikki davrdagi nisbatlari bilan aniqlanadi. |
| Eksport va import tovarlar | Asosiy eksport va import tovarlari narxlarining o'zgarishini aks ettiradi. |

Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablari

- Markaziy bankning pul massasini ko'paytirishga qaratilgan
- Davlat byudjeti xarajatlarining daromadlaridan oshib ketishi;
- Iqtisodiyotning milliylashtirilishi;
- Bozorning holati, unda raqobat mexanizmining amal qilishi
- Davlatning oshirilgan soliq solishga qaratilgan siyosati;
- Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining ortib borishi.
- Talabning nisbatan ortiqchaligi;
- Iqtisodiyotning «ochiqligi» darajasi.

Inflyatsiya turlari



Inflyatsiyaning iqtisodiy oqibatlari

- aholining o'rtacha turmush darajasi pasayadi;
- qayd qilingan (domiy) daromad oluvchilar real daromadi kamayadi;
- pul jamg'armalari qadrsizlanadi va pulga tenglashtirilgan mohiyaviy aktivlar real qiymati pasayadi;
- iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasidagi nomutanosiblik kuchayadi;
- investitsion tovarlar va uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar iqtisodiy ahvoli og'irlashadi;
- investitsiyalar foizining real stavkasi va foizli daromadlar kamayadi;
- bo'sh pul mablag'larining ishlab chiqarish sohasidan muomala sohasiga oqimi kuchayadi;
- budjet daromadlari qadrsizlanadi va budjet taqchilligi kuchayadi;
- davlatning ichki va tashqi qarzlarini miqdori o'sib boradi;
- barter ayirboshlash o'z o'miga ega bo'ladi.

Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati, inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatish, ya'ni inflyatsiya ustidan nazorat o'matish va narxlar o'sishini nisbatan past darajada ushlab turishga qaratiladi.

Davlatning inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan uzoq muddatli (strategik) chora-tadbirlari

Ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlar:

- foydaga imtiyozli soliqlar belgilash;
- ishlab chiqarish maqsadlariga imtiyozli kreditlar berish;
- yangi ish boshlagan korxonalarga subsidiyalar berish;
- tashqi savdo (eksport-import)ga imtiyozlar berish;
- samarali antimonopol tadbirlarni amalga oshirish.

Budjet taqchilligini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar:

- budjet daromadlarini ko'paytirish (soliq bazasini kengaytirish orqali);
- budjet xaratjatlarini kamaytirib borish;
- investitsion jarayonlarga davlatning aralashuvini nisbatan cheklash, asoslanmagan subsidiya hamda dotatsiyalarni kamaytirish va hokazo;
- fan-texnika taraqqiyotini, iqtisodiyotdagi ijobjiy tarkibiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash.

Pul massasini tartibga solishga qaratilgan tadbirlar:

- pul daromadlarining o'sishini cheklash yoki to'xtatib qo'yish;
- pul emissiyasini cheklash;
- davlat kreditlarini qat'iy chegaralash;
- banklararo kredit resurslarining auksionlarini kengaytirish;
- davlatning oltin va valuta zaxiralarini ko'paytirish;
- korxonalarni xususiy lashtirish jarayonini kengaytirish va hokazo.

Tashqi omillarning ta'sirini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar:

Bu tadbirlar chet el kapitallari, qisqa muddatli kreditlari va qarzlariga inflyatsiyaning ta'sirini kamaytirishga qaratiladi.

Davlatning inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan qisqa muddatli tadbirlari:

- qo'shimcha turdag'i mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarga imtiyozlar berish;
- iste'mol tovarlari importini kengaytirish;
- yangi xususiy korxonalar aksiyalarini sotishni rag'batlantirish;
- muddatli omonatlarga yuqori foiz stavkalarini belgilash;
- ichki bozor raqobatbardosh bo'lgan sharoitda milliy valuta kursini oshirish;
- davlat oltin va valuta zaxiralaridan qisman inflyatsiyani jilovlashda foydalanish.

Kredit mohiyati, shakllari va vazifalari

Kredit (lotincha credit – ishonch degan ma'noni anglatadi) juda qadim zamonalarda vujudga kelgan bo'lib, dastlab mulkdorlar tomonidan natural (g'alla, chorva va boshqa) keyin pul (sudxo'rlik kapitali) shaklida qarz berilishini anglatgan.

Kredit – egalari qo'shida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larmi ssuda fondi shaklida toplash va ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olishi va qaytarib berishi yuzasidan kelib chiqqan munosabatlardir.

Kredit shakllari

→ **Tijorat krediti** – bu korxonalar, tadbirkorlar va boshqa xo'jalik subyektlarining bir-biriga tovar shaklida beradigan kreditidir.

→ **Bank krediti** – bu moliya muassasalari (banklar, fondlar, assotsiatsiyalar) tomonidan har qanday xo'jalik subyektlariga pul shaklida – ssuda tarzida beriladi.

→ **Iste'mol krediti** – aholi ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan.

→ **Ipoteka krediti** – ko'chmas mulknii (yer, bino, uy-joy) garovga qo'yib olinadigan kredit.

→ **Davlat krediti.** Bir tomonidan, davlat aholidan, firma, korxona, tashkilotlar, banklardan qarz oladi. Ikkinci tomonidan, o'z mablag'lari hisobidan bankda qarz fondini tashkil etadi, xazinadan qarz beradi.

→ **Xo'jaliklararo pul krediti** – xo'jalik yurituvchi subyektlarni bir-biriga beradigan krediti.

→ **Xalqaro kredit** – bu ssuda kapitalining xalqaro miqyosdagi harakatidir.

Kredit resurslarining manbalari:

- amortizatsiya ajratmalar;
- mahsulot sotish va xizmat ko'rsatishdan olingan pul mablag'lari,
- korxonalarning ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish hamda moddiy rag'batlantirish fondlari;
- korxonalar foydasi;
- budjet tashkilotlari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning bankdagi joriy pul mablag'lari;
- aholining bo'sh turgan pul mablag'lari;
- bank resurslari va davlatning zaxiradagi pul mablag'lari;
- chet el investitsiyalarini va kreditlari.



Kredit vazifalari

- Taqsimlash
- Emissiya
- Nazorat qilish
- Bo'sh pul mablag'larining harakatdagi, oborotdagi kapitalga aylantirish.
- Rag'batlantirish.
- Tovar ishlab chiqarish uzlusizligini ta'minlaydi, ishlab chiqarish vaqtini qisqartiradi.

Kredit munosabati ikki subyekt o'rtaida, pul egasi, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtaida yuzaga keladi.

Bank tizimi va ularning asosiy vazifalari


Bozor iqtisodiyotining negizini bank tizimi tashkil etadi. Xilma-xil bo'lgan **bank tizimi** o'z ichiga bank tartibotlaridan tashqari, bozor faoliyati jarayonida shakllanadigan, kredit berish, qimmatli qoq'ozlar oldi-sotdisi, moliyaviy xizmatlari amalga oshirish, investitsiyalar, ssuda va hokazolar borasidagi iqtisodiy munosabatlarning deyarli butun majmuyini oladi.



Markaziy bank siyosatining instrumentlari

| Siyosat instrumentlari | Umumiy tavsif |
|-----------------------------------|---|
| <i>Pul emissiyasi</i> | Muomaladagi naqd pullar o'sishi. |
| <i>Zaxira siyosati</i> | Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining (va boshqa moliyaviy institutlar) depozit hisoblariga tu-shuvchi mablag'larning bir qismini majburiy zaxiraga ajratish me'yorini belgilanishi. |
| <i>Valuta siyosati</i> | Mamlakatda pul taklifi miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatish. MB valuta sotib pul miqdorini qisqartiradi, xarid qilib esa uning miqdorini oshiradi. |
| <i>Ochiq bozor siyosati</i> | MB tomonidan qimmatli qog'ozlar savdosи va xaridi. |
| <i>Hisob siyosati</i> | MB tomonidan tijorat banklariga ssudalar berish uchun hisob stavkasi yoki qayta moliyalashtirish stavkasi belgilanishi. |


Pul-kredit richaglaridan foydalanish



SHARQ-MOLIVIYA TIZIMINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning eng muhim muassasasi sifatida bank tashkilotlariga bo'lgan e'tibor iqtisodiy siyosatning markazida bo'ladi.


Banklar mandekalda bo'sh hujgan pul masblag'larini jemlab, uni zaroriy sohalarga tarqatish huquqini olgan moliyaviy tashkilot.



Respublikamiz hukumati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka katta e'tibor berilayotgan hozirgi kunda mazkur sohaga ajratilgan kreditlar hajmi yildan yilga ortib, 2008-yilda 1251 mlrd so'mni tashkil etdi. Ushbu berilgan kreditlar mamlakatimiz iqtisodiyotining asosi bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ravnaqiga xizmat qiladi.


Banklar – jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etavotgan vaqtida mamlaketaning eng inshin va samarali ishlaydigan moliyaviy instituti bo'lib qoladi.

Bank sohasida erishilgan yutuqlar



Bo'sh turgan pul mablag'larini tijorat banklariga jalb qilishni rag'batlantirish jahon moliyaviy inqirozi sharoitida banklarning o'z mablag'larini ko'payishiga va ularning investitsiya jarayonlaridagi faolligini oshishiga imkon yaratadi.

Bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklariga jalb qilishni rag'batlantirish yo'llari



Yaratilgan imtiyozlar

- uzoq muddatlari (15 yilgacha muddatga beriladi);
- kredit qaytarilishiga olti oy imtiyozli davr belgilanadi;
- kreditdan foydalanganlik uchun Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdorida foiz belgilanadi;
- soliqqa tortiladigan ish haqi va boshqa daromadlarning imtiyozli kredit mablag'lar va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'nalturilgan summasi daromad solig'i to'lanishidan ozod qilinadi;
- ish beruvchi tomonidan xodimiga uy-joy sotib olish uchun berilgan mablag'-lar daromad solig'i to'lanishidan ozod qilinadi;
- boshlang'ich badal sifatida jamg'ariladigan (namunaviy loyihaning 25 %dan kam bo'limgan miqdorda) omonatga (bir yildan kam bo'limgan muddatda to'plansa) Markaziy bankning amalidagi qayta moliyalash stavkasining 150 foizi miqdorida yillik daromad to'lanadi va intiyozli tarzda navbatsiz kredit olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kredit olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar

- ariza;
- qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchini pasport nusxasi;
- oila tarkibi to'g'risida yashash joyidan berilgan ma'lumotnoma;
- qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchini moliyaviy ahvolini tasdiqlovchi hujjatlar;
- namunaviy loyiha smeta qiymatining 25 foizidan kam bo'limgan miqdorida pul mablag'larni jamg'arilganligi to'g'risida ma'lumotnoma;
- «Qishloq qurilish invest» ixtisoslashtirilgan sho'ba injiniring kompaniyasi bilan buyurtmachi vazifasini bajarish uchun tuzilgan dastlabki shartnomasi.

Kreditni qaytarish tartibi

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiyalar, gonorollar, dividendlar, foizlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha olimadigan boshqa daromadlar hisobiga naqd pulsiz shaklda o'tkazish yo'li bilan;
- qarz oluvchi(birgalikda qarz oluvchilar)ning bankdag'i omonatlari bo'yicha hisob raqamlaridan naqdsiz shakldagi pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan;
- bank plastik kartochkalaridan pul mablag'larini naqdsiz to'lash yo'li bilan;
- naqdsiz shakldagi pul mablag'larini qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar)ning ish beruvchisi tomonidan, moddiy yordam mablag'ları va ipoteka kreditini to'lash uchun ajratulgan boshqa mablag'lar hisobidan pul o'tkazish yo'li bilan;
- fermer xo'jaliklarining yil yakuniga ko'ra shaxsiy tasarrufiga o'tadigan daromadlari hisobidan pul o'tkazish yo'li bilan, agar u qarz oluvchi yoki birgalikda qarz oluvchilar deb hisoblangan taqdirda;
- naqd pul topshirgan holda;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan to'lanadi.

Qishloq joylarda uy-joy qurilishini kengaytirish dasturi doirasida qishloq aholisiga qurilishni kompleks tarzda tashkilashtirish maqsadida bank tomonidan «Qishloq qurilish invest» ixtisoslashtirilgan sho'ba injiniring kompaniyasi tashkil etildi.

13-mavzu. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI

Reja:

1. Davlatning milliy iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli haqidagi nazarriya va qarashlar.
2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari.
3. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari.


Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli haqidagi nazarriya va qarashlar

Makroiqtisodiy tartibga solish – bu milliy xo'jalikni ijtimoiy tashkil etish va tartibga solish usullari va mazkur bosqichda tabriy, moddiy, mehnat, moliyaviy, intellektual va boshqa resurslarni jamiyat ehtiyojlariiga muvofiq tarzda taqsimlash mexanizmlari yig'indisi

Milhiy xo'jalikda makroiqtisodiy muvozanathikni ta'minlab borish va uning samarali faoliyat qilishiga erishish iqtisodiyotni tartibga solishni zarur qilib qo'yadi.

Iqtisodiyotni tartibga solish yo'llari:

- * O'z-o'zini tartibga solishning bozor mexanizmlariga amal qilishi
- * Iqtisodiyotni markazlashgan tarzda ma'muriy usullar yordamida tartibga solish.
- * Davlatning aralashuvini bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish orqali iqtisodiyotni tartibga solishga erishish.



ma'muriy-huquqiy tartibot; iqtisodiyotning huquqiy asoslarini yaratish; qonunlarga rioya etishni ta'minlash; jamiyatning muhim turmush sohalarini boshqarish, davlat dasturlari va davlat buyurtmalari; moliyaviy siyosat; ijtimoiy siyosat; davlat siyosatining boshqa turlari.

Davlat tartibotining asosiy yo'nalishlari

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi

- iqtisodiy o'sish
- to'la bandlik
- iqtisodiy samaradorlik
- iqtisodiy erkinlik
- mehnat qobiliyati bo'lмаганларни
- barqaror narx darajasi
- tashqi aloqalardagi balans

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – bu davlatning jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan iqtisodiy resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta'minlovchi, umumiyl iqtisodiy muvozanatga erishishga yo'naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha faoliyati tushuniladi.

Davlatning iqtisodiyotdagи rolini oshirish nazariyaliari

| | |
|--|---|
| A.Smitning «Tinch qo'yish» nazariyasi | 1929–1933-yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tannazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni taqozo qildi. |
| J.M.Keynsning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiyl nazariyasi» (1936) nomli asari | Davlat fiskal (xazinaviy) va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabani rag'batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta'minlashi zarur. |

Iqtisodiyotni tartibga solish nazariyasidagi neoklassik yo'nalishlar:

Birinchi oqim: – keyns ta'limoti izdoshlari bo'lib, davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi g'oyasini himoya qilishni davom ettiradi.

Ikkinchi oqim: – «Neokonservativizm» deb atalib, ular davlat xususiy firmlar va xo'jalik faoliyatiga aralashmasligi zarur degan qarashni yoqlab chiqadi. Ular o'z qarashlarini quyidagi dalillar bilan asoslaydi.

Davlatning yalpi talabni rag'batlantirishi budget taqchilligiga olib keladi. Uni pul emissiya qilish orqali qoplash inflyatsiyani vujudga keltiradi.

Davlatning daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan harakati soliqlarning o'sishiga sabab bo'ladi va bu tadbirkorlik faoliyati susayishi va foydaning kamayishi bilan birga boradi. Natijada iqtisodiyotda stagflyatsiya holati kuzatiladi.

Neokonservativ oqim yo'nalish (maktab)lari

Monetarizm – asoschisi amerikalik iqtisodchi M.Fridman hisoblanadi. Uning fikriga ko'ra davlatning iqtisodiyotga eng kam darajada aralashuvi pul muomalasi doirasida bo'lishi kerak. Monetaristlarning inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan tavsiyalari:

- pul taklifi va kredit berishni qattiq cheklash;
- pul emissiyasini ishlab chiqarishning o'sishiga mos ko'paytirish;
- Davlatning aholiga turli to'lovlarni kamaytirish hisobiga ijtimoiy dasturlarni qisqartirish.

Taklif nazariyasi – Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish siyosatida ustuvorlik tovarlar taklifini yalpi talabga moslashtirishga berilishi lozimligini qayd qiladi.

Ratsional kutish nazariyasi – Davlat bozor konyunkturasida kutilayotgan inqirozli holatlarni oldindan taxminlash va uning oqibatlarini yumshatish bo'yicha chora-tadbirlar belgilashga qaratish zarurligini qayd qiladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari

IDTTSning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tuzumnni mustahkamlash (mamlakat ichida va xalqaro maydonda) va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi.

Bu asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi. Ular jumlasiga iqtisodiy tsiklini barqarorlashtirish; milliy xo'jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish; atrof-inuhit holatini yaxshilash kabilarni kiritish mumkin. IDTTS maqsadi uning vazifalarida aniq namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifalari

davlatning
iqtisodiy
vazifasi

1. Bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon
tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'-
minlash; 2. Raqobatni himoya qilish.

davlatning
uchta vazifasi

1. Daromad va boylikni qayta taqsimlash; 2. Resurslarni qayta taqsimlash; 3. Iqtisodiyotni barqaror-
lashtirish.

huquqiy asosni
ta'minlash
vazifasi

1. Xususiy korxonalarining huquqiy mavqeyini mus-
tahkamlash; 2. Xususiy mulkchilik huquqini ta'-
minlash va shartnomalarga amal qilishni kafolat-
lash; 3. Iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi
qonuniy bitimlarni ishlab chiqish.

ijtimoiy mu-
hitni ta'minlash
vazifasi

1. Ichki tartibni saqlash; 2. Mahsulot sifati va og'ir-
ligini o'lchan standartlarini belgilash; 3. Milliy pul
tizimini muomalaga kiritish

daromadlar
tengsizligini
kamaytirish
vazifasi

1. Transfert to'lovlari muhtojlarni, nogironlarni va
birovning qaramog'ida bo'lganlarni nafaqalar bilan,
ishsizlarni ishsizlik nafaqalari bilan ta'minlaydi;
2. Davlat bozorni tartibga solish yo'li bilan, ya'ni
talab va taklif ta'sirida o'matiladigan narxlarни o'z-
gartirish yo'li bilan ham daromadlarning taqsimla-
nishiga ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari

Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solish usullari

bevosita ta'sir qilish usullari;
bilvosita ta'sir qilish usullari;
tashqi iqtisodiy usullar.

Davlat iqtisodiyotni bevosita tartibga solishda ma'muriy vositalardan foydalaniladi. Ma'muriy vositalar davlat hokimiyati kuchiga tayanadi va taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xarakterdagi tadbirkorlikni o'z ichiga oladi

Tartibga solishning ma'muriy vositalaridan foydalanish usullari

- a) iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari – transport, aloqa, atom va elektr energetikasi, kommunal xizmat va boshqa sohalarni bevosita boshqarish;
- b) narxlar va ish haqini «muzlatib» qo'yish siyosati;
- d) ish bilan bandlik xizmati (mehnat birjaları) faoliyatini tashkil qilish;
- e) iqtisodiy sohani tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish.

Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul-kredit va budjet siyosatida o'z ifodasini topadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- hisob stavkasini tartibga solish;
- moliya kredit muassasalarining markaziy bankdagi ehtiyojlari minimal hajmini o'rnatish va o'zgartirish;
- davlat muassasalarining qimmatli qog'ozlar bozoridaagi operatsiyalari (davlat majburiyatlarini chiqarish, ulami sotish va to'lash).

Davlat bu dastalar yordamida moliya bozorida talab va taklif nisbatini kutulgan yo`nalishda o`zgartirishga harakat qiladi. **Bunga quyidagi yo'llar bilan erishadi.**

Birinchidan davlat markaziy rezerv tizimi orqali banklar mablag`larining qarzga beriladigan va ehtiyoj (rezerv)da turadigan qismlari ulushini o`zgartiradi

Ikkinchidan, Markaziy rezerv tizimi boshqa banklarga past soiz hisobidan qarz berib, ularning kreditlash ishida faol qatnashib, iqtisodiy o'sishiga ta'sir qilishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, davlat markaziy rezerv tizimi orqali xazina majburiyatlarini tarqatadi, o'z obligatsiyalarini sotadi yoki qimmatli qog'ozlarini sotib oladi.

Soliqlar yordamida davlat tomonidan tartibga solish tanlangan soliq tizimiga, soliq stavkasi darajasiga hamda soliq turlari va soliq to'lashda berilgan imtiyozlarga bog'liq bo'ladi.

IDTTSning oliy shakli davlat iqtisodiy dasturlari hisoblanadi. Uning vazifasi tartibga solishning barcha usuli va vositalaridan kompleks foydalanishdan iborat. **Iqtisodiy dasturlar o'rta muddatli, favqulodli va maqsadli bo'lishi mumkin.** **O'rta muddatli** umumiqtisodiy dasturlar, odatda, besh yilga tuziladi. **Favqulodli dasturlar** tig'iz vaziyatlarda, masalan, inqiroz, ommaviy ishsizlik va kuchli inflyatsiya sharoitlarda ishlab chiqib, qisqa muddatli xarakterga ega bo'ladi. Amalda bozor iqtisodiyoti rivojlangan barcha mamlakatlarda **maqsadli dasturlar** amalga oshiriladi. Bunday maqsadli dasturlarning obyekti tarmoqlar min-taqalar, ijtimoiy sohalar va ilmiy tadqiqotlarning har xil yo`nalishlari bo'lishi mumkin.

IDTTS tashqi iqtisodiy usullar yordamida ham amalga oshiriladi. Bunda maxsus vosita va dastaklar orqali mamlakatning tashqi dunyo bilan amalga oshiriladigan xo'jalik aloqalariga bevosita ta'sir ko'rsatiladi.

Tovarlar, xizmatlar, kapital va fan-texnika yutuqlari eksportini rag'batlantirish tadbirlari, eksportni kreditlash, chet ellarga investitsiyalar va eksport kreditlarini kafolatlash, tashqi iqtisodiy aloqalarga cheklashlar kiritish yoki bekor qilish, tashqi savdoda boj to'lovlarini o`zgartirish, mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish yoki cheklash bo'yicha tadbirlar, mamlakatga chetdan ishchi kuchini jalb qilish. **xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda va davlatlararo integratsional uyushmalarda qatnashish mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solishning asosiy vositalaridir.**

Davlatning pul-kredit siyosatining asosiy vositalari

hisob stavkasini tartibga solish

moliya-kredit muassasalarining Markaziy bankdagi zaxiralari minimal hajmini o'rnatish va o'zgartirish

davlat muassasalarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari (davlat obligatsiyalarini chiqarish, ularni sotish va to'lash)

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish shakllari

davlat iqtisodiy dasturlarning ishlab chiqilishi

investitsiya jarayoni va iqtisodiy o'sishni davlat tomonidan tartibga solish

ishchi kuchi bozoriga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatish

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari, ixtirolarni davlat tonomidan rag'batlantirish hamda iqtisodiyotdagи ijobilij tarkibiy siljishlarni ta'minlash

qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va boshqalar

14-mavzu. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI

Kim tilanchilikdan saqlangan holda, oilasi uchun harakat qilib,
pokligini saqlash bilan mol-dunyoni halolini talab qilsa, qiyomat kuni
Alloh taolo uni yuzi to'lin oy kabi balqigan holda tiriltiradi.

(Hadisdan)

Reja:

1. Aholi daromadlari, uning turlari va shakllanish manbalari.
2. Daromadlar tengsizligi, uning sabablari va omillari. Lorens egri chizig'i.
3. Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari.
4. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning ijtimoiy siyosati.

Aholi daromadlari, uning turlari va shakllanish manbalari

Aholi daromadlari deyliganda, ularning ma'lum vaqt oralig'ida, odatda, bir yilda olgan pul mablag'lari va moddiy ne'matlari (uy xo'jaligida ishlab chiqilgani bilan birga) summasi tushuniladi.

Aholi iste'mol darajasi to'g'ridan to'g'ri ularning daromadlari darajasiga bog'liq bo'ladiki, bu daromadlarning aholi turmush darajasidagi rolini belgilab beradi.

Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollar uchun ishlab chiqargan mahsulotlardan iborat bo'ladi.

Aholi shaxsiy daromadi tarkibiy tuzilishi

| | |
|--|---|
| 1) Pul va natural shakldagi ish haqi va maosh. | Ijtimoiy bandlikdan olinadigan daromadlar |
| 2) Qurolli kuchlar xizmatchilarining pul va natural ko'rinishdagi ta'minotlari. | O'zini-o'zi band qilishdan daromadlar |
| 3) Tadbirkorlarning ajratmalari: a) ijtimoiy sug'urta va shu kabilarga; b) boshqa maqsadlarga. | |
| 4) Erkin kasblardagi shaxslar | |
| 5) Fermerlar | |
| 6) Boshqa yakka tartibdag'i tadbirkorlar va savdogarlar | |
| 7) Renta, sof foiz, dividendlar | Mulkdan olinadigan daromadlar |
| 8) Joriy transfertlar, kompaniyalarning xaynyaları | Transfert daromadlari |
| 9) Davlat nafaqalari va boshqa to'lovlar | |

Aholi daromadlari darajasi

- **Nominal daromad** – aholi tomonidan ma'lum vaqt oraliq'ida olingan daromadlarining pul ko'rinishidagi miqdori

Ixtiyorida bo'lgan daromad – shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan daromad

Real daromad – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori

AHOLINING NOMINAL PUL DAROMADLARI MANBALARI

Ishlab chiqarish omillari hisobiga olinadigan daromad (ish haqi)

Davlat yordam dasturlari bo'yicha to'lov va imtiyozlar shaklidagi pul tushumlari

Moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pud daromadlari

Real daromad darajasini belgilab beruvchi omillar:

- Nominal daromad summasi;
- Narx darajasi;
- Soliqlar va boshqa to'lovlar miqdori.

Aholi nominal daromadi manbalari:

- Ishlab chiqarish omillari hisobiga olinadigan daromad
- Davlat yordami dasturlari hisobiga olinadigan pul mablag'lari
- Moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pul mablag'lari

Aholi moliya-kredit tizimi orqali oladigan pul mablag'lari:

- ❖ Sug'urta bo'yicha to'lovlar
- ❖ Omonatlar hisobiga foizlar.
- ❖ Aksiya hisobiga olinadigan dividend.
- ❖ Lotereya yutuqlari.
- ❖ Obligatsiyalar bo'yicha foiz.
- ❖ Zayom to'lovleri.
- ❖ Shaxsiy uy qurilishiga beriladigan ssudalar.
- ❖ Har xil qoplovchi to'lovleri.


Ish haqi mazmunini aniqlash borasidagi yondashuvlar

| Yondashuv yo'nalishi | Asoschilar | Qisqacha mazmuni |
|---|---|--|
| «Yashash uchun vosita minimumi» konsepsiya si | D.Rikardo, T.Maltus | Ish haqini yashash uchun zarur vositalarning fiziologik minimumi bilan bir xil, deb hisoblanadi |
| Ishchi kuchi qiymatining o'zgargan shakli | Ingliz klassik siyosiy iqtisod mabktabi, marksistik yo'nalishdagi iqtisodchilar | Ish haqi ishchi kuchi tovar qiymatining puldagi ifodasi sifatida qaralib, uni ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tirkchilik vositalari qiymati sifatida aniqlanadi |
| Ish haqini mehnat bahosi sifatida ifodalash | Zamonaviy iqtisodiyot nazariy asining ko'plab vakillari | Ish haqini bozordagi ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif nisbati orqali belgilanuvchi mehnat bahosidan iborat, deb belgilanadi |


Ish haqi ishchi va xizmatchilar mehnatinining miqdori, sifati va unundorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasi

Nominal ish haqi – ma'lum vaqt davomida olingan pul summasi yoki pul shaklidagi ish haqi


Real ish haqi – nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori



Ish haqini belgilovchi asosiy omillar



Tarif tizimi



Daromadlar tengsizligi, uning sabablari va omillari. Lorens egri chizig'i

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti daromadlar mutlaq miqdorining o'sib borishini taqozo qilsada, lekin uning nisbiy miqdorlaridagi farq (turli mamlakatlar va alohida mamlakat aholisi turli qatlamlari o'rtaсидаги) har qanday sharoitda saqlanib qoladi. Demak iqtisodiy o'sish va aholi daromadlari miqdorining ko'payishi daromadlar tengsizligini bartaraf qila olmavdi.

Daromadlar tengsizligi aholi daromadlarining o'rtacha darajasidan, alohida oilalar, aholi qatlamlari va guruhlari daromadlarining farq qilishlik darajasini ko'rsatadi.


Daromadlar tengsizligi va uning miqdori turli darajada aniqlanadi:

- dunyo mamlakatları bo'yicha;
- alohida mamlakatlar darajasida;
- ma'muriy-hududiy birliklar darajasida.

Daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar

- Kishilarning umumiy layoqatidagi (jismoniy, aqliy va estetik) farqlar;
- Ta'llim va malakaviy tayyorgarlik darajasidagi farqlar;
- Tadbirkorlik mahorati va riskka moyilligi darajasidagi farqlar;
- Bozorda hukmronlik qilish layoqati;
- Mulkka egalik qilishdagi farqlar;
- Omad, tasodif va boshqa favqulodda holatlar.

Daromadlar **tengsizligi darajasini miqdoriy o'lhash** uchun jahon amaliyotida **Lorens egri chizig'idan foydalilanildi** «oilalar ulushi» yotiq chiziqda, «daromadlar ulushi» esa tik chiziqda joylashgan. Nazariy jihatdan daromadlarning mutlaq teng taqsimlanishi imkoniyati bissektrisa o'qida burchakni teng ikkiiga bo'luvchi ifodalangan bo'lib, u oilalarning xar kanday mazkur foizi daromadlarning mos keluvchi foizini olishini ko'rsatadi. Bu oilalarning 20 % barcha daromadlarning 20 %ni olsa, 40 % – 40 %, 60 % – 60 % va hokazoni olishini bildiradi. mos keluvchi nuqtalar bissektrisa o'qida joylashadi. **Mutlaq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorens egri chizig'i o'rtasidagi tafovut daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi.** Lorens egri chizig'idan turli davrlarda yoki turli mamlakatlarda yoki aholining turli guruhlari o'rtasida daromadlarning taqsimlanishini taqqoslash uchun foydalaniishi mumkin. Bunda soliqlar chiqarib tashlangan va chiqarilmagan hamda ijtimoiy transport to'lovlarini o'z ichiga olgan daromadlar hisobga olinadi.



Lorens egri chizig'i

Daromadlar tabaqalanishini aniqlash ko'rsatkichlari

| | |
|------------------------------|--|
| Ditsel koeffitsiyenti | Bu ko'rsatkich 10 foiz eng yuqori ta'minlangan aholi o'rtacha daromadlari va 10 foiz eng kam ta'minlanganlar o'rtacha daromadi o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada bu nisbat 13:1ga, Shvetsiyada esa 5,5:1ga teng. |
| Jini koeffitsiyenti | Yalpi daromadning aholi guruhlari o'rtasida taqsimlanishini tafsiflash uchun aholi daromadlari tengsizligi indeksi ko'rsatkichidan foydalanishni ifodalaydi. Jini koeffitsiyenti chizmadagi Lorenz egri chizig'i bilan mutlaq tenglik chizig'i o'rtasidagi yuzaning OFE uchburchak yuzasiga nisbatli orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich qanchalik katta bo'lsa (ya'ni 1,0 ga yaqinlashsa), tengsizlik shuncha kuchli bo'ladi. Jamiyat a'zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko'rsatkich 0 (nol)ga intiladi. Masalan, keyingi yarim asr davomida Jini indeksi Buyuk Britaniyada 0,39 dan 0,35 ga qadar, AQShda esa 0,38 dan 0,34 ga qadar pasaygan. |

Davlatning milliy daromadni qayta taqsimlash vazifasidan asosiy maqsad daromadlar tengsizligidan farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a'zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta'minlashdan iborat. Bunday maqsadni ruyobga chiqarish shakli bo'lib, mahsulot va xizmatlarni taqsimlash, transfert to'lovlar hamda daromadlarni barqarorlashtirish bo'yicha davlat dasturlari mablag'larining bir qismi davlat budjeti orqali shakllanadi va markazlangan holda foydalaniladi. Mablag'larning boshqa qismi korxonaning o'z foydasi va fondlari hisobiga tashkil topadi.


Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari

 **Aholi turmush darajasi** – aholining hayot kechirishi uchun zarrur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda ular ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi.

Aholi turmush darajasining ko'rsatkichlar tizimi guruhlari

- 1) tug'ilish va o'lish darajasi hamda boshqa demografik ko'rsatkichlar;
- 2) hayot kechirishning sanitar-gigiyena jihatidan sharoitlari;
- 3) oziq-ovqat tovarlarini iste'mol qilish;
- 4) turar-joy sharoitlari;
- 5) ma'lumot va madaniyat;
- 6) mehnat qilish va bandlik sharoitlari;
- 7) aholining daromadlari va xarajatlari;
- 8) hayot kechirish qiymati va iste'mol narxlari;
- 9) transport vositalari;
- 10) dam olishni tashkil etish;
- 11) ijtimoiy ta'minot;
- 12) inson erkinligi.

Iste'molchi budgetining turlari



Turmush tarzi – bu kishilar (jamiat, ijtimoiy qatlam, shaxs)-ning milliy va jahon hamjamatiyidagi hayot faoliyati turi hamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya.

TURMUSH TARZI QUYIDAGILARDA NAMOYON BO'LADI:


- mehnat, uni tashkil etishning ijtimoiy shakllari;
- turmush va bo'sh vaqtdan foydalanish shakllari;
- siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish;
- moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish shakllari;
- kishilarning kundalik hayotdagi xulq-atvori me'yorlari va qoidalari.

Eng kam iste'mol budjetini hisoblash usullari:


- iste'mol savati asosida;
- regressiv usul: iste'molning eng kam qiymati, turli xarajatlar va daromadlar nisbati orqali;
- ekspert baholash asosida sotsiologik kuzatish o'tkazish orqali.

Iste'mol savati – insonning muayyan darajadagi ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori bo'lib, u joriy bozor narxlari bo'yicha hisoblanadi.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, XQP bo'yicha AQSh dollari hisobida (yil boshiga nisbatan)




Aholi pul daromadlari differensiyasi darajasi



Jamiyat tarkibida o'rta qatlarning ulushi



O'rtacha oylik ish haqining xarid qobiliyati (minimal iste'mol savatchasiga nisbatan, marta hisobida)



Davlatning daromad siyosati tegishli daromadlarni tabaqalashgan soliq solish yo'li bilan shakllantirish va uni budjet orqali aholi turli guruhlari o'rtaida qayta taqsimlashdan iborat. Bunga milliy daromadning ma'lum qismi yuqori daromad oluvchi aholi qatlidan past daromad oluvchilar qo'liga o'tadi. Davlat daromadlarni qayta taqsimlashda ijtimoiy to'lovlar bilan birga bozor yo'li bilan o'matiladigan narxlarni o'zlashtirish (masalan, fermerlarga narxlarni kaflatlash) va ish haqining eng kam darajasini belgilash usullaridan foydalanadi.

Ijtimoiy to'lovlar – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural yordam tadbirlari tizimi bo'lib, bu ularning xo'jalik hayotida qatnashishi bilan bog'liq bo'lmaydi. Ijtimoiy to'lovlarning maqsadi jamiyatdagi munosabatlarni insonparvarlash-tirish hamda ichki talabni ushlab turish hisoblanadi.

Ijtimoiy amaliyotda qashshoqlikning o'zi **hayot kechirish minimumi** yordamida aniqlanadi. Bu **ijtimoiy va fiziologik (jismoniy)** minimumda ifodalanadi. Ijtimoiy minimum jismoniy ehtiyojlarni qondirishning minimal normasi (meyori) bilan birga ijtimoiy talablarning minimal xarajatlarini ham o'z ichiga oladi. Fiziologik minimum esa faqat asosiy jismoniy ehtiyojlarni qondirishni ko'zda tutadi.

Daromadlarni ushlab turishning keng doiradagi davlat dasturlari ayrim kamchiliklardan holi bo'lmasa, ular o'z ichiga ancha katta hajmdagi pul sarflarini va nafaqa oluvchilarning asosiy qismini qamrab oladi. **Bu dasturlar umumiylashtiriladi va davlatning xayr-ehson dasturlari hisoblanadi.**

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o'rtaida ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat. Respublikada bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy siyosat aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratiladi hamda **alohida yirik yo'nalishlarda amalga oshiriladi.**

Birinchi
yo'nalish

Narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshurib borish

Ikkinci
yo'nalish

Ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish

Uchinchi
yo'nalish

Aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash

Yangilangan ijtimoiy siyosat adolat tamoyillariga izchillik bilan rioxalishga asoslanib, ijtimoiy ko'maklashishning mavjud usullarini va pul bilan ta'minlash manbalarini tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi. Bu siyosat ijtimoiy himoya aniq maqsadi va aholining aniq tabaqalarini qamrab olishni ko'zda tutadi. Yordam tizimi faqat kam ta'minlangan va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nisbatan qo'llanilib, shu maqsad uchun davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, turli tashkilot hamda jamg'armalarning mablag'lardan ham foydalilanildi.

Ijtimoiy ko'maklashishning yangi tizimida bolalar va kam daromadli oilalar yordamdan bahramand bo'luvchi asosiy kishilar hisoblanib, ular uchun hamma nafaqa va moddiy yordamlar faqat oila orqali yetkazib beriladi.

Ijtimoiy ko'maklashishning yangi tizimini mehnatga ragbatlantiradigan omillar va vositalar yangi tuzilmasi paydo bo'lishini ham taqozo qiladi.

15-mavzu. JAHON XO'JALIGI, UNING EVOLYUTSIYASI VA UMUMBASHARIY IJTIMOY-IQTISODIY MUAMMOLAR

Reja:

1. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalmilallahuvi.
2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon infrastrukturasi rivojlanishi.
3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va obyektiv asoslari.
4. Jahon xo'jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish.
5. O'zbekiston jahon hamjamiatiga kirib borish va tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalmilallahuvi


Jahon xo'jaligi (jahon iqtisodiyoti) – bu xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan, iqtisodiy munosabatlari bilan o'zaro bog'langan milliy xo'jaliklarning o'zaro yaxlitligidir.

Jahon xo'jaligining vujudga kelish shart-sharoitlari:

- Xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashishning qaror topishi va rivojlanishi;
- transport, aloqa va xalqaro kommunikatsiya tizimlari rivojlanishi;
- kapitalning to'planishi va markazlashishi oqibatida xalqaro monopoliyalar vujudga kelishi;
- FTT va ishlab chiqarishning baynalmilallahuv jarayonini kuchayib borishi.

➤ Halqaro mehnat taqsimoti – boshqa mamlakatlarga nisbatan ba'zi afzal sharoitlarga ega bo'lgan mamlakatlarni ma'lum turdag'i tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi.

Halqaro mehnat taqsimotining zamonaviy bosqichi



Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi

Ishchi kuchi migratsiyasi – bu mehnatga layoqatli aholini milliy chegaralardan tashqariga joylashishi, ko‘chishi.

Joylashishning sabablari

iqtisodiy

- malakasiz ishchi kuchiga talab pasa-yishi va unga nisbatan taklifning ortishi;
- rivojlangan mamlakatlarda yuqori mala-kali mutaxassislarga talab ortishi;
- davlatlararo ish haqidagi farq.

noiqtisodiy

- demografik;
- siyosiy;
- diniy;
- milliy;
- madaniy;
- oilaviy va h.k.


Mehnat resurslarining xalqaro joylashuvidan ijobiy va salbiy tomonlar

| | |
|---|---|
| Migrantlar uchun | yangi joyga ko‘chish va joylashish bilan bog‘liq yo‘qotishlar yangi madaniyat, til va muhit va hokazoga moslashish muammolari ishga joylashish, yaxshi mehnat sharoiti va ish haqqidan foydali shartlarni olish ehtimoli |
| Chetga jo‘natuvchi mamlakatlar uchun | jamiyat mehnat resurslarining bir qismini (odatda, yaxshisini) yo‘qotish («ziyolilarning chiqib ketishi») davlat budgetidagi milliy daromadlar va soliq tushumlari ma’lum qismining yo‘qolishi to‘lov balansining daromadlar qismi to‘ldirilishi (emigrantlarning pul o‘tkazmalari) jamiyatda bandlik va ijtimoiy keskinlik muammolarini yengilashtirish |
| Qabul qiluvchi mamlakatlar uchun | ish beruvchilarning daromadlarini ko‘paytirish (xorijiy ishchi kuchi arzon) ta‘lim va kishilarni o‘qitish xarajatlarini tejash, milliy daromad ortishi mahalliy aholi va immigrantlar o‘rtasidagi ehtimoliy ijtimoiy nizolar |
| Jahon uchun | ishsizlikni qisqartirish, jahon mahsulot ishlab chiqarishini oshirish madaniyat va xalqlarni yaqinlashtirish, jahon hamjamiyatida tinchlik va totuvlikni mustahkamlash |

E.F.Borisov jahon xo'jaligi shakllanishining to'rt bosqichi

| | |
|---|---|
| Birinchi bosqich ishlab chiqarishning sanoatlashuvidan oldingi davr | Dastlab o'sha davrdagi kishilar jamoalari yoki qabilalari o'rtasida paydo bo'lgan savdo ayirboshlashuvi keyinchalik tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan turli mamlakatlar o'rtasidagi doimiy tovar ahnashuvi – xalqaro savdoning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi |
| Ikkinci bosqich ishlab chiqarishning sanoatlashuv davri | Yirik mashinalashgan ishlab chiqarishning vujudga keliishi va tadbirdorlarning ko'proq foyda olishga intilishi tashqi savdoni deyarli barcha milliy xo'jaliklarning tarkibiy qismiga aylantirib qo'yishi natijasida XVIII–XIX asrlarda rivojlangan jahon bozori paydo bo'ldi |
| Uchinchi bosqich XIX–XX asrlar | Bu davrda jahon xo'jaligi tizimi shakllandi |
| To'rtinchi bosqich XX asrning 60-yillari | Ko'plab mustamlaka mamlakatlarning siyosiy qaramlikdan ozod bo'lishi natijasida zamонавија jahon iqtisodiyotida ijobiy o'zgarishlarning yangi tendensiyalari paydo bo'ldi |

Globallashuv jarayonining asosiy yo'nalishlari



Jahon xo'jaligi globallashuvi
jarayonlarining ziddiyatlari

turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning
bir tekisda bormasligi

boy va qashshoq mamlakatlar o'rtaсидаги:
farqning kuchayishi

ekologik halokat tahdidlarining kuchayib borishi

turli mamlakatlarda aqoli soni
o'zgarishining farqlanishi

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jahonning hamma mamlakatlarining xo'jalik munosabatlaridagi o'zaro ta'sirlashish xarakteri va usullarini tafsiflaydi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar:

- xalqaro tovar va xizmatlar savdosi;
- xalqaro kredit;
- kapitalning xalqaro migratsiyasi;
- mehnat resurslarining xalqaro migratsiyasi;
- xalqaro ilmiy-texnik aloqalar;
- erkin iqtisodiy hududlar;
- valuta munosabatlari;
- iqtisodiy integratsiya.

Jahon bozori XVI asrda, buyuk geografik kashfiyotlar davrida tug'ildi.

Kapitalning xalqaro harakati – bu kapitalning chet elda joylashtirilishi va faoliyat ko'rsatishi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihatlaridan biri **ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi** hisoblanib, u o'z ifodasini mehnat resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishida topadi.

Xalqaro migratsiya jarayonini iqtisodiy omillar bilan birga siyosiy, etnik, madaniy, oilaviy va boshqa xarakterdagи omillar ham taqozo qiladi.

Fan-texnika yutuqlari bilan xalqaro ayirboshlash har bir shakllarda amalga oshiriladi. U ilmiy-texnikaviy axborotlar, mutaxassislar, fan sohasi xodimlari bilan ayirboshlashni, tadqiqot va yangiliklarni litsenziya asosida berishni, ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazishni, umumiy fan texnika va texnologiyani ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma tadbirkorlikni o'z ichiga oladi.

Jahon infrastrukturasi. Tovarlar, ishchi kuchi, moliyaviy vositalarning milliy chegaralar orqali to'xtovsiz o'sib boruvchi harakati butunjahon infrastrukturasing rivojlanishi va takomillashuvini tezlashtiradi.

Jahon mamlakatlari guruhi:

– **sanoati rivojlangan mamlakatlar** – bozor iqtisodiyoti, ilgor va samarali ishlab chiqarish, aholi jon boshiga yuqori YaMM/YaIM ko'rsatkichi va muvofiq tarzda kishilarning yuqori sifatli turmush darajasiga ega **IHRT mamlakatlari** (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti);

– **yangi sanoatlashgan mamlakatlar** – bozor iqtisodiyoti shiddatli o'sib borayotgan, fan va texnika taraqqiyoti, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va eksporti yuqori sur'atda ortib borayotgan, jamiyatda erkinliklar rivojlanayotgan va demokratiyaga ega davlatlar. Bu – Koreya, Singapur, Tayvan va boshqalar;

– **neftni eksport qiluvchi mamlakatlar** – Saudiya Arabiston, Quvayt va qator OPEKka a'zo mamlakatlar – XX asrning so'nggi choragida xorijga neftni ko'p miqdorda yetkazish orqali o'z daromadlarini keskin ko'tara oldilar.

– **o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar** – samarasiz «buyruqbozlik iqtisodiyoti»dan ozod bo'lgan va demokratiya, shaxs erkinligi, ochiq jamiyat, huquqiy-bozor munosabatlariiga o'tgan mamlakatlar;

– **iqtisodiy qoloq mamlakatlar** – jahonning rivojlanmagan, qashshoqlik va kambag'allikdan aziyat chekayotgan (taxminan 100 ta) Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarining bir qismi (Somali, Efiopiya, Bangladesh, Burma, Gayana, Gaiti va boshqalar).

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning moliyati, shakllari va obyektiv asoslari

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – siyosiy mustaqilligini saqlangani holda umumiy iqtisodiy maqsadlarni ko'zlagan mamlakatlarning birlashishi.

Xalqaro iqtisodiy Integratsiyaning o'ziga xos belgilari:

XMT ning jadal rivojlanishi va kooperatsiya; mamlakatlararo hamkorlikning ma'qullanishi; davlatning kelishilgan iqtisodiy siyosati, hamkor mamlakatlar bilan hamkorlik hududlari kengayishi.

Integratsiya mavjud muammolarni unumli hal etish uchun mamlakatlarni birlashtirish jarayonini o'zida namoyon etadi.

U xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va milliy takror ishlab chiqarish jarayonlariga birgalikda kirib borish asosida milliy xo'jaliklar o'rtaida chuqur va barqaror o'zaro aloqlarni o'rnatishni ko'zda tutuvchi **xo'jalik hayotini baynalminalashtirishning oliy darajada namoyon etish shakli** sifatida ishtirok etadi.

Integratsion birlashmalarning asosiy turlari

Erkin savdo hududlari – ishtirokchi mamlakatlar o'zaro savdoda bojxona to'siqlarini bekor qilish bilan cheklanadilar.

Bojxona ittifoqi – guruh ichida tovar va xizmatlarning erkin joylashtirilishi uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tariflarini to'ldiradi va bojxona daromadlarini mutanosib taqsimot tizimi yaratiladi.

Umumiy bozor – ishchi kuchi va kapitalni joylashtirish uchun o'zaro savdoda mamlakatlar o'rtaсидаги to'siqlarni bartaraf etadi.

Iqtisodiy ittifoq – umumiy bozor va yagona iqtisodiy siyosat o'tkazish, mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlatlararo tartibga solish tizimini tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Valuta ittifoqi – yagona bank tizimi va yagona valutaga asoslangan iqtisodiy ittifoq.

Erkin iqtisodiy zona – mamlakat hududining imtiyozli bojxona, valuta, sohilq viza va mehnat rejimlari joriy etilgan maxsus ajratilgan qismidir.

Jahon amaliyotida erkin iqtisodiy zonalar xo'jalik faoliyatining ixtisoslashuviga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi: erkin savdo zonalar, sanoat ishlab chiqarish zonalar, ilmiy-teknologik (texnoparklar, texnopolislari), offshor markazlar, iqtisodiy-ekologik va tor sohaga ixtisoslashgan zonalar (turistik) va kompleks zonalar.

«Offshor» atamasi ilk bora 1950-yilda AQShda qo'llanila boshlagan «Offshor» «off shore» inglizcha so'zdan olingan bo'lib. **qirg'oqdan tashqarida** degan ma'noni anglatadi. Offshor zona esa muayyan davlatning iqtisodiy jihatdan erkin hududidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2008-yil 2-dekabrdagi qabul qilingan «Navoiy viloyatida erkin industorial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi farmoni viloyat, xususan, Navoiy shahrining ishlab chiqarish salohiyatini yanada mustahkamlash, transport va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, yuqori texnologiya-alarni joriy etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida yangi imkoniyatlarni ochib berdi.

«Navoiy» EIIHining boshqaruvi tuzilmasi. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2009-yil 27-yanvardagi qaroriga ko'ra «Navoiy» EIIH faoliyatini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi organ Boshqaruvi kengashi hisoblanadi. Boshqaruvi kengashi «Navoiy» EIIHning samarali faoliyatini ta'minlash masalalari bo'yicha davlat organlari vakillari kollegiyasidan iborat.

Boshqaruvi kengashi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- «Navoiy» EIIHga joylashtirish uchun investorlar tanlovini o'tkazish, asosiy investitsiyalash sharoitlarini kelishib olish;
- «Navoiy» EIIH faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha joylarda davlat organlari va davlat boshqaruvi idoralari faoliyatini muvofiqlashtirishni amalgaloshirish;
- davlat mulki hiscblangan binolar va uskunalar, shuningdek, yer maydonlari ijarasining qiymatini belgilash;
- markaziy manbalar hisobidan moliyalashtirilayotgan «Navoiy» EIIHning ishlab chiqarish infratuzilmasi qurilishi loyihalarni tasdiqlash;

• «Navoiy» EIIHning Direksiyasi direktorini tayinlash, «Navoiy» EIIHning Direksiyasi faoliyatini nazorati va boshqaruvini amalga oshirish, shuningdek, «Navoiy» EIIH taraqqiyot fondi va mustaqil fondlari mablag'larining foydalanishini nazorat qilish;

• investitsiyalash majburiyatlarini bajarilmaganligi sababli muddatidan oldin bitimini bekor qilish qarorlarini qabul qilish.

«Navoiy» EIIH faoliyatining operativ boshqaruvini Direksiya amalga oshiradi. Direksiya ustavini O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi tashdiqlaydi.

«Navoiy» EIIH Direksiyasi:

• «Navoiy» EIIHi ishtirokchilarining reestrini nazorat va registratsiya qilish, shuningdek ularga muvofiq ravishda guvohnomalar berish;

• «Navoiy» EIIHining ishtirokchilari bo'lmagan boshqa subyektlarni hisobga olish;

• «Navoiy» EIIHining ishtirokchilari va boshqa xo'jalik subyektlariga huddagi yerlarni ijaraga berish. Hududdagi yerlarni sotish yoki boshqa birovning nomiga o'tkazish ma'n qilinadi;

• «Navoiy» EIIHi territoriyasida joy lashgan davlat mulkiga kiruvchi ko'chmas mulk obyektlarini o'zining doirasida boshqaradi;

• investorlarni o'ziga tegishli majburiyatlarini bajarishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

• Boshqaruv kengashi qarorları asosida investitsiyalash kelishuvlarini bekor qilishni sudda ko'rib chiqadi;

• «Navoiy» EIIHi faoliyatining boshqa operativ boshqaruvi bo'yicha funksiyalarini bajaradi.

«Navoiy» EIIHning konsepsiysi. Navoiy shahri aeroporti bazasida erkin iqtisodiy-industrial zonani tashkil qilish konsepsiyasini 3 bosqichda ularning har birida 500 hektar erkin maydonni o'zlashtirish rejasi asosida innovatsion-industrial, transport-logistika va ijtimoiy-rekreatsion kompleksni tashkil etishga asoslangan.

Yaratilayotgan industrial EIIH kompleksida mahalliy xomashyoga asoslangan xorijiy bozorda raqobatbardosh ishlab chiqarishni tashkil qilish rejalashdirilgan. Mavjud xomashyo potensiali yirik nomenklaturada tayyor mahsulotlarni, ayniqsa, to'qimachilik, tikuv va charm-poyafzal tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari, kimyoviy, neft-kimyoviy, farmatsevtika, qurilish, shuningdek, elektrotexnika, telekomunikatsiya va mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatini beradi.

Innovatsion texnologiyalarini qo'llash va ishlab chiqarishni avtomatlashdirish natijasida ekologik jihatdan toza va energiya tejamkor ishlab chiqarish afzalliklarini olish mumkin.

Ishlab chiqarish kompleksining territoriyasi Navoiy shahriga yaqin bo'lgan 556 ga maydonga joylashishi rejalashtirilgan. Binolarni qurish rejasiga asosan EIIH territoriyasida birinchi bosqich davomida 220 tagacha turli quvvat va mas-shtabdagi korxonalar tashkil qilish imkoniyati mavjudligi sababli, sanoat korxonalarini joylashtirish uchun 6,5 dan 250 ga gacha bo'lgan 21ta klaster maydoni ajratiladi. 2009-yilga kelib umumiy qiymati 900 million dollargacha bo'lgan 20-40 ta investitsiya loyihibarini, 2010-yilda esa umumiy qiymati 5,5 mlrd dollardan ortiq bo'lgan 120 tagacha bo'lgan investitsiya loyihibarini amalga oshirishni boshlash imkonini beruvchi tashkiliy chora-tadbirlar olib borildi.

Navoiy EIIH maxsus iqtisodiy hududning barcha klassik funksiyalarini – yangi texnologiyalarni, investitsiyalarni jalb qilish va boshqalarni bajaradi. EIIH «o'sish nuqtasining» lokomotivini tashkil etib, bu narsa umummilliy mas-shtabda iqtisodiy modernizatsiya jarayonlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga Navoiy EIIH oddiy gina iqtisodiy sanoat hududi bo'lmasdan, o'zining yirik transport-logistika salohiyati va qulay geografik joylashuviga asoslangan jozi-badorligi bilan ajralib turadi. Chunki Navoiy EIIH nafaqat sanoat-innovatsiya markazi, balki logistika markazi ham hisoblanadi. Navoiy EIIHni tashkil etilishi Navoiy viloyatining bir tarmoqli taraqqiyotini bartaraf etish imkonini beradi. Hozirgi kunda bu yerda tog'-metallurgiya tarmog'i yaxshi rivojlangan. Ammo har qanday konlar ham odatda tugaydi. Strategik taraqqiyot dasturi asosida 20-30 yildan so'ng viloyatdagi mavjud tarmoqlar atrofida yangi sohalarni yaratish orqali industrial-innovatsion taraqqiyot salohiyati oshadi.

Navoiy EIIHda sanoatning mashinasozlik, stanoksozlik tarmoqlarini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Mintaqada katta foydalilmayotgan kremliy zaxirasi mavjud bo'lib, quyosh batareyalari uchun kremliy plastinalarini ishlab chiqaruvchi korxona tashkil qilish mumkin. Buning uchun faqat zamonaviy texnika-texnologiyalarni olib kirish kerak. Mahalliy xomashyoga asoslangan zamonaviy to'qimachilik tarmog'ini, oziq-ovqat mahsulotlarini, shuningdek, qurilish materiallarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin.

Faoliyat ko'rsatish muddati. «Navoiy» EIIHning faoliyat ko'rsatishi 30 yil bo'lib, keyinchalik cho'zilishi mumkin. Bu davr mobaynida, bu yerda alohida bojxona, valuta va soliq rejimi, kirish, yashash va chiqib ketish, shuningdek O'zbekiston fuqarolari va norezidentlarining ish faoliyatini amalga oshirishga ruxsat olishning soddashtirilgan tartibi amal qiladi.

Qonunchilik va institutsional asoslar. O‘zbekistonda «Navoiy» EIIH konsepsiyasini samarali amalga oshirilishi uchun hozirgi paytda EIIH faoliyatining qonuniy va tashkiliy sharoitlariga muvofiq keng ko‘lamlı ishlarni amalga oshirish davom etmoqda.

EIIH faoliyatining qonuniy asoslarini 2009-yilning yanvarida qabul qilingan «Navoiy» EIIH haqidagi nizom aniqlab beradi. Nizomga muvofiq EIIH faoliyatining operativ va koordinatsion boshqaruvi davlat tashkilotlari vakillari va zona direksiyasidan iborat boshqaruv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

«Navoiy» EIIHning boshqaruv kengashi Vazirlar Mahkamasining roziligi bilan xalqaro tan olingan boshqaruv kompaniyalari bilan zonaning boshqaruvi bo‘yicha ular bilan o‘rtoqlashish maqsadida shartnomaviy qonunchilik bo‘yicha direksiya sifatida tanlashi mumkin. «Navoiy» EIIH o‘zining mustaqil budgetiga ega bo‘lib, mavjud qonunchilikka binoan ko‘rsatilgan xizmatlar va boshqa ishlardan olingan daromadlar, shuningdek, yerlarni, binolarni, asbob-uskunalarni ijara ga berishdan olingan daromadlar hisobiga shakllanadi. Budget hisobidan zona faoliyatining samaradorligini oshirish, foydalanilayotgan infratuzilmani rivojlan-tilish maqsadida EIIHning taraqqiyot fondini tuzish mumkin.

«Navoiy» EIIHda ishlab chiqarishning asosiy yo‘nalishlari. «Navoiy» EIIHdagi xo‘jalik subyektlarining asosiy xo‘jalik faoliyati zamona viy xorijiy yuqori texnologik raqobatbardosh asbob-uskunalarni, texnikalarni, texnologik liniyalar va modellarni, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga qo‘llash orqali jahon tovarlar bozoriga keng doiradagi raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib beruvchi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni tashkil etishdan iborat.

«Navoiy» EIIH territoriyasida sanoatning barcha tarmoqlarida xomashvordan to tayyor mahsulotgacha bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonini o‘zida to‘liq aks ettiruvchi sanoat kompleksini yaratish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

«Navoiy» EIIHni yaratish konsepsiysi va ustuvor yo‘nalishlari asosida «Navoiy» EIIHda quyidagi tarmoq va yo‘nalishlarda korxonalar joylashtirilmoqda:

- elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- telekommunikatsiya uskunalarini ishlab chiqarish;
- mashinasozlik, asbobsozlik va ishlab chiqarishning tarkibiy qismlarini ishlab chiqaruvchi kompleks korxonalar;
- tibbiyot asbob-uskunalarini va dori mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va qadoqlash;
- plastik va polimer mahsulotlarni ishlab chiqarish.

Ijtimoiy-rekreatsion shart-sharoitlar. Ishchi va xizmatchilarning mehnat va yashash faoliyatining xavfsizlik tizimiga muvofiq injinering infratuzilmasini yaratish, suv kommunikatsiyasi ishlarni analga oshirish borasida bir qator qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. EIIH aholisi, ishchi va xizmatchilarning hayoti va dam olishi uchun qulay shart-sharoitlarini ta'minlash imkonini beruvchi ijtimoiy-rekreatsion kompleks yaratilmoqda. Ushbu maqsadlarda Navoiy shahriga yaqin bo'lgan Zarafshon daryosining qirg'oqlaridan 120 ga yer maydoni ajratildi va bu yerda «Korean Air» aviakompaniyasi tomonidan ijtimoiy obyektlar qurilishi olib borilmoqda. Zarafshon daryosida basseyn, golf-klub va boshqa sport komplekslarini qurish ishlari olib borilmoqda.

2008-yilning oxirida Navoiy aeroportiga yaqin bo'lgan joyda 60 o'rinni 3 yulduzli mehmonxonalar ishga tushirildi. Hozirgi paytga kelib ushbu mehmonxona xalqaro tan olingan kompaniya boshqaruviga berildi.

Joylashuvi va transport infratuzilmasi. «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy hududi multimodal transport logistika uzelining imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish maqsadida xalqaro aeroportga, E-40 avtomagistrali va xalqaro temir yo'nga yaqin joyda joylashgan.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayoni obyektiv xarakterdagagi bir qator omillar taqozo qiladiki, ularning ichidan quyidagilar asosiy o'rinni egallaydi:

- xo'jalik aloqalarining baynalmilallahuvi;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- umumiy jahon fan-tehnika rivolyutsiyasi;
- milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi.

Iqtisodiy integratsiya qatnashuvchi mamlakatlar uchun bir qator qulay shart-sharoitlarni ta'mmlaydi.

Birinchidan, integratsion hamkorlik xo'jalik yurituvchi subyektlarga butun region miqyosida iqtisodiy resurslarning barcha turlari va eng yangi texnologiyaga ega bo'lishi uchun keng yo'l ochadi.

Ikkinchidan, mamlakatlarning mintaqaviy doirada o'zaro iqtisodiy yaqinlashuvi uchun qulay shart-sharoit yaratiladi, ularni uchinchi mamlakat tomonidan bo'ladigan raqobatdan ma'lum darajada himoya qiladi.

Uchinchidan, integratsion o'zaro ta'sir uning qatnashchilariga eng keskin ijtimoiy muammolarni birgalikda hal qilish imkonini beradi.

Qiyosiy ustunlik nazariyasi. Iqtisodiy rivojlanishning milliy andozasidan jahon andozasiga o'tish va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashishi milliy iqtisodiy manfaatlarga qanday darajada javob beradi, degan savolni qo'yadi.

A.Smit xalqaro mehnat taqsimoti masalasini tahlil qilib, qanday tovarlarni eksport qilish va qaysilarini import qilish qulayligi to'g'risidagi o'z qarashlarini bayon qilish asosida «mutlaq ustunlik» nazariyasini ilgari surgan.

D.Rikardo o'zaro foydali savdo va xalqaro ixtisoslashuvning ancha umumiy prinsiplarini shakllantirib, «qiyosiy ustunlik» nazariyasini ishlab chiqqan. U nafaqat milliy xo'jaliklar o'rtasidagi, balki milliy xo'jalik ichidagi mintaqalar, korxonalar o'rtasidagi har qanday mehnat taqsimotining ustunliklarini asoslab beradi. Rikardo «qiyosiy ustunlik» nazariyasida bir mamlakat boshqa mamlakatga qaraganda barcha tovarlarni ancha past xaratjatlar bilan ishlab chiqqarsa va hatto, agar bir mamlakatda qiyosiy xaratjatlar o'rtasidagi farq boshqa mamlakatga qaraganda katta bo'lsa ham ayirboshlash maqsadga muvofiq hisoblanishini ko'rsatdi.

Rikardonning misolida inflyatsiya va ishsizlik, mehnat unumdarligidagi o'zgarishlar va eksportli tamoqlarga davlat tomonidan kiritiladigan cheklashlar hisobga olinmaydi.

Mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdo munosabatlari o'rnatilganda ayirboshlash qanday nisbatlar asosida ro'y beradi degan savol tug'iladi. Rikardonning xalqaro ixtisoslashuv ustunliklari haqidagi xulosalari, bu muammoni chuquurroq tadqiq qilish uchun boshlang'ich nuqta bo'ladi.

Jumladan, J. Mill ishlab chiqarish xaratjatlarining turli nisbatlari o'rtasida o'rnatiladigan almasuv mutanosibligi tovarlar bu turlaridan har biriga jahon taklifi va talabi hajmiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.


Iqtisodiy nazariyada xalqaro ixtisoslashuvning ustunliklarini asoslash Rikardonning klassik sxema bilan cheklanmagan. XX asrda xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlarini ko'plab iqtisodchilar: jumladan, S.Xeksher, B.Olin, J.Keysen, V.Leontev va boshqalar tomonidan tadqiq qilindi.

Jahon xo'jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish

Butun jahon xo'jalik hayotining baynalmilallahushi davlatlararo xo'jalik aloqalarini tartibga solishning mexanizmini yaratish zarurligiga olib keldi

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish milliy tashkiliy shakllardan boshlanadi. Xo'jalik hayotining baynalmilallahuv jarayoni dastlab milliy davlatlar faoliyatini **xalqaro uyg'unlashtirishga, keyin esa davlatlararo va xalqaro tashkilotlar tuzilishiga olib keldi.**

Huquqiy ma'noda tartibga solish xalqaro tartiblarni o'rnatishga, ya'ni menyoriy normalar va qoidalarni aniqlovchi kelishuvlarni ishlab chiqarishni yoki xalqaro aloqalarning qandaydir sohasini hal qilishda tomonlarga majburiyatlarga amal qilishni yuklaydi. Umumqabul qilingan standartlar va qoidalarni o'z ichiga oluvchi xalqaro tartiblar o'z navbatida milliy tartibga solishga ta'sir ko'rsatishi mumkin.



Birinchi xalqaro tashkilotlar 20-yillarda tuzilgan bo'sa-da (Millatlar ligasi – 1919-yil Xalqaro hisob-kitoblar banki 1929-y), **hozirgi davrda amal qiluvchi, xalqaro darajada jahon xo'jalik aloqalarini ko'p tomonlama tartibga soluvchi tizimlar ikkinchi jahon urushidan keyin shakllana boshladi.**

1945-yil maxsus xalqaro uyg'unlashtiruvchi muassasalar – Xalqaro valuta fondi (XVF-MVF) va Xalqaro ta'mirlash va rivojlanirish banki (XTRB-MBRR) tuzildi. Hozirgi davrda ham ularning ikkalasi muhim xalqaro tashkilot hisoblanadi: jahon savdosi, xalqaro kredit va valuta munosabatlari sohalarini davlatlararo tartibga solishning tartib-qoidalarini aniqlab beradi. **Urushdan keyingi davrda tuzilgan tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (TSBK-GATT)**, **Yevropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti (YEIXT-OEES)**, **NATOning iqtisodiy masalalarini uyg'unlashtiruvchi komiteti (IMUK-KOKOM)** xalqaro iqtisodiy munosabatlarni liberalallashtirish davriga to'g'ri keladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yana bir ahamiyatga molik sohasi bu valuta-moliya sohasidir. Xalqaro moliyaviy munosabatlarni uyg'unlashtirish XVF (MVF), XTRB (MBRR), iqtisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IXRO-OESR), xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU-MAR), Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK-MFK) va shu kabilar doirasida amalga oshiriladi. G'arbdagi yetti yetakchi mamlakatlarning har yillik kengashi bu sohada muhim rol o'yaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tarkibiy qayta qurishlarni moliyalash-tirish bilan XTRB faol shug'ullanadi. XTRB va u bilan birga Jahon banki tarkibiga kiruvchi Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU-MAR), Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK-MFK) har xil investitsion obyektlarni o'rta va uzoq muddatli kreditlash bilan shag'ullanadi, loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy asoslarini tayyorlaydi, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tarkibiy qayta o'zgartirishga yordam beradi.

Sharqiy-Yevropa mintaqasida tarkibiy qayta qurishga moliyaviy ta'sir ko'rsatish va yordam tashkil qilish maqsadida 1991-yil Yevropa tiklanish va rivojlanish banki (TREVB-YEVVRR) tuzildi.

Yevropa Ittifoqining ijroiya organi

– **Yevropa hamjamiyati Komissiyasi (YEHK)**dir. Uning a'zolari milliy hukumatlar tayinlaydi, lekin ular o'z faoliyatlarida mutlaqo mustaqildir.

Ittifoqning qarorlar qabul qilish organi

– **Vazirlar Kengashi hisoblanadi.** Uning tarkibida ichki ishlar, moliya, ta'min, qishloq xo'jaligi kabi Vazirlar Kengashi mavjud bo'ladi.

Yevropa hamjamiyati Komissiyasi faoliyatini nazorat qilish, hamjamiyati budjeti va qonunlarini ma'qullash hamda ularga o'zgartirish kiritish huquqi Yevroparlament zimmasiga yuklatiladi.

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiy ahamiyati jihatidan **ikkinchি o'rinda turuvchi xalqaro integratsi markazi** Shimoliy Amerika hududi hisoblanadi. Bu yerda 1994-yilning 1-yanvarida Shimoliy Amerika Erkni savdo assotsiatsiyasi (NAFTA) tashkiloti kuchga kirdi. NAFTA tashkiloti AQSH, Kanada va Meksika davlatlarini o'z tarkibiga birlashtirgan.

NAFTA davlatlari kelishuvida asosan tovar va xizmatlar savdosida cheklashlarni olib tashlash, o'zaro kelishmovchiliklarni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish, bir-biriga nisbatan investitsiya muhitini erkinlashtirish masalalari nazarda tutilgan. NAFTAning YEIga nisbatan o'ziga xos xususiyati integratsiya jarayonlarining simmetrik emasligidir.

NAFTA davlatlari tomonidan imzolangan shartnomaning asosiy holatlari quyidagilarni o'z iehiga oladi:

- AQSh, Kanada va Meksika davlatlarida o'zaro savdo qiladigan tovarlarga nisbatan bojlarni bekor qilish;
- Shimoliy Amerika bozorlarini Meksika orqali AQShga kirib kelayotgan tovarlar uchun bojlarni to'lamaslikka harakat qiluvchi Osiyo va Yevropa kompaniyalari ekspansiyasidan himoya qilish;
- Meksikada bank va sug'urta kompaniyalari ishida Amerika va Kanada kompaniyalari kapital qo'yilmalari va raqobatlariga bo'lgan taqiqlarni olib tashish;
- atrof-muhitni himoyalash bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun uch tomonlama guruhlar tashkil qilish va boshqalar.

Jahon iqtisodiyotida **uchinchi integratsiya markazi** boshqa integratsiya markazlariga nisbatan hududi, aholisi va resurslarining miqdori bo'yicha ancha ustundir. Biroq. Osiyo-Tinch okeani mintaqasining integratsiyalashuvi yo'lida juda ko'p to'siglar (mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidagi keskin tafovutlar, etnik-diniy va madaniy farqlar, o'zaro siyosiy da'votlar, hududiy to'qnashuvlar va boshqalar) mavjud. Hozirgi kunda Osiyo-Tinch okeani havzasida bir necha yirik subhududiy iqtisodiy guruhlar – **Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN)**, Janubiy Xitoy Forumi, Avstraliya-Yangi Zelandiya erkin savdo hududi va boshqalar mavjud bo'lib, ular ham dunyoning eng yirik okeanbo'yи sohillarida joylashgan davlatlarning umumiy tashkilotini shakllanishiga halaqt bermoqda. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorligi tashkiloti 1989-yilda tashkil topgan bo'lib, 21 davlatni o'z tarkibiga birlashtirgan. Bu tashkilotning 1995-yil Osaka shahrida ma'qullangan harakat dasturi 2010–2020-yillargacha savdo va investitsiyalashning Umumjahon savdo tashkiloti (UST) standartlariga muvofiq erkinlashtirishga yo'naltirilgan.

Umumiy bozorlar qatoriga quyidagi xalqaro tashkilotlarni kiritish mumkin:

- Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori (MERKOSUR) – Argentina, Braziliya, Paragvay va Urugvay kabi davlatlarni birlashtirgan.
- Markaziy Amerika umumiy bozori – Gvatemala, Gonduras, Kosta-Rika, Nikaragua va Salvador kabi davlatlarni birlashtirgan.
- Sharqiy va Janubiy Afrika umumiy bozori (KOMESA), o'z tarkibiga Afrikaning 19 ta rivojlanayotgan davlatlarini birlashtirgan.
- Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) – Tinch va Hind okeani qirg'oqlarida joylashgan 9 ta rivojlanayotgan mamlakatlarni birlashtirgan.

Jahon iqtisodiyotida integratsiyaga, ya'ni o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirishga bo'lган intilish Fors ko'rfaqidagi Arab davlatlari orasida ham kuzatilmoqda. 1981-yildan buyon **Saudiya Arabiston**, **Quvayt**, **Qatar**, **Baxrayn**, **BAA** va **Ummom** kabi davlatlarini o'z ichiga olgan «neft otiligi» Hamkorlik Kengashi davlatlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekiston jahon hamjamiyatiga kirib borish va tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishining shart-sharoitlari va tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari Respublika davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan vujudga kela boshladı. Vujudga kelgan vaziyat tashqi iqtisodiy majmuani boshqarishning o'ziga xos tizimini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish borasida qoida va tamoyillarni ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish yo'llarini belgilashni taqozo etdi.

Respublika tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik negizida ko'rilsa, uning qoidalari ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar munosabatlarida o'zaro manfaatli aloqalar o'matish, xalqaro iqtisodiy ittifоqlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga asoslanadi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilish talablaridan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shag'ullanishi zarur bo'lgan barcha muassasalar (tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi, tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, bojxonalar xizmati va boshqalar) amalda yangidan tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasidan tortib, boshqaruvning mahalliy darajasi va korxonalargacha bo'lgan xo'jalik subyektlarida tegishli tashqi iqtisodiy bo'lmlar tuzildi. Dunyoning bir qancha mamlakatlarida savdo uylari ochildi va savdo-sanoat palatalari barpo etildi.

Dastlabki davlatlarda respublikamizda tashqi savdo ikki yo'nalish bo'yicha: MDH mamlakatlari bilan hukumatlararo bitimlar asosida va xorijiy mamlakatlar bilan erkin muomaladagi valutada hisob-kitob qilish asosida amalga oshirildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p tomonlama aloqalari va hamkorligini rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. **O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasidagi yagona iqtisodiy makon to'g'risida tuzilgan shartnomalar samara bera boshladı.** Ularning sanoatini integratsiyalashtiradigan dastur ishlab chiqildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalg etish uchun qulay sharot yaratishga, hamda zarur bo'lgan tashkilot va muassasalar tuzishga katta ahamiyat berilmoqda. Bular jumlasiga tavakkalchilik xatarlari keltiriladigan zararni qoplaydigan «O'zbekinvest» milliy sug'urta kompaniyasini turli qo'shma sug'urta kompaniyalarini, Vazirlar Mahkamasi huzurida BMT bilan birgalikda tashkil qilingan investitsiyalarga ko'maklashuvchi xizmatni, Davlat mulk qo'mitasi huzuridagi ko'chmas mulk va xorijiy investitsiyalar agentligi kabilarni kiritish mumkin.

O'zbekistonning Jahon hamjamiyatiga kirib borishi BMTning respublikada amalga oshirayotgan iqtisodiy, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, fan sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalarida ham namoyon bo'ladi.

Yevropa Ittifoqiga a'zo ho'lgan mamlakatlar bilan iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik, NATOning «Tinchlik yo'lidagi sheriklik» dasturida mamlakatimiz ishtiroki uning jahon xo'jaligi qo'shilishning navbatdagi yo'nalishidir. Jumladan, Yevropa Ittifoqi bilan Respublikamiz o'rtasida imzolangan Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim (1996-yil iyun) tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishidir.

O'zbekistonning Xalqaro valuta fondi va jahon banki bilan hamkorligi tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishdagi navbatdagi yo'nalishdir.

Jahon bank tashkilotlari – Xalqaro rekonstruksiya va rivojlanish banki (XRRB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Investitsiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA) bilan hamkorlik O'zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o'yaydi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda **Yevropa ta'mirlash va taraqqiyot banki (ETTB)** alohida rol o'yaydi

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy va savdo faoliyatida **Osiyo rivojlanishi Banki (ORB) hamda jahon savdo tashkiloti (JST)** bilan hamkorlik istiqbollli yo'nalishlardan hisoblanadi.

Shunday qilib, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shlishida dunnyo mamlakatlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik hal qiluvchi o'ringa ega bo'lib, bu milliy iqtisodiyotning baynalmilallashuvini kuchaytiradi hamda iqtisodiy taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'tarishning asosiy tashqi omillari hisoblanadi.

16-mavzu. JAHON BOZORI, XALQARO VALUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI

Reja:

1. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi, vazifasi va iqtisodiy asosi.
2. Xalqaro savdo siyosati.
3. Xalqaro valuta munosabatlari va valuta tizimlari.
4. Hozirgi zamon valuta muammolari va asosiy davlatlararo valuta moliyaviy muassasalar faoliyati.

Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi, vazifasi va iqtisodiy asosi

Xalqaro savdo:

- Mamlakatlar o'rtasidagi tovar va xizmatlar almashinuvi. Savdoning bunday ko'rinishi jahon iqtisodiyotiga olib keladi, bunda esa narxlar, talab va taklif jahonda yuz berayotgan voqealarga bog'liq bo'ladi.
- Turli mamlakatlar fuqarolari va firmalari o'rtasidagi tovar va xizmatlar almashinuvi.
- Jahoning barcha mamlakatlari tashqi savdolaridan to'planadigan, xalqaro tovar-pul munosabatlari tizimi.
- O'zida jahoning barcha mamlakatlari tashqi savdolari majmuasini namoyon etadigan va tovarlarning ikki muqobil oqimi – eksport va importdan iborat bo'lgan, xalqaro tovar-pul munosabatlari tizimi.
- Turli mamlakatlar tovar ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi aloqalar shakli bo'lib, u xalqaro mehnat taqsimoti asosida vujudga keladi va ularning o'zaro iqtisodiy zaifligini ifodalaydi.
- Jahoning barcha mamlakatlari o'rtasidagi to'lanadigan umumiy tovar almashinuvi.

Xalqaro savdo nazariyalari

| Nazariyalar | Mualliflar | Asosiy mazmuni |
|---|--------------------|---|
| Mutlaq ustunlik nazariyasi | A. Smit | Xalqaro savdoni mavjud bo'lishi va foydaliligi ishlab chiqarish xarajatlarning mutlaq hajmlarining farqligini bilan ifodalanadi. Bu nazariya bo'yicha, xalqaro savdoni asosida xalqaro mehnat taqsimoti va mamlakatlarning tovarlarni ishlab chiqarishdagi ixtisoslashuvi, ya'ni ularni ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha mutlaq ustunlikka ega bo'lishi bilan ifodalanadi. |
| Nisbiy ustunlik nazariyasi | D. Rikardo | Xalqaro savdo asosida mehnat taqsimoti va mamlakatlarning tovarlarni ishlab chiqarishdagi ixtisoslashuvi yotadi, mazkur mamlakatda bir tovarni ishlab chiqarish xarajatlari boshqa tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan, shuningdek, boshqa mamlakatlardagiga nisbatan ham past. |
| Xeksher-Olinning tashqi savdo nazariyalari | E. Xeksher-B. Olin | Mamlakatlar o'zlarida nisbatan ortiqcha bo'lган resurslar asosida ishlab chiqariladigan tovarlarni eksport qiladi va taqchil bo'lган resurslar asosida ishlab chiqariladigan tovarlarni import qiladi. |
| Raqobat ustunlik-larini shakllanish nazariyasi | M. Porter | Hozirgi jamiyatda mamlakatlar tarmoq va firmalarni raqobat ustunligini shakllantirishlari kerak, shuningdek, ichki bozorni rivojlanishiga, aloqador va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlarni rivojlanirishga, milliy biznesni rivojlanishi uchun qulay iqtisodiy shart-sharoit yaratishlar orqali. |

Xalqaro savdo siyosati

Xalqaro savdo (XS) – bu tovar va xizmatlar eksporti orqali amalga oshiriladigan xalqaro iqtisodiy munosabatlar shakli.

Xalqaro savdoning ahamiyati:

milliy resurs negizi chegaralarini bartaraf etish;

ichki bozor hajmini kengaytirish va milliy bozorning jahon bozori bilan aloqasini o'matish;

ishlab chiqarishning milliy va xalqaro xarajatlari farqi hisobiga qo'shimcha daromadni ta'minlash;

xorijiy resurslarni jalb qilish hisobiga ishlab chiqarish miqyosini kengaytirish.

Xalqaro ixtisoslashish va savdoning ustunliklari

mutlaq

qiyyosiy

tovarlar ishlab chiqarish va ayrboshlashda minimal **bevosita** ishlab chiqarish xarajatlari

tovarlar ishlab chiqarish va ayrboshlashda minimal **bilvosita** ishlab chiqarish xarajatlari

savdo hamkorlariga nisbatan arzonroq mahsulotlar taklif etgan mamlakatlar o'zaro mahsulotlar ayrboshlashadi

ishlab chiqarishga **nisbatan kam resurs** sarflagan mamlakatlar o'zaro mahsulotlar ayrboshlashadi

XALQARO SAVDO

Tashqi savdo aylanmasi → Tovarlar eksporti va importi summasi tashqi savdo aylanmasi yoki tashqi tovar aylanmasini tashkil etadi

Eksport → Eksport – bu tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'slib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi

Reeksport → Biror-bir mamlakat boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovari o'z iste'moli uchun emas, balki uchunchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilgan taqdirda reeksport ro'y beradi

Import → Import chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga keltirishni bildiradi

Reimport → Reimport iste'molchi mamlakatdan reeksport tovari sotib olishni bildiradi

Savdo balansi → Tovarlar eksporti va importi o'rtaсидаги muvozanat (tenglik) savdo balansini tashkil qiladi

O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi, unda eksport va import ulushi (% hisobida)

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | | | | | | |
|------------------------|--------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| | 2000 | 2002 | 2003 | 2004 | 2006 | 2007 | 2008 | 2010 | 2011 |
| Tashqi savdo aylanmasi | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| - eksport | 52,5 | 52,4 | 55,7 | 56,0 | 59,2 | 63,2 | 60,6 | 58,7 | 58,8 |
| - import | 47,5 | 47,6 | 44,3 | 44,0 | 40,8 | 36,8 | 39,4 | 41,3 | 41,2 |

O'zbekiston eksport va importida tovarlar hamda xizmatlar ulushi (% hisobida)

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | | | | | | |
|-----------------------|--------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| | 2000 | 2002 | 2003 | 2004 | 2006 | 2007 | 2008 | 2010 | 2011 |
| Eksport shu jumladan: | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| - tovarlar | 86,3 | 84,1 | 89,8 | 89,2 | 87,9 | 89,3 | 89,6 | 89,8 | 88,2 |
| - xizmatlar | 13,7 | 15,9 | 10,2 | 11,8 | 12,1 | 10,7 | 10,4 | 10,2 | 11,8 |
| Import shu jumladan | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| - tovarlar | 91,5 | 89,4 | 89,8 | 88,9 | 90,9 | 92,6 | 94,5 | 94,7 | 94,7 |
| - xizmatlar | 8,5 | 10,6 | 10,2 | 11,1 | 9,1 | 7,4 | 5,7 | 5,3 | 5,3 |

Keyingi yillarda xalqaro savdoda ro'y bergan o'zgarishlar:

- * jahon bozorida AQShning yetakchilik mavqeyi pasayib (19-asr o'rtalarida jahon eksportidagi ulushi 1/3 qismini tashkil qilgan bo'lsa, hozirgi paytda 1/10 atrofida) boshqa rivojlangan mamlakatlar, xususan Yaponiya mavqeyi ortib bormoqda.
- * jahon eksportida yangi industrial mamlakatlar (Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy, Braziliya, Meksika) hissasi ortmoqda.
- * fan-tehnika taraqqiyoti natijasida xalqaro savdoning tovar tarkibi o'zgarmoqda. Jahon eksportida fan sig'imi yuqori, murakkab texnologik mahsulotlar, elektronika uskunalarini, transport vositalari hissasi ortib bormoqda.
- * xalqaro intisoslashishda ayrim sanoat tarmoqlari, jumladan kimyo sanoatining ulushi o'sib bormoqda (Yaponiya, Angliya va boshqa rivojlangan mamlakatlar hisobiga).
- * jahon bozori savdo aylanmasi tarkibida qishloq xo'jaligi mahsulotlari xom ashyosi ulushi qisqarib, asosan yengil sanoat mahsulotlari ulushi ortmoqda.
- * jahon eksportida xizmatlar ulushi to'xtovsiz o'sib bormoqda.


Xalqaro valuta munosabatlari va valuta tizimlari

Valuta – bu mamlakatlar pul birligi (masalan, so‘m, dollar, funt sterling va h.k.). Har bir milliy bozor xususiy milliy valuta tizimiga ega bo‘ladi. Bunda milliy va xalqaro valuta tizimini farqlash zarur.

Milliy valuta tizimi – valuta munosabatlarining milliy qonunchilik bilan belgilanadigan, mazkur mamlakatda tashkil qilinish shaklini ifodalaydi.

Xalqaro valuta tizimi – xalqaro valuta munosabatlarining davlatlararo bitmlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Jahon valuta tizimi o‘zining rivojlanishida uchta bosqichdan o‘tdi va ularning har biriga xalqaro valuta munosabatlarini tashkil qilishning o‘z tiplari mos keladi.



Xalqaro valuta tizimi tashqi bozorlarda markaziy emissiya banklari faoliyatini tartibga soluvchi muassasalar, qonunlar, qoidalar to‘plamini o‘zida namoyon etadi

Xalqaro valuta tizimlarining tarkibiy unsurlari:

asosiy xalqaro to'lov vositalari (milliy valutalar, oltin, DTT, EKYU);

valuta kurslarini belgilash va qo'llab-quvvatlash mexanizmi; valutalarning avirboshlanish (konvertatsiyalanish) shartlari; xalqaro bozorlar tartibi;

valuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo moliyaviy muassasalarning nufuzini belgilash.

Xalqaro valuta tizimlari

| Valuta kurslari tizimi | Amal qilish davri | Tizimning turi | Valuta kurslari rejimi |
|--|---|------------------------|--|
| Oltin standart tizimi | XIX asr oxiri – 1930 y. o'rtalari | Oltin standarti | Oltin pariteti bo'yicha <u>qat'iy belgilangan</u> valuta kurslari |
| Bretton-vud tizimi | 1940-yy. o'rtalari – 70-y. boshi | Oltin dollar standarti | Dollarga va oltinning dollardagi rasmiyi narxiga nisbatan valutalarning yuzaga kelgan bozor kurslari asosida <u>qat'iy belgilangan</u> valuta kurslari |
| Harakatlanuvchi kurslar tizimi (Yamayka tizimi) | 1971-yildan dollarni oltinga konveratsiyasi bekor qilindi | Ko'p valutali standart | Mintaqaviy valuta guruhlari va DTT, EKYU, yevro, AQSh dollari hamda boshqa VKT doirasida o'zaro bog'liq harakati boshqariladigan valuta kurslari |

Birinchi bosqich 1879–1934-yillar davrini o'z ichiga olib, bunda oltin standart sifatidagi pul tizimi ustunlikka ega bo'lgan. **Ikkinci bosqich** ikkinchi jahon urushi oxiri (1944-y.)dan 1971-yilgacha chegaralangan (**Breton-Vuds tizimi, deb nomlanuvchi**) tizim ustunlikka ega bo'lgan. Bu ikki tizim qayd qilinadigan valuta kurslariga asoslangan. **Uchinchi bosqich Hozirgi davrda amal qiluvchi jahon valuta tizimi 1971-yilda tashkil topgan bo'lib, bu tizim boshqariladigan suzib yuruvchi tizimi nomini oldi.** Chunki davlat ko'pgina o'z valutalarining xalqaro qiymatini o'zgartirish uchun valuta bozorining faoliyat qilishiga aralashadi. Ta'kidlab o'tilgan bu pul tizimini tahlil qilamiz.

Oltin standart.

Bretton-Vuds tizimi. Oltin standart barbod bo‘lgandan keyin, valuta sohasini tartibga solishning o‘zaro maqbul yo‘lini topishga harakat qilindi. Yangi jahon valuta tizimi asoslarini ishlab chiqish maqsadida. 1944-yil Bretton-Vudsda (AQSh) ittifoqchi davlatlarning xalqaro konferensiyasi chaqirildi. Bu konferensiya o‘zaro bog‘liq valuta kurslarini tartibga solish tizimini yaratish haqidagi kelishuvga erishildi va bu ko‘pmcha **Bretton-Vuds tizimi, deb ataladi. Mazkur tizim oldingi oltin standartdan keskin farq qilmaydi. Uning asosida oltin – valuta standart yotadi va bu yerda rezervlar sifatida oltin va dollar chiqadi.** **Valuta standart** – bu qonunchilik tartibida o‘rnatalgan, ikkita milliy valuta o‘rtasidagi nisbat bo‘lib, valuta kursining asosi hisoblanadi. Kelishuvga qo‘l qo‘ygan mamlakatlar, o‘z valutalarining kursini oltin yoki dollarda qayd qiladi. Dollar oltin bilan bog‘lanadi (1 unsiya oltingga 35 dol.) va asosiy rezerv hamda hisobkitob valutasi, deb tan olindi.

Boshqariladigan suzib yuruvchi valuta tizimi. Dollarning oltingga almashinishi rasman to‘xtagandan keyin, valutaning qayd qilingan kursi, suzib yuruvchi kursiga o‘rin bo‘shatadi. Xalqaro valuta tizimidagi bu o‘zgarish 1976 yil Kingston (Yamayka)dagи kelishuvga binoan huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Qo‘g‘oz pul tizimiga o‘tish bilan, qo‘g‘oz pullar, oltunga almashtirilmaydi. Beqaror kurslar sharoitida valuta kursi ham har qanday boshqa bahs kabi talab va taklifning bozor kuchlari bilan belgilandi.

Milliy valutalarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qay darajada erkin ishlatilishini taysiflash uchun «valutaning konvertatsiyalashuvi» tushunchasi ishlatiladi. Valutaning konvertatsiyalashuv darajasini ikkita omil belgilab beradi:

- valutaning xalqaro hisob-kitoblarda ishlatilishi;
- asosiy valuta bozorlarida erkin almashtirilishi.

Valutalar konvertatsiyalashuv darajasiga ko‘ra 3 ta turkumga ajratiladi:

– to‘liq konvertatsiya qilinuvchi valutalar. Bunda milliy valuta hech qanday to‘silgarsiz erkin almashtiriladi. Bular Germaniya markasi, Fransiya franki, Yapon ienasi, Angliya funt sterlingi, AQSh dollarri;

– qisman konvertatsiyalanuvchi valutalar. Bunda milliy valuta ayriboshlanishida muayyan cheklashlar mavjud bo‘ladi. Bu cheklashlar rezidentlar, bank operatsiyalari bo‘yicha yoki o‘zaro qoplovchi bo‘lishi mumkin;

– konvertatsiya qilinmaydigan valutalar. Bunga boshqa valutalarga almashirib bo‘lmaydigan barcha milliy valutalar kiradi.

Xalqaro hisob-kitoblar uchun maxsus pul birligi – SDR (**Spesial Drawaing Right – maxsus o‘rin bosish huquqlari**)

* U xalqaro iqtisodiy aloqalarda jamoa valuta birliklaridan foydalanishni ko‘zda tutadi. SDR maxsus «valutalar savatchasi» orqali aniqlanadi. Bu savatchada dollar 42 %, G‘arbiy Yevropa pul birliklari (funt sterling, frank, marka) – 45 %, iyena 13 %ni tashkil etgan. Lekin, u baribir jahon puliga aylanmadidi. Real hayotda asosan AQSh dollari ko‘proq ishlatalib jahon puli vazifasini bajaradi.

* Jamoa valutalar hisob-kitob birliklari sifatida milliy valutalar kursini taq-qoslash uchun ishlatalidi. Ular milliy valutalardan farq qilib, banknot yoki moneta shaklida chiqarilmaydi (hozir «yevro» bundan mustasno). Ular faqat schyotlar – hisob raqamlariga (book money) yoziladi.

Valuta kurslarining o‘zgarishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi:

1. Iste’molchi dididagi o‘zgarishlar.
2. Daromadlardagi nisbiy o‘zgarishlar.
3. Bahodagi nisbiy o‘zgarishlar.
4. Nisbiy real foiz stavkalar.
5. Chayqovchilik.

Valuta kurslariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- milliy daromad va ishlab chiqarish xarakatlari darajasi;
- milliy real xarid qilish layoqati va mamlakatdagi inflyatsiya darajasi;
- valutalarga talab va taklifga ta’sir ko‘rsatuvchi to‘lov balansi holati;
- mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;
- valutaga jahon bozoridagi ishonch va h.k

Diskont – banklar tomonidan olinadigan foiz. Bank hisob stavkasini oshirib yoki tushirib, chet el kapitallari oqib kirish yoki chiqib ketishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Hozirgi zamon valuta muammolari va asosiy davlatlararo valuta moliyaviy muassasalar faoliyati

Xalqaro valuta munosabatlari hozirgi bosqichi uchun beqarorlik jarayonlarini yetarli darajada yumshatish va bu sohada davlatlar iqtisodiy siyosatini uyg‘unlashtirish xarakterli. «Suzib yuruvchi kurslar» kiritilgandan keyin (1972-y.) valuta bilan bog‘liq birjali bitimlar hajmi keskin kengaydi. Jahon valuta tizimining beqarorligi, regional darajada valutali tartibga solishga kelishib harakat qilishga olib keladi.

Valuta sohalarini uyg'unlashtirish milliy darajada ham, davlatloraro valuta-moliya muassasalari orasida ham ro'y beradi. Valutali tartibga solish sohasida eng muhim rolni G'arbdagi yetakchi yetti mamlakatlarning yillik iqtisodiy kengashi, Xalqaro valuta fondi, iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Xalqaro hisob-kitoblar Banki o'ynaydi. Ulardan ayrimlarining rolini qarab chiqamiz.

Xalqaro valuta fondi o'z nizomiga binoan xalqaro valutali hamkorlikka a'zo mamlakatlar valuta kurslarini va to'lov balanslarini tartibga solish, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'p tomonlama to'lov tizimi va tashqi qarzlarini nazorat qilish, a'zo mamlakatlarga ularning valuta-moliya muammolarini hal qilish uchun kredit berish yo'llari bilan ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi.

1970-yildan XVF qarz berishning maxsus huquqi – xalqaro to'lov va ehtiyyot vositalari /SDR/ni chiqaradi. SDR – xalqaro hisob-kitob birligi bo'lib, naqd belgi /pul/lar ko'rinishida mavjud bo'lmaydi, faqat XVF mahsus hisobiga kreditli yozuvlar shaklida foydalaniladi **SDR qiyomi a'zo mamlakatlar /AQSH, GFR, Fransiya, Angliya, Yaponiya/ valutalari o'rtacha qiyematining «valutali holta», deb nomlanuvchi qiyomi asosida hisoblanadi**. Xalqaro hisob-kitoblarda oldingidek asosiy vosita bo'lib milliy valutalar chiqmoqda. Yetakchi mavqeni AQSH dollari saqlab qolmoqda.

XVF bilan birgalikda xalqaro valuta-moliyaviy munosabatlarni ko'p tomonlama tartibga solishda muhim rolni **Xalqaro ta'mirlash va rivojlanish banki /XTRB/ o'ynaydi. XTRB /MBRR/ o'zining ikkita filiali – Xalqaro moliyaviy korporatsiya /XMK-MFK/ va Rivojlanishning xalqaro uyushmasi /RXU-MAR/** bilan birga jahon bankingin tarkibiga kiradi. XTRB qarzlarining asosiy qismi – bu qarz oluvchi mamlakatda tarkibiy qayta qurishlarga yordam beruvchi loyiha va dasturlarni amalga oshirishga yo'naltu'ilgan uzoq muddatli kreditlardir. Bunday dasturlarni ishlab chiqishda tadqiqotchi va amaliyotchi mutaxassislardan iborat bo'lgan XTRBning kuchli apparati qatnashadi.

XTRBning filiallari bo'lgan – XMK va RXU xususiyatlari shundan iboratki, XMK avvalo rivojlanayotgan mamlakatlardagi xususiy sektorni moliyalashtiradi. Hukumatlararo muassasalar ichida, valuta-moliyaviy sohada faol hamkorlik qilayotgan muassasaga barcha sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlar kiradigan Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti /IXRT-OESR/ni ajratib ko'rsatish mumkin. IXRTga a'zo mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishidagi tamoyillarni va iqtisodiyot sohasidagi ichki harakatlarning boshqa mamlakatlar to'lov balansiga ta'sirini aniqlashga xizmat qiladi. IXRT doirasida, jahon xo'jaligi rivojlanish tamoyillarini hisobga olib, milliy iqtisodiyotning o'zaro moslashuviga imkon beruvchi makroiqtisodiy siyosatni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Xalqaro valuta – moliya sohasida muhim **o'rinni Xalqaro hisob-kitoblar Banki /XXKB-BMR/** egallaydi va u banklar faoliyatini xalqaro tartibga solishda yetakchi rol o'ynaydi. XXKB amalda barcha Yevropa mamlakatlari banklari, Kanada, Avstraliya, Yaponiya va AQSh tijorat banklari guruhini birlashtiradi. 70 dan ko'p markaziy banklar o'z ehtiyyot valutalari mablag'larini XXKB hisob /schyot/larida saqlaydi. Uning qo'mitalari va tarkibiy qismlarida ishlab chiqilgan davlat tomonidan tartibga solish va bank faoliyati ustidan nazorat qilish qoidalari a'zo mamlakatlardagi barcha tijorat banklar uchun majburiy hisoblanadi.

Jahon hamjamiyati tomonidan valuta va moliya sohasida bozor kuchlarini davlatlararo tartibga solish bilan ziddiyatli bog'lashga asoslangan uyg'unlash-tiruvechi mexanizmlarning yaratilishi, o'zлari amal qilib turgan davrda vujudga keladigan ixtiyoflarni murosali hal qilishga va moslashga layoqatliligini namoyon qildi. Ammo jahon valuta tizimini takomillashtirish va uning asosiy mexanizmlarining evolyutsiyasi muammolari doimiy kun tartibda turadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси –Т.: «Ўзбекистон», 2003.

Каримов И. А. Ўзбекистоннинг сиёсий - ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамоилилари. -Т.: “Ўзбекистон” 1991.

Каримов И. А. Ўзбекистон иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишлари. -Т.: “Ўзбекистон” 1993.

Каримов И. А. Дехкончилик таракқиёт, фаровонлик манбаидир. -Т.: “Ўзбекистон” 1994

Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқтол, иқтисод, сиёсат, мағкура. 1-том, Тошкент, «Ўзбекистон», 1996.

Каримов И. А. Ўзбекистон: иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. Т.: «Ўзбекистон», 3- том. 1995.

Каримов И. А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Т.: «Ўзбекистон», 2005.

Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: “Маънавият”, 2008.

Каримов И.А. “Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш – давр талаби” мавзусида Вазирлар Маҳкамасининг 13.02.2009 йилдаги мажлисидаги маъруzasи. «Халқ сўзи», 2009 йил 13 феврал.

Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шаротида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. Т.: “Ўзбекистон”, НМИУ, 2009й.

Каримов И. А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни ихчил давом эттириш – давр талаби. // Халқ сўзи, 2009 йил, 14 феврал.

Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. –Т.: «Ўзбекистон», 2009.

Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ваганимиз таракқиёти ва халқимиз фаровонлиги янада юксалтиришдир. – Топкент: «Ўзбекистон», 2010.

Каримов И. А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз таракқиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. // Халқ сўзи, 2011 йил, 22 январь.

Каримов И. А. 2012 йил ватанимиз таракқиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. 2011 йилнинг асосий якунлари ва 2012 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига багишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маъруzasи. // Халқ сўзи, 2012 йил, 20 январь.

Каримов И. А. Бош мақсадимиз - кенинг кўламли ислоҳотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ҳамда 2013 йилга мулжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳимислоҳотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига багишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маъруzasи. // Халқ сўзи, 2013 йил, 19 январь.

Каримов И. А. 2014 йил юқори ўсиш суръатлари билан ривожланиши, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислоҳотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. Мамлакатимизни 2013 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2014 йилга мулжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига багишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маъруzasи. // Ўзбекистон овози, 2014 йил, 18 январь.

Шодмонов Ш.Ш., Гафуров Ҳ.В. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. Т.: «Фан ва технология» нацириёти 2005.

- Раззоқов А., Тошматов Ш., Ўрмонов Н. Иқтисодий таълимотлар тарихи. -Т.: «Молия», 2002.
- Экономическая теория. Под ред. В.Д.Камаева. - 10-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. центр ВЛАДОС, 2004.
- Шишкин А.Ф Экономическая теория. -М.: 1998.
- Камаев В.Д. Экономическая теория. -М.: 2010.
- Видяпин В.И. Гулямов С.С. и др. Экономическая теория. Учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по экономическим специальностям. -Т.: «Шарк», 1999.
- Расулов М.Р. Бозор иқтисодиёти асослари. -Т.: 1999.
- Шодмонов Ш., Алимов Р., Жураев Т. Иқтисодиёт назария. Ўкув қўлланма. -Т.: Молия, 2002.
- Қодиров А. Иқтисодиёт назарияси. -Т.: 2002.
- Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси. -Т.: Молия, 2003.
- Жураев Т., Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси. (Кўргазма ва тарқатма материаллар) ўкув қўлланма I- кисм. -Т.: «Fan va texnologiya», 2012.
- Жураев Т., Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси. (Кўргазма ва тарқатма материаллар) ўкув қўлланма 2- кисм. -Т.: «Fan va texnologiya», 2013.
- Рузиев Р., Топилдиев В.Р. Фуқаролик хуқуки . Ўкув қўлланма -Т.: 2011.
- Хошимов Н.З., Умаров К.Ю. ва бошқалар. Иқтисодиёт назарияси. Ўкув қўлланма (лотин прифтида) Т.: «Университет», 2006.
- Ўлмасов А., Ваҳобов А. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик -Т.: «Шарк» 2006.
- Умаров К.Ю., Топилдиев С.Р. Иқтисодиёт назарияси. Услубий қўлланма.-Т.: 2013.
- Топилдиев С.Р. Ўзбекистонда аграр муносабатлар ривожланишининг тарихий жиҳатлари. Монография. -Т.: “MUMTOZ SOZ” 2012.
- Пебро М. Международные экономические, валютные и финансовые отношения. Перевод с франц. (общ. ред. Бабинцевой Н. С.) -М.: Прогресс “Университет”, 1994.
- Мэнкью Н. Г. Макроэкономика . Перев. с англ. -М.: изд. МГУ, 1994.
- Йулдошев З. , Қосимов М. Макроиктисодиёт асослари. -Т.: “Ўқитувчи” 1994.
- Хакимова М. Макроиктисодиёт асослари. -Т.: “Ўқитувчи” 1995.
- Севликиянц С. Г. , Отто О. Э. , Тешаев Б. Т. Экономика - основа жизни общества. -Т.: “Шарк”, 1998.
- Борисов Е.Ф. Экономическая теория: вопросы-ответы - М.: Юридическая фирма «КОНТРАКТ». ИНФРА-М, 2006
- Борисов Е.Ф. Экономическая теория: -2-е изд., перераб. и доп. - М: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006.
- Чепурина М.Н., Киселевой Е.А. Курс экономической теории: учебник / Под общ. ред. 6-исправленное, дополненное и переработанное издание. – Киров: «АСА», 2007, с.28.
- Носова С.С. Экономическая теория Элементарный курс: учебное пособие / С.С.Носова. – М.: КНОРУС, 2008, с.16.
- Видяпина В.И., Г.П.Журавлевой Экономическая теория (политэкономия): Учебник/ Под общ. ред. – 4-е изд. - М.: ИНФРА-М, 2004, с.31.
- Камаев В.Д. Экономическая теория: Краткий курс: учебник / В.Д.Камаев, М.З.Ильчиков. Т.А.Борисовская. - 2-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2007, с.21.
- МосквинД.Д. Основы экономической теории. Политэкономия: Учебник /Под

- ред. д-ра экон. Изд. 3-е, исправл. – М.: Едиториал УРСС, 2003, с.24.
- Борисов Е.Ф. Экономическая теория: вопросы – ответы: Учеб. пособие. – 2-е изд., перераб. и доп. М.: ИНФРА-М, 2008, с.16.
- Гукасьян Г.М. Экономическая теория: ключевые вопросы. / Под ред. д.э.н. Л.И.Добрынина. - 3-е изд., доп. - М.: ИНФРА-М, 2006.
- Куликов Л.М. Основы экономической теории. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2006.
- Макконнелл К. Р., Брю С. Л. Экономикс, 13-е издание, М.: «Инфра-М», 1999
- Самуэльсон П., Нордхаус В. Экономика Пер с англ. Москва, 1999.
- Шодмонов Ш.Ш., Баубекова Г.Д. Педагогическое мастерство и инновации в преподавании экономической теории. - Т.: Янги аср авлоди. 2004.
- Грязновой А.Г. и др.В поисках новой теории с проблемными ситуациями. - М.: 2004.
- Куторжевский Г.А. Экономика. Основы теории. - М.: ЗАО изд-во Экономика, 2004.
- Бренделёва Е.А. Неоинституциональная теория. - М.: ТЕИС, 2003.
- Клинов В. Г. Экономическая конъюнктура Факторы и механизм ее формирования. - М.: МГИМО, 2003.
- Хубиева К.А. Современная экономическая теория: проблемы разработки и преподавания. - М.:Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2002
- Шастицко А.Е. Новая институциональная экономическая теория. - М.: Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2002.
- Узбекистон Республикаси статистика вазирилиги маълумотлар.
- Интернет сайтлари.
- WWW.stat.uz
- WWW.aza.uz
- WWW.ceep.uz
- www.bearingpoint.uz
- www.economy.com
- www.internetindikators.com
- www.economyworld.com
- www.economyworld.org
- www.md-management.ru
- www.uzreport.com
- www.uzsecurities.com
- www.uzexport.com

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| KIRISH..... | 3 |
| I bo'lim. IQTISODIY TARAQQI YoTNING UMUMIY ASOSLARI | 5 |
| 1-mavzu. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti va uslubi | 5 |
| 2-mavzu. ISHLAB CHIQARISH JARA YONI VA TOVAR-PUL MUNOSABATLARI | 16 |
| Qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyasi | 21 |
| 3-mavzu. MULKChILIK MUNOSABATLARI VA IQTISODIY TIZIMLAR | 25 |
| II bo'lim. BOZOR IQTISODIYOTI | 40 |
| 4-mavzu. BOZOR IQTISODIYOTINING MOHIYATI VA O'ZBEKISTONNING BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH XUSUSIYATLARI | 40 |
| 5-mavzu. TALAB VA TAKLIF NAZARIYaSI | 56 |
| 6-mavzu. TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA UNING ShAKLLARI | 65 |
| TADEBIRKORLIK KAPITALI VA UNING AYLANISHI | 65 |
| MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI JADAL RIVOJLANTIRISH BORASIDA ERISHILGAN YUTUQLAR | 81 |
| 7-mavzu. Raqobat VA NARXLARNING ShAKLLANISHI | 84 |
| 8-mavzu. Agrar munosabatlari va agrobiznes | 100 |
| 9-mavzu. MILLIY IQTISODIYOT, UNING MAKROIQTISODIY O'LChAMLARI VA IQTISODIY O'SISH | 114 |
| 10-mavzu. YALPI ISHCHI KUCHI, UNING BANDLIGI VA ISHSIZLIK | 125 |
| 11-mavzu. MOLIYa TIZIMI VA MOLIYaVIY SIYoSAT | 144 |
| 12-mavzu PUL MUOMALASI, KREDIT TIZIMI VA BANKLAR | 159 |
| 13-mavzu. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI | 174 |
| 14-mavzu. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYoSATI | 181 |
| 15-mavzu. JAHON XO'JALIGI, UNING EVOLyuTSIYaSI VA UMUMBASHARIY IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLAR | 192 |
| 16-mavzu. JAHON BOZORI, XALQARO VALUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI | 210 |
| Adabiyotlar ro'yxati | 220 |

**F.T. EGAMBERDIYEV, S.R. TOPILDIYEV,
J. X. HAMRAQULOV**

IQTISODIYOT NAZARIYASI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir N. Rustamova
Badiiy muharrir M. Odilov
Kompyuterda sahifalovchi A. Tillaxo‘jayev

Nashr lits. AI № 174, 11.06.2010.

Bosishga ruxsat 05.03.2014da berildi Bichimi 60×84¹/₁₆.
Ofset qo‘g‘ozи №2. Times garniturasи. Sharhl b.t. 13,02.

Nashr-hisob t. 14,0. Adadi 300 dona.

Buyurtma № 3.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi
100084. Toshkent. Kichik halqa yo‘li, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI» bosmaxonasida
ofset usulida chop etildi.
100003. Toshkent. Olmazor, 171-uy.